

M.N. BOLIYEV

LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGİYASI



A B
C D
E

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI**

M.N. BOLIIYEV

LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI

Tibbiyot kollejlari uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2010


81.2
B83

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'imi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

«Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi» fani darsligi kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlandi va to'ldirildi. Fonetika, harf va tovushlar tasnifi, odam skeleti va ichki a'zolari, dori shakllari, dorivor o'simlik qismlariga doir ma'lumotlar hamda nazoqat-ishlari variantlari kabi qismlar kiritildi. Ushbu darslikda tibbiy atamalarning yasalishi va ularning zamonaviy tibbiyot terminologiyasi (anatomik, davolash hamda dorishunoslik)da qo'llanilishi berilgan. Darslikdagi mavzular boblarga bo'lingan. Qo'shimcha ma'lumotlarda kasallik nomlari, tibbiy fanlar va davolash usullari, shuningdek, xalq tabobatida qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar va mevalarning lotincha nomlari berilgan.

Mas'ul muharrirlar: **N.Q. TURNIYOZOV** — Samarqand Davlat chet tillar instituti professori; **M.M. YO'LDOSHEV** — Samarqand Davlat universiteti professori.

Taqrizchilar: **A.E. MAMATOV** — Samarqand Davlat tibbiyot instituti professori; **Z.B. O'RINBOYEV** — Samarqand Davlat universiteti dotsenti; **I.K. MIRZAYEV** — Samarqand Davlat universiteti professori; **A.M. BUSHUY** — Samarqand Davlat chet tillar instituti professori. **D. SALOHIIY** — Samarqand Davlat universiteti professori.



MUQADDIMA

Har bir fan zamon o'zgarishi bilan rivojlanib, takomillashib boradi. Tibbiyot sohasidagi lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fanining rivoji tibbiy fanlar bilan bog'liqdir. Tibbiyot kollejlari o'quvchilarga tibbiyot hamda tabobatda qo'llaniladigan tib atamalarini o'rgatish asosiy maqsadi hisoblanadi.

Darslik materiallari tibbiyot kollejlari uchun tuzilgan dastur asosida berilgan. Ushbu darslikdagi topshiriqlar turli xil bo'lib, ular o'quvchilarning mustaqil ishlash va fikr yuritish, izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi malakalar hosil qilishida muhim ahamiyatga ega.

Tibbiyot atamalari yasashida qo'llaniladigan so'z yasovchi qo'shimchalar va lotincha-yunoncha ma'nodosh so'zlarning darslikda berilishi so'z turkumlaridan ot hamda sifatlarga oid mavzularni chuqurroq o'rganishga qaratilgan. Har bir mavzuda yodlash uchun so'zlar, mashqlar va retseptlar mutaxassisliklarning turlariga qarab, ya'ni M*— *anatomik*, S—M*— *davolash*, M—F*— *umumtibbiy*, F*—*dorishunoslikka doir* atamalar berilgan.

Ushbu to'rtinchi nashr qo'shimchalar kiritilgan holda qayta ishlandi. «Fonetika» bo'limidagi mashqlar, yozma nazorat ishlardan namunalar, tashqi a'zolar, skelet, ichki a'zolar, dori shakllari, dorivor o'simlik tarkibiy qismlarining rasmlari va nomlari qo'shimcha qilindi.

Mavzular so'nggida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning dunyoqarashi va ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirishga ko'maklashuvchi mustaqil o'rganish uchun lotin maqollari hamda hikmatli so'zlar berilgan. Darslikda lotincha-o'zbekcha lug'at berilgan bo'lib, bu o'quvchilarning mashq va topshiriqlarni mustaqil bajarishiga yordam beradi. Shuningdek, lotin tilini yaxshi o'zlashtirish maqsadida matnli mashqlar ilova qilindi.

Tibbiyot kollejlari o'quvchilari tibbiyotni o'rganishga kirishishdan oldin quyidagilarni doimo yodda tutishlari kerak: «*In via est in medicina via sine lingua latina* — lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q» yoki «*Non est medicina sine lingua latina* — lotin tilisiz tibbiyotni tasavvur etib bo'lmaydi».

LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Tibbiyotga oid yangiliklar, kasalliklar, dorilarning nomi necha asrlar davomida lotin-yunon tilida berilgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili, deb tan olingan. Bu esa, tibbiy olimlarning hamkorlikda ishlashlariga yanada yordamlashadi.

Juda qadim zamonlarda hozirgi Italiya hududidagi Appenin yarim orolida Latsiya viloyati bo'lib, u yerda lotin qabilasi yashagan. Bu qabila bosqinchilik urushlari vaqtida butun Yevropa, Afrikaning shimoliy qismi va O'rta yer dengizida yashovchi qabilalarga o'z hukmdorligini o'tkazgan. Bosib olingan yerlarda yashovchi qabilalarga o'z tilini, ya'ni lotin tilini davlat tili, deb qabul qilishga majbur qilgan. Lotinlarning poytaxti Rum shahri bo'lgan. Rum saltanati Yunonistonni bosib olganda, bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, u Rum davlati xalqlari madaniyatida o'z aksini topgan. Buni tibbiyotning davolashga doir atamalarida yaqqol ko'rish mumkin.

Keyinchalik, eramizning beshinchi asrlariga kelib, Rum saltanati inqirozga uchradi va uning o'rniga hozirgi Fransiya, Ispaniya, Yunoniston, Misr, Italiya va shunga o'xshash boshqa davlatlar yuzaga keldi. Ilk bor tibbiy atamalar yig'masini eramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan tibbiy alloma Buqrot (Gippokrat) yozgan. Ko'p olimlar o'zlarining ilmiy ishlarini lotin tilida yozib, ilmiy darajalarni himoya qilishgan.

Yevropa mamlakatlarida XVIII asrgacha lotin tili fan va ma'muriy ishlarda ishlatilib kelingan. Lekin milliy davlatlarning shakllanishi bilan lotin tili o'zining fan va madaniyat sohasidagi ahamiyatini butunlay yo'qotdi. Lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsa-da, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayni paytda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlarida lotin tilidan keng foydalaniladi. Bu, ayniqsa, tibbiyotda yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki anatomik va davolashga oid atamalar hamda dorilarning nomi lotin tilidadir. Retsept varaqasida hamisha dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko'rsatmalar lotin tilida yoziladi. Shunday ekan, bo'lajak o'rta tibbiyot xodimlari ham lotin tilini puxta o'zlashtirib olishsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

FONETIKA

1-§. LOTIN TILI ALIFBOSI

Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor.

Bosma harflar	Yozma harflar	Harflarning nomi	O'zbekcha muqobili
Aa	<i>Aa</i>	a_ (a)	a
Bb	<i>Bb</i>	be_ (be)	b
Cc	<i>Cc</i>	ce_ (se)	ts, s yoki k
Dd	<i>Dd</i>	de (de)	d
Ee	<i>Ee</i>	e (e)	e
Ff	<i>Ff</i>	ef (ef)	f
Gg	<i>Gg</i>	ge (ge)	g
Hh	<i>Hh</i>	ha (xa)	h
Ii	<i>Ii</i>	i (i)	i
Jj	<i>Jj</i>	jota (yota)	y
Kk	<i>Kk</i>	ka (ka)	k
Ll	<i>Ll</i>	el (el)	l
Mm	<i>Mm</i>	em (em)	m
Nn	<i>Nn</i>	en (en)	n
Oo	<i>Oo</i>	o_ (o)	o
Pp	<i>Pp</i>	pe_ (pe)	p
Qq	<i>Qq</i>	qu (qu)	q
Rr	<i>Rr</i>	er (er)	r
Ss	<i>Ss</i>	es_ (es)	s yoki z
Tt	<i>Tt</i>	te (te)	t
Uu	<i>Uu</i>	u_ (u)	u
Vv	<i>Vv</i>	ve (ve)	v
Xx	<i>Xx</i>	ix (iks)	iks
Yy	<i>Yy</i>	ypsilon (ipsilon)	i
Zz	<i>Zz</i>	zeta (zeta)	z yoki ts

2-§. TOVUSHLAR TASNIFI

Lotin tilida tovushlar talaffuz etilishiga ko'ra **unli** (*vocales*) va **undosh** (*consonantes*) tovushlarga bo'linadi: *a, e, i, o, u, y* tovushlari unli; *b, c, d, f, g, h, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z* tovushlari undosh tovushlar hisoblanadi.

3-§. UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI

«**A, a**» unli tovushi o'zbek tilidagi «**A**» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *amarus* (amarus) — achchiq, *albus* (albus) — oq, *abdomen* (abdomen) — qorin.

«**E, e**» unli tovushi o'zbek tilidagi «**E**» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *pes* (pes) — oyoq, *elasticus* (elastikus) — qayishqoq, bukiluvchan, *derma* (derma) — teri.

«**I, i**» unli tovushi o'zbek tilidagi «**I**» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *internus* (internus) — ichki, *intestinum* (intestinum) — ichak.

«**O, o**» unli tovushi o'zbek tilidagi «**O**» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *organum* (organum) — a'zo, *lobus* (lobus) — bo'lak, *oculus* (okulus) — ko'z.

«**U, u**» unli tovushi o'zbek tilidagi «**U**» tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *uterus* (uterus) — bachadon, *ulcus* (ulkus) — yara, *urina* (urina) — siydik.

«**Y, y**» unli tovushlar o'zbek tilidagi «**I**» unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: *symptoma* (simptoma) — belgi, alomat, *amygdala* (amigdala) — bodom, *Gossypium* (gossypium) — paxta.



1-mashq. O'qing. Unli harflarning o'qilish qoidasiga rioya qiling.

Amarus, Valeriana, emulsum, tabuletta, pasta, gaster, rubor, organum, linimentum, mastitis, costalis, bacterium, ventriculus, optimus, morbus, internus, tuberculum, sepsis, duodenum, oculus, hepatitis, medicamentum, ureter, elasticus, abdomen, vertebra, uterus, vagina, vena, sutura, scapula, papilla, medulla, urina, arteria, Kalium, lobulus, decoctum, Amygdala, spiritus.

4-§. DIFTONGLAR

Bir tovushni ifodalovchi ikki unli harf birikmasi diftong deb ataladi. Lotin tilida, asosan, to'rtta diftong bor:

«ae» unli harflari birikmasi o'zbekcha «e» deb o'qiladi. Masalan: *aegrotus* (egrotus) — bemor, *gangraena* (gangrena) — tirik to'qimalarning o'lishi, *Laevomycesinum* (levomitsetinum) — levomitsetin.

«oe» unli harflari birikmasi o'zbekcha «e» deb o'qiladi. Masalan: oedema (edema) — shish, *Foeniculum* (fenikulum) — shivit.

«au» unli harflari birikmasi (au) dagi (u) harfi qisqa o'qiladi. Masalan: *Aurum* (aurum) — oltin, *trauma* (trauma) — shikastlanish.

«eu» unli harflar birikmasi (eu) dagi (u) harfi qisqa o'qiladi. Masalan: *neuralgia* (neuralgiya) — asab kasalligi, *pneumonia* (pneumoniya) — o'pkaning yallig'lanishi. *Leukomycesinum* (leukomitsin) — leykomitsin.

«ai» unli harflar birikmasi lotin tilida «ai» deb talaffuz qilinadi. Masalan: *Daimeton* (daimeton) — daimeton, *Dikcainum* (dikaynum) — dikain, *Naucain* (naukain) — novokain.

«ei» unli harflar birikmasi lotin tilida «ei» deb talaffuz qilinadi. Masalan: *Luteine* (luteine) — lutein.

«ou» unli harflar birikmasi o'zbekcha «u» deb o'qiladi. Masalan: *croup* (krup) — hiqildoqning o'tkir yallig'lanishi.

Ba'zi vaqtlarda qator kelgan ikki unli harf birikmasi diftong hosil qilmaydi, u holda ikkinchi unli harfning ustiga ikki nuqta qo'yiladi va unililar ayrim-ayrim o'qiladi. Masalan: *aër* (aer) — havo, *Aërosolum* (aerolum) — aerazol, *Aloë* (aloe) — sabur, *dyspnoë* (dyspnoe) — nafas qisishi.

2-mashq. O'qing. Diftong va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Præparatum, diaeta, apnoë, anaemia, paediter, haema, oedema, gangraena, haematogenum, aurum, pneumonia, Aloë, Aminocaine, Daimeton, Intercain, Luteine, Foeniculum, Crataegus, roentgenum, aurus, bacteriaemia, oestrogenus, haemostaticus, aër, hyperaemia, trauma, leukaemia, croup, dyspnoë, Novocainum.

3-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va tibbiy termin shaklida yozing.

[*Valeriana*], [*preparatum*], [*spiritus*], [*apnoe*], [*planta*], [*dieta*], [*aurum*], [*emulsom*], [*medulla*], [*skapula*], [*anemia*], [*hema*], [*pediter*], [*dekoktum*], [*tabuletta*], [*kaput*], [*okulus*], [*auris*], [*oris*], [*trunkus*], [*kollum*],

[manus], [duktus], [mamma], [dorsum], [pektus], [umbilikus], [gluteus], [anus], [penis], [vagina], [testis], [pes], [edema], [pasta], [gangrena], [gaster], [hematogenum], [Aloë], [pneumonia], [fenikulum], [rentgenum], [linimentum], [morbus], [Kratagus], [bakteriemia], [morbus], [estrogenus], [duodenum], [hemostatikus], [medikamentum], [trauma], [elastikus], [urina], [leukemia], [abdomen].



4-mashq. O'qing. Diftonglar va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

Aceteinum, Aminocaine, anaemia, amarus, auris, bacca, bacterium, Cysteinum, caecum, cito, cutis, Daimeton, dens, decoctum, emulsum, faex, gaster, haema, Herocaine, internus, intercain, Juniperus, Laevomyctinum, lobulus, Luteine, Leukomycin, Kalium, medulla, nasus, Neurofinum, oedema, Novocainum, papilla, Procaine, rubor, scabies, scapula, Syntocainum, sutura, succus, tabuletta, tuberculum, ureter, uterus, vagina, vertebra, vena.

5-§. UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI

«C, c» harfi ikki xil o'qiladi:

e, i, y — unli harflari va **ae, oe** diftonglari oldida (s) deb o'qiladi. Masalan: *cerebrum* (serebrum) — miya, *cystis* (sistis) — pufak, *cito* (sito) — tez, *caecum* (sekum) — ko'richak, *coelia* (seliya) — qorin bo'shlig'i.

Boshqa hollarda, ya'ni **a, o, u** — unliharflari oldida, undoshlar oldida va so'z oxirida kelsa, **c** harfi (k) deb o'qiladi. Masalan: *caput* (kaput) — bosh, *costa* (kosta) — qovurg'a, *cuprum* (kuprum) — mis, *lac* (lak) — sut, *medicus* (medikus) — shifokor, do'xtir.

H, h — o'zbekcha (h) harfi kabi talaffuz qilinadi: *herba* (herba) — o't (bot.) *humanus* (humanus) — odamiylik, *hepar* (hepar) — jigar, *haema* (hema) — qon.

K, k — harfi tibbiy lotin tilida kam qo'llaniladi, faqatgina yunon va arab tilidan kirib kelgan atamalarda uchraydi: *Kalium* (kalium) — kaliy, *keratoma* (keratoma) — shoxsimon o'sma.

L, l — harfi yumshoq talaffuz qilinadi. *mel* (mel) — asal, *luna* (luna) — oy, *labium* (labium) — lab.

S, s —harfi ikki unli yoki har qanday bir unli bilan **m, n** undosh harflari o'rtasida (z) harfidek, boshqa hollarda esa (s) deb o'qiladi: *Rosa* (roza) — atirgul, *vaselinum* (vazelinum) — vazelin, *neoplasma* (neoplazma) — neoplazma, *scabies* (skabies) — qichima, *menzis* (menzis) — oy.

X, x — harfi ikki unli o'rtasida kelsa (gz) deb o'qiladi, qolgan holarda (ks) yoki (gs) deb talaffuz qilinadi: *apex* (apeks) — uch yoki bosh qism, *exitus* (egzitus)—natija, *lex* (legs)—qonun, *radix* (radiks)—ildiz.

Z, z —harfi yunon va boshqa tillardan o'zlashtirilgan atamalarda (z) deb o'qiladi: *zone* (zona) — zona, *zygoma* (zigoma) — yuz (yonoq) suyagi, *zonula* (zonula) — kamarcha. Lekin *Zincum* (sinkum) — rux va *influenza* (influenza) — yuqori nafas yo'llarining o'tkir katari atamalaridagina z — harfi (s) deb talaffuz qilinadi.



5-mashq. *Undosh harflarning o'qilishiga e'tibor bering.*

Activatus, leukaemia, Haematogenum, occipitalis, contagiosus, nasalis, bacteriaemia, costalis, roentgenum, suppositorium, conjunctivus, sternum, gargarisma, spirituosus, paralysis, densitas, auris, laryngitis, symptoma, Magnesia, auscultare, Crataegus, apnoë, hyperaemia, gangraena, paediatr, haemostaticus, oestrogenus, aestimare, vaccinum, officinalis, pancreas, Amidopyrinum, cellula, hygiëna, cera, cito, statim, praeparatum, prognosis, medicamentum, diagnosis.



6-mashq. *Quyidagi atamalarda C harfining (ts) tovushidek o'qilishini tushuntiring.*

Canalis, cerebrum, costa, occipitalis, conjunctivus, Crataegus, collum, cranium, cytus, ductus, processus, tuberculum, rectum, faciës, tinctura, caecum, cella, calvaria, decoctum, cerebellum, causticus, ventriculus, medicinalis, columna, scapula.



7-mashq. *Quyidagi atamalarda C harfining (K) tovushidek o'qilishini tushuntiring.*

Abducens, abductor, acidum, acetum, bacca, bacterium, cancer, cartilago, cutis, cystis, elasticus, fascia, fructus, hepaticus, jecur, lac, medicamentum, mucilago, narcosis, oculus, pancreas, rectalis, scabies, succus, tuberculum, Urtica, vaccinum.

8-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o'qing va S harfining (Z) tovushdek talaffuz qilinishini tushuntiring.


Abdominalis, Anisum, amarus, amnesia, bacillus, blastoma, calcaneus, cardiacus, cutis, cystis, dosis, narcosis, naturalis, nasus, obductus, otitis, optimus, spasmus, tabes, usus, vaselinum, vesica, virus.

9-mashq. Tibbiy atamalarni o'qing va S harfining (S) tovushidek o'qilishini tushuntirib bering.

Auris, abducens, compositus, dens, dentalis depuratus, dilutus, destillatus, durus, dysuria, dysenteria, emulsum, fissura, fibrosus, genus, hydrops, incisura, intestinum, internus, lobus, mastitis, mollis, morbus, neurosis, ostium, paries, percussio, Ricinus, Rosa, siccus, sternum, succus, species, tonsilla, ulcus, vaginalis, vomicus.

10-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o'qing, x va z harflarining o'qilishiga e'tibor bering.

Zona, exoderma, exoplasma, xeroformium, eczema, extractum, larynx, zygoma, dexter, mixtura, Zincum, Taraxacum, radix, influenza, cortex, maxilla, externus, zygomatikus, zonula, Oryza.



1-rasm. Harflar va tovushlar tasnifi.

6-§. HARF BIRIKMALARI VA QO'SH UNDOSHLARNING O'QILISH XUSUSIYATLARI

q — harfi doimo «u» harfi bilan birgalikda kelib, unli harf oldidan kelganda (kv) deb talaffuz qilinadi: *aqua* (akva) — suv, *quinque* (kvinkve) — besh, *quadriceps* (kvadritseps) — to'rt boshli.

ngu — harflar birikmasi unli oldida kelganda (ngv), boshqa hollarda esa (ngu) deb o'qiladi: *Lingua* (lingva) — til, *unguentum* (ungventum) — surtma, *angulus* (angulus) — burchak.

su — harf birikmasi a, e unli harflari oldida ketsa (sv), boshqa hollarda (su) deb o'qiladi: *Suavis* (svavis) — yoqimli, *consuetudo* (konsvetudo) — odat, *Suinsulinum* (suinsulinum) — suinsulin.

ti — harf birikmasi unlihar oldida kelganda (si) deb o'qiladi, lekin s, x undoshlaridan keyin kelganda esa (ti) deb talaffuz qilinadi: *Articulatio* (artikulatsio) — bo'g'in, *solutio* (solutio) — eritma, *ostium* (ostium) — teshik, *mixtio* (mikstio) — aralashish.

sch — harflar birikmasi (sx) deb o'qiladi: *Schizandra* (sxizandra) — limono't, *ischium* (isxium) — dumba suyagi.

Quyidagi harf birikmalarini yunon tilidan o'zlashtirilgan atamalarda uchratish mumkin.

ch — harflari birikmasi (x) deb talaffuz qilinadi: *Chirurgus* (xirurgus) — jarroh, *Chamomilla* (xamomilla) — moychechak.

ph — harflar birikmasi (f) deb o'qiladi: *Diaphoreticus* (diaforetikus) — terlatuvchi, *Phosphorus* (fosforus) — fosfor.

th — harflari birikmasi (t) deb o'qiladi: *Mentha* (menta) — yalpiz, *thermometrum* (termometrum) — harorat o'lchagich.


rh — harf birikmasi (r) deb o'qiladi: *Rheum* (reum) — rovoch, *rhaphe* (rafe) — chok chizig'i.



11-mashq. Quyidagi anatomik atamalarni o'qing va tarjima qiling.


a) Cranium, maxilla, mandibula, dens, vertebra, columna, ulna, clavicula, scapula, thorax, costa, sternum, humerus, radius, femur, carpus, metacarpus, phalanx, patella, fibula, tibia, metatarsus, tarsus.

b) Lingua, pharynx, larynx, trachea, oesophagus, cor, pulmo, lien, diaphragma, hepar, ventriculus, vesica, duodenum, ovarium, testis, pancreas, uterus, colon, intestinum, processus.


 **12-mashq.** *Quyidagi farmakologik atamalarni o'qing va tarjima qiling.*

a). Tabuleta, pilula, dragee, briket, pulvis, unguentum, tinctura, linimentum, suppositorium, emplastrum, mixtura, oleum, solutio, extractum, decoctum, infusum, emulsum, suspensio, mucilago, aërosolum.

b). Herba, folium, flos, bacca, semen, stigma fructus, tuber, radix, rhizoma, cortex, secale cornutum.

 **13-mashq.** *Atamalarni o'qing va ostiga chizilgan harf birikmalarining talaffuziga e'tibor bering.*

Aithaea, aether, bronchus, camphora, **chirurgus**, bronchialis, Morphinum, encephalon, Hippophaë, Kalanchoë, kephalaria, metaphysis, nephritis, **phlegmone**, phystiotherapia, **physiologia**, **thorax**, xerophagia, Ichthyolum, **Rheum**, **phalanx**, **rheumatismus**, saccharum, **rhaphe**, erythema. **therapia**, diaphoreticus, **Phosphorus**, **Mentha**, concha, cirrhosis, Helianthus, **Phenolum**, **Chamomilla**, Schizandra, diaphragma, **Ephedra**, lethargia, **cholecystopathia**, **Strophanthus**, **pharmacologia**, **chronicus**, Glycyrrhiza, terebinthina.

 **14-mashq.** *Quyidagi atamalarni o'qing va ti, qu, ngu, su harf birikmalari talaffuziga e'tibor bering.*

Angulus, pinguis, essentia, lingua, suasor, articulatio, costio, operatio, equisetum, Sanguisorba, unguentum, Liquiritia, unguis, aqua, quadriceps, suavis, Suinsulinum, ostium, mixtio, longus, aequalis, Quersus, liquor, squama, combustio, injectio, substantia, solutio, liquor, sublingualis.

7-§. UNLI «Y» HARFINING TIBBIY ATAMALARDA QO'LLANILISHI

Unli «Y» harfi yunon tilidan o'zlashtirilgan atamalarda uchraydi. «Y» unlisi old qo'shimchalarda, o'zak va qo'shimchalarda uchrashi mumkin. Buning uchun quyidagi old qo'shimcha, o'zak va qo'shimchalarni esda saqlash kifoya:

oxy-	hydr-
hyper-	pyo-
hypo-	pyr-
glyc-	syn-
yl-	myc-
dys-	yo-

oxy — taxir; oxygenium — kislorod;
 hyper — yuqori, ko'proq; hypertonia — qon bosimining ko'tarilishi

<i>glyc</i>	— shirin;	<i>Glycyrrhiza</i>	— shirinmiya
<i>yl</i>	— modda;	<i>amylum</i>	— ohor
<i>hypo</i>	— past, kamroq;	<i>hypotonia</i>	— qon bosimining pasayishi
<i>hydr</i>	— suv;	<i>Hydrogenium</i>	— vodorod
<i>pyo</i>	— yiring;	<i>pyorrhoea</i>	— yiring oqishi
<i>myo</i>	— mushak;	<i>myocardium</i>	— yurak mushagi
<i>pyr</i>	— issiqlik;	<i>Antipyrinum</i>	— issiqni pasaytiruvchi dori
<i>myc</i>	— qo'ziqorin;	<i>Biomycinum</i>	— biomitsin
<i>dys</i>	— kasallik holati yoki a'zo faoliyatining buzilishi;	<i>dysuria</i>	— qovuqdan siydik chiqishining qiyinlashuvi

syn
(sym) — ulash; *symphysis* — qo'shilish.



15-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni o'qing.


Antipyrinum, butyrum, cystis, dysenteria, dystrophia, hydrops, hypnoticus, mycosis, myotonia, larynx, lymphia, hypertonia, lymphaticus, hypotonia, myoma, myalgia, physiologia, polyvitaminum, dystrophia, Glycyrrhiza, cytologia, dyspepsia, amylaceus, erythrocytus, pyocytus, Glycerinum, Erythromycinum, Glycosidum, Gossypium, hydroxydum, Hyoscyamus, hyperaemia, hypothermia, Ichthyolum, Hydrargyrum, Helichrysum, gypsum.




Mavzularga oid savollar

1. Lotin alifbosini yoddan aytib bering.
2. Qaysi harflar (I) tovushidek talaffuz qilinadi?
3. Qanday diftonglarni bilasiz?
4. **Ae, oe, au, eu** harf birikmalari qanday o'qiladi?


5. **Ai, ei, ou** harf birikmalari qanday talaffuz qilinadi?
6. **C** harfi qaysi hollarda (ts) va (k) deb o'qiladi?
7. **S** harfi qaysi hollarda (s) va (z) deb o'qiladi?
8. **X** va **Z** harflarining o'qilish qoidasini aytib bering.
9. **Qu** va **ngu** harf birikmalari qanday o'qiladi?
10. **Ti** va **su** harf birikmalari qanday o'qiladi?
11. **Sch, ch, ph, th** va **rh** harf birikmalari qanday o'qiladi?



2-rasm. Skelet (skeleton).



3-rasm. Skelet (skeleton).



4-rasm. Ovqat hazm qilish va nafas olish a'zolari —
Apparatus digestorius et apparatus respiratorius.



5-rasm. Dori shakllari va idishlari —
Formae medicamentorum et officinalum:

1 — capsula gelatinosa; 2 — capsula gelatinosa elastica; 3 — capsula amylacea seu oblata; 4 — suppositoria; 5 — globulus; 6 — bacilli; 7 — ollae; 8 — vitra; 9 — tabuletta; 10 — pilula; 11 — pulvis in charta paraffinata; 12 — mensura; 13 — ampullae.

ADTI
 AXB. RESURS MARKAZI



6-rasm. Dorivior o'simlik qismlari — *Partes plantarum officinalis*:
 1 — Herba; 2 — Folia; 3 — Flores; 4 — Bacca; 5 — Semina; 6 — Stigma;
 7 — Fructus; 8 — Tuber; 9 — Radix; 10 — Rhizoma; 11 — Secale
 cornutum; 12 — Cortex.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Non scholae, sed vitae discimus.

Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyamiz.

In via est in medicina via sine lingua latina.

Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.

Radix litterarum amarae sunt, fructus dulce.

Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa, shirin.

8-§. SO‘ZLARNING BO‘G‘INLARGA BO‘LINISHI

Lotin tilida o‘zbek tilidagidek so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi va so‘zda necha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi. Masalan: *Com-po-si-tus, de-pu-ra-tus, mas-ti-tis*. Tovushlar cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning cho‘ziqligini belgilash uchun harf ustiga to‘g‘ri chiziqcha, qisqaligini belgilash uchun yoysimon chiziqcha qo‘yiladi:

— ̄ — ̄ — ̄ — ̄ — ̄ — ̄
a a, o o, ī ī, u u, e e, y y.

Tovush va bo‘g‘inlarning cho‘ziq yoki qisqaligini aniqlash uchun harf ustiga urg‘u belgisini (‘) qo‘yish kerak.

9-§. BO‘G‘INLARNING CHO‘ZIQ VA QISQALIK QOIDALARI

1. Cho‘ziqlik qoidasi

1. Agar bo‘g‘inda diftong bo‘lsa, o‘sha bo‘g‘in cho‘ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *Gangrāena* — to‘qimalarning o‘lishi; *diaeta* — parhez; *lagoēna* — shisha idish.

2. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki **x** va **z** undoshlari oldida kelsa, shu bo‘g‘in cho‘ziq o‘qiladi. Masalan: *Maxilla* — yuqori jag‘; *tabulētta* — tabletka; *unguentum* — surtma; *Glycyrrhīzā* — qizilmiya; *reflexus* — refleks.

3. Agar bo‘g‘inda **ūr**, **īn**, **āt**, **ūt**, **ar**, **āl**, **ōs** qo‘shimchalari bo‘lsa, bu bo‘g‘inlar cho‘ziq o‘qiladi. Masalan: *Fissūra* — tirqish; *Analgīnum* — analgin; *nitratīs* — nitrat; *acūtus* — o‘tkir; *aquōsus* — suvli; *musculāris* — mushakli; *costālis* — qovurg‘aga oid.

2. Qisqalik qoidasi

1. Agar unli harf unli harf oldida kelsa, o‘sha bo‘g‘in qisqa o‘qiladi. Masalan: *Oleum* — moy; *labium* — lab; *folium* — barg.

2. Agar unli harf **bl**, **br**, **cl**, **cr**, **dl**, **dr**, **pl**, **pr**, **tl**, **tr** harf birikmalari oldida kelsa, shu unli qisqa talaffuz qilinadi: *Vertebra* — umurtqa; *cerebrum* — bosh miya; *cicatrix* — chandiqlik; *palpebra* — qovoq.

3. Agar unli harf **ch**, **th**, **ph**, **rh**, **qu** harf birikmalari oldida kelsa, qisqa o‘qiladi: *Stomachus* — oshqozon; *reliquus* — qoldiq; *Amaphos* — amafos; *choledochus* — o‘t (safro)ga oid.

4. Agar bo'g'inda **ul, ol, ib, il, id** harf birikmalari bo'lsa, bo'g'in qisqa o'qiladi: *Injectabilis* — igna orqali dori yuborishga taalluqli; *gracilis* — nafis; *solubilis* — eruvchan; *fluidus* — suyuq.

5. **ia** qo'shimchasiga ega bo'lgan ayrim yunon atamalarida urg'u i harfiga tushadi: *Dysenteria* — ichburug'; *anaemia* — kamqonlik; *therapia* — davolash; *hypertonia* — qon bosimining ko'tarilishi.

10-§. URG'U

O'zbek tilida urg'u odatda ko'pincha so'zning oxirigi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi. Masalan: jigar, yurak.


Lotin tilida esa, urg'u so'zning oxiridan ikkinchi yoki uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi.

1. Lotin tilida urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi.

2. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi: *Costa* — qovurg'a; *caput* — bosh.

3. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, urg'u o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi: *Medicina* — tibbiyot; *tinctura* — spirtli eritma; *destillatus* — tozalangan; *solutus* — eritilgan.

4. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi: *Medicus* — shifokor; *pilula* — hab dori; *cranium* — bosh suyagi.

 **16-mashq.** *Urg'u qoidasiga rioya qilgan holda quyidagi tibbiy atamalarni o'qing.*

Ligamentum, extractum, vertebra, complexus, Glucyrrhiza, cerebrum, cranium, pilula, pneumonia, cella, musculus, acidum, femur, pectoralis, clavicula, medicatus, therapia, scabies, palpebra, oleum, butyrum, dystonia, fractura, anaemia, aethereus, tuberculum, folium, solutio, decoctum, tinctura, depuratus, signatura, operatio.

Mavzularga oid savollar

1. Urg'u qoidasini bayon eting.
2. Bo'g'inlarning cho'ziqlik qoidasini bayon eting.
3. Bo'g'inlarning qisqalik qoidasini izohlang.
4. Tibbiy atamalarda urg'u qaysi bo'g'inlarga qo'yiladi?
5. Unli tovush qachon cho'ziq o'qiladi?
6. Unli tovush qachon qisqa o'qiladi?



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Omne principium diffecile est.

Har bir ish boshlanishidagina qiyin.

Qui scribit, bis legit.

Yozmoq, ikki qayta o'qimoqdir.

Alit lectio ingenium.

O'qish aqlni peshlaydi.

11-§. SO'ZLARNING YASALISHI

So'z tartibi. Tibbiy atamalarning yasalish usullari

Hozirgi zamon lotin tibbiy atamaları tibbiyotning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Qadimgi yunon olimi Buqrot tibbiy atamashunoslikka asos solgan olimdir. Vaqt o'tishi bilan tibbiy atamalar ko'pgina yangi so'zlar bilan boyidi, ko'pgina atamalar qaytadan ko'rib chiqildi yoki ma'nosi o'zgartirildi. Endi u yoki bu atamaning ma'nosini tushunish uchun ko'pgina atamaning tarkibiy qismini farqlash bilangina cheklanib qolmasdan, ularning ma'nosini ham bilish kerak, buning uchun so'z tarkibini bilish zarur. Har bir so'zni, agar u faqat yordamchi so'z bo'lmasa, ma'noli qismlarga ajratish mumkin: old qo'shimcha, o'zak, so'z yasovchi qo'shimcha va tugallanma.

O'zak deb, so'zning tub ma'nosini bildiradigan, biror qo'shimcha olmagan qismiga aytiladi. Masalan:

<i>Medicus</i>	— shifokor
<i>medicina</i>	— tibbiyot
<i>medicinalis</i>	— tibbiy

Bu atamalarda umumiy o'zak *medic* — hisoblanadi.

O'zak oldida kelib unga yangi ma'no beradigan qismiga old qo'shimcha deyiladi:

<i>Intercostalis</i>	— qovurg'alar oralig'iga qarashli
<i>intervertebralis</i>	— umurtqalar oralig'iga oid
<i>interosseus</i>	— suyaklar oralig'iga tegishli

Bu atamalarda old qo'shimcha **inter** hisoblanadi.

O'zakdan keyin kelib, so'zga yangi ma'no beruvchi qismiga **so'z yasovchi** qo'shimcha deyiladi:

<i>costalis</i>	— qovurg'aga tegishli
<i>vertebralis</i>	— umurtqaga tegishli

Bu yerda so'z yasovchi qo'shimcha — **alis** hisoblanadi.

So'zning turlanish yoki tuslanishdagi o'zgaruvchan qismiga **tugallanma** deyiladi:

<i>Succus purus</i>	— toza shira
<i>aqua pura</i>	— toza suv
<i>unguentum purum</i>	— toza surtma

Bu atamalarda **-us**, **-a**, **-um** tugallanmalardir. Atamaning asosiy ma'nosini bilduruvchi, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar olmagan qismiga negiz deyiladi:

<i>costa</i>	(negiz—cost)
<i>vertebra</i>	(negiz—vertebr)
<i>intervertebralis</i>	(negiz—intervertebr)

Lotin tili anatomik va farmatsevtik atamalarda, yunon tili klinik atamalarda ko'p uchraydi.

Ko'p atamalar bog'lovchi unli harf yordamida va unsiz ikkita negizning qo'shilishi bilan hosil bo'ladi:

<i>Psychotherapia</i>	— ruhiy kasallikni davolash
<i>psyshe</i>	— ruh
<i>therapia</i>	— davolash
<i>Oncologia</i>	— o'smalarni o'rganuvchi fan
<i>onco</i>	— o'sma
<i>logia</i>	— fan
<i>Dermatologia</i>	— teri kasalliklarini o'rganuvchi fan
<i>dermat</i>	— teri
<i>logia</i>	— fan

Ko'pchilik murakkablashtirilgan dorilarning nomi qisqartirilgan murakkab so'zlardan iborat bo'ladi. Ular shu murakkablashtirilgan dori tarkibiga kiradigan dorilarning nomini qisqartirish asosida tuziladi. Misollar:

<i>Tempalginum</i>	— tempalgin
<i>Tempidonum</i>	— temp
<i>Analginum</i>	— algin
<i>Calmaginum</i>	— kalmagin
<i>Calcium</i>	— cal
<i>Magnium</i>	— magni
<i>Coffetaminum</i>	— kofetamin
<i>Coffeinum</i>	— coffe
<i>Ergotaminum</i>	— tamin

Tibbiy atamalarning yasashida qo'llaniladigan asosiy so'z yasovchi qo'shimchalar

So'z yasovchi qo'shimcha		Ma'nosi	Misollar
Lotincha	Yunoncha		
1	2	3	4
in-,im-	a-, an-	inkor etish, sifatsiz	impotentia—jinsiy zaiflik Analginum — og'riq qoldiruvchi dori
contra-	anti-	qarshi	invalidus — kuchsiz, majruh Contraceptinum—homilaga qarshi dori
-dol-	-alg-	og'riq	antifebrilis — isitmaga qarshi neuralgia— asab kasalligi Promedolum — og'riq qoldiruvchi dori
	dys-	a'zo faoliyatining buzilishi	dyspnoë — nafas qisishi
	-aesths-	sezish	anaesthesia— og'riqsizlantirish usulining umumiy nomi
con(d)-	-arthr- -card (i)	bo'g'in yurak	arthralgia— bo'g'im og'rig'i Corazolium — yurak dorisi cardiolgia— asab kasalligi natijasida yurakning xastalanishi
-bili-	-chol (e)-	jigar o'ti	Bilistrastum — rentgen orqali o't pufagini tekshirish uchun qo'llaniladigan rangli modda cholecystitis — o't pufagini yallig'lanishi
	-cyst-	pufak	cystitis — siydik pufagining yallig'lanishi
	-derma-, dermat-	teri	dermatitis — teri yallig'lanishi

1	2	3	4
	-ectomia-	kesib tashlash	dermatologia — teri kasalliklarini o'rganuvchi fan nephrectomia — buyrakni kesib olib tashlash tonsillectomia — bodomsimon bezni kesib olib tashlash
intra-	endo-	ichki, ichidagi	endonasalis — burun ichi intravenosus — ko'k tomir ichidagi
	enter	ingichka ichak	enteritis — ingichka ichak yallig'lanishi
	epi-	ustida, ustki qism, keyin	epidermis — teri ustki qavati epicrisis — favquloddagi keskin holatdan keyin, kasallik haqidagi oxirgi (keyingi) fikr-mulohazalar
	-gaster-	me'da, oshqozon	gastritis — me'da shilliq pardasining yallig'lanishi
	haem (o) -aemia-	qon	haemostaticus — qon to'xtatuvchi anaemia — kamqonlik
inter-		orasi	intercostalis — qovurg'alar oralig'iga oid
	-itis- -logia-	yallig'lanish fan	bronchitis — bronx yallig'lanishi oncologia — o'smalarni o'rganuvchi fan
trans-	-meta-	joyidan ko'chirish, o'zgartirish	metastasis — og'riqni bir a'zodan ikkinchi a'zoga o'tishi transfusio — quyish transplantatio — biron-bir a'zoni kesib olib, boshqa joyga o'tkazish
	nephr-	buyrak	nephritis — buyrakning yallig'lanishi
	-neur- -onco-	asab o'sma	neuralgia — asab kasalligi oncologia — o'smalarni o'rganuvchi fan
	-oma-		osteoma — suyak to'qimalaridan o'suvchi o'sma
	-ot-	quloq	otitis — quloq yallig'lanishi
	-para-	yonida, o'xshash, atrofida	paracentralis — markaz atrofida

Jadvalning davomi

1	2	3	4
			parasternalis — ko'krak yonida
	-pathia-	kasallik	paratyphus — ich terlamaga o'xshash kasallik
	-phil(ia)-	mayl, holat	apathia— befarqlik holati pathologia—kasalliklar haqidagi fan
	-peri-	atrofida, yonida, ustida	haemophilia — qon oqishiga moyillik spasmophilia — titrab qaqshashlik holati
	-proct-	to'g'ri ichak	pericardium — yurak xaltachasi periosteum — suyak usti pardasi
	-rect(o)-		proctitis — to'g'ri ichak shilliq pardasining yaltilig'lanishi
re-		qayta, yangidan tekshirish	rectoscopya — to'g'ri ichakni tekshirish reanimatio — qayta tiriltirish
	-scopya		gastroscopya— me'da bo'shlig'ini tekshirish
-stomia		jarrohlik yo'li bilan sun'iy teshik ochish	nephrostomia—buyrakdan sun'iy teshik ochish
	-therapia	davolash	hydrotherapia—suv bilan davolash
	-tomia	kesish	tracheotomia—kekirdakni kesish
	-tonia	bosim	hypertonia—qon bosimining ko'tarilishi
	-trophia	oziqlanish	atrophia—oriqlash
-ur (ia)		siydik	dysuria—siydik chiqishning qiyinlashuvi diureticus—siydik haydovchi



17-mashq. Quyidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarning maʼnosiga qarab joylashtiring va oʻqing:

alg	— quloq
arthr	— yurak
cardi	— boʻgʻin
chole	— pufak
cyst	— ichki
endo	— oʻt
itis	— oʻsma
gastr	— buyrak
dermat	— ogʻriq
contra	— yalligʻlanish
aesthes	— meʼda
nephr	— teri
oma	— qarshi
ot	— sezgi



18-mashq. Quyidagi tibbiy atamalarni maʼnosiga qarab oʻz oʻrniga qoʻyib chiqing va oʻqing:

atrophia	— qon bosimining koʻtarilishi
reanimatio	— siydik chiqishining qiyinlashuvi
hydrotherapia	— oʻsmalarni oʻrganuvchi fan
dysuria	— asab kasalligi
Corazolum	— oriqlash
intravenosus	— qayta tiriltirish
gastritis	— suv bilan davolash
neuralgia	— yurak dorisi
oncologia	— koʻk tomir ichidagi
hypertonია	— oshqozon shilliq pardasining yalligʻlanishi



19-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tilida yozing va oʻqing:

(Analginum), (invalidus), (dermatologiya), (tempalginum), (kalmaginum), (neuralgia), (kof타민um), (onkologia), (interkostalis), (antipirinum), (korazolum), (dispnoe), (anemia), (hidroterapia).



20-mashq. Quyidagi so'z birikmalaridan tibbiy atama yasang va ma'nosini aniqlang.

Haemato	—	} —logia	Pharmaco	—	} —logia
Bio	—		Sexo	—	
Deonto	—		Reanimato	—	
Onco	—		Stomato	—	
Physio	—		Toxico	—	
Epidemio	—		Parasito	—	
Curorto	—		Surdo	—	
Balneo	—		Cyto	—	
Angio	—		Audio	—	
Morpho	—		Histo	—	



Mavzularga oid savollar

1. Lotincha so'z yasovchi qanday qo'shimchalarni bilasiz?
2. Yunoncha so'z yasovchi qanday qo'shimchalarni bilasiz?
3. Anatomik va farmatsevtik atamalarda qaysi so'z ko'proq ishlatiladi?
4. Klinik atamalarda qaysi til ustun turadi?
5. Murakkab atamalar qanday yasaladi?
6. Murakkablashtirilgan dori nomlari qanday yasaladi?



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Pigritia est mater vitiorum.

Dangasalik — kamchiliklarning onasi.

Medicina fructuosior nulla.

Tibbiyot fanidek sermahsul fan olamda yo'q.

Scientia est potentia.

Bilim — kuchdir.

Mens sana in corpore sano.

Sog'lom tanda — sog' aql.

MORFOLOGIYA

12-§. SO‘Z TURKUMLARI

So‘zlarning ma‘no va grammatik jihatdan o‘xshashliklariga ko‘ra ayrim leksik-grammatik turlarga bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan guruhlariga so‘z turkumi deyiladi.

Lotin tilidagi so‘zlar mustaqil hamda yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi.

Mustaqil so‘z turkumi

<i>Nomen substantivum</i>	— ot
<i>Nomen adjectivum</i>	— sifat
<i>Nomen numerale</i>	— son
<i>Pronomen</i>	— olmosh
<i>Verbūm</i>	— fe‘l
<i>Adverbium</i>	— ravish

Yordamchi so‘z turkumlari

<i>Praepositio</i>	— old ko‘makchi
<i>Conjunctio</i>	— bog‘lovchi
<i>Interiectio</i>	— undov
<i>Particulae</i>	— yuklama

13-§. FE‘L

Predmetning ish-harakati yoki holatini ifodalovchi so‘zlar fe‘l, deb ataladi. Masalan: *curare* — davolamoq, *amare* — sevmoq, *legere* — o‘qimoq.

Lotin tilida fe‘l o‘zbek tilidagidek shaxs-son, zamon va mayl bilan tuslanadi.

Lotin tilida fe‘llar to‘rt turga tuslanadi. Birinchi turda tuslanuvchi fe‘llar «-are» qo‘shimchasi bilan tugallanadi: *dare* — bermoq. Ikkinchi turda tuslanuvchi fe‘llar «-ere» qo‘shimchasi bilan tugallanadi: *miscere* — aralashtirmoq.

Uchinchi turda tuslanuvchi fe'llar «-ere» qo'shimchasi bilan tugaydi: *solvere* — eritmoq. To'rtinchi turda tuslanuvchi fe'llar «-ire» qo'shimchasi bilan tugaydi: *audire*—eshitmoq.

Agar birinchi, ikkinchi va to'rtinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llardan noaniq shakldagi «-re», uchinchi turda tuslanishga kiruvchi fe'llarda esa, «-ere» qo'shimchalari olib tashlansa, fe'lning negizi hosil bo'ladi. Masalan:

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'l negizi
I	Dare — bermoq	da
II	Miscere — aralashirmoq	misc
III	Solvere — eritmoq	solv
IV	Audire — eshitmoq	audi

Lotin tilida fe'llar xuddi o'zbek tilidagidek birlik (*singularis*), ko'plik (*pluralis*)da tuslanadi.

Lotin tilida fe'lning uch mayli mavjud:

- I *Indicativus* — aniqlik mayli
- II *Conjunctivus* — shart mayli
- III *Imperativus* — buyruq mayli

Aniqlik mayli

Aniqlik mayli ish-harakat yoki holatining aniqligini ko'rsatadi.

Masalan:

Medicus aegrotam curat — Shifokor bemorni davolayapti.

Buyruq mayli

Buyruq mayli buyurish, so'rash, iltimos kabi ma'nolarni ifodalab, odatda, ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq mayli birlik sonini hosil qilishi uchun fe'lning noaniq shaklidan «-re» qo'shimchasini olib tashlash kerak. Masalan:

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik soni
I	Dare — bermoq	da	Da — ber!
II	Miscere — aralashirmoq	misc	Misce — aralashtir!
III	Solvere — eritmoq	solv	Solve — erit
IV	Audire — eshitmoq	audi	Audi — eshit!

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilishi uchun fe'ning buyruq mayli birlik soniga «-te», faqat uchinchi tuslanish negiziga «-ite» qo'shimchasini qo'shish kerak. Masalan:

Tuslanish	Fe'ning noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko'plik soni
I	Dare — bermoq	da	Date — bering!
II	Miscere — aralashtirmoq	misc	Miscete — aralashtiring!
III	Solvere — eritmoq	solv	Solveite — eriting!
IV	Audire — eshitmoq	audi	Audite — eshiting!

Shart mayli

Shart mayli ish-harakatning ma'lum bir sharoitda bo'lishi mumkin ekanligini bildiradi. Masalan:

Misceatur — Aralashtirilsin! Aralashtirilgan bo'lsin!

Signetur — Bildirilsin! Bildirilgan bo'lsin!

Detur — Berilsin! Berilgan bo'lsin!

Retseptlarda shart mayli uchinchi shaxs birlik va ko'plik sonlarida ishlatiladi. Masalan:

Dividatur in partes aequales — teng qismlarga bo'linsin!

Dentur tales doses numero... — shunday miqdor (son)... da berilsin.

Lotin tilida fe'llarning ikkita nisbati bor:

aniqlik nisbati (*Activum*)

majhullik nisbati (*Passivum*)

Aniqlik nisbatidagi fe'lda ish-harakati shaxs tomonidan bajariladi, to'ldiruvchi esa, harakatning obyekti bo'ladi. Aniqlik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga **-t**, ko'plik sonini hosil qilish uchun esa, **-nt** qo'shimchasini qo'shish lozim. Masalan: *Medicus aegrotam curat* — Shifokor bemorni davolayapti.

Majhullik nisbatida harakat to'ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib, haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Majhullik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga **-tur**, ko'plik sonida esa, **-ntur** qo'shimchasini qo'shish kerak. Masalan: *Aegrotus ab medicis curantur* — Bemor shifokorlar tomonidan davolansin.

I tuslanish

Dare — bermoq (negizi — *da*)

Activum

Uchinchi shaxs birlik soni *Dat* — u beryapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni *dant* — ular berishyapti

Passivum

Uchinchi shaxs birlik soni *datur* — berilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni *dantur* — berilsin

II tuslanish

Miscere — aralashtirmoq (negizi — *miscē*)

Activum

Uchinchi shaxs birlik soni *misceat* — u aralashtirayapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni *miscent* — ular aralashtirishayapti

Passivum

Uchinchi shaxs birlik soni *miscetur* — aralashtirilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni *miscentur* — aralashtirilsin

III tuslanish

Fe'l negiziga birlik sonda **-i**, ko'plikda **-u** unli harflari qo'shiladi.

Solvere — eritmoq (negizi — *solv*).

Activum

Uchinchi shaxs birlik soni *solvit* — u eritayapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni *solvunt* — ular eritishayapti

Passivum

Uchinchi shaxs birlik soni *solvitur* — eritilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni *solvuntur* — eritilsin

IV tuslanish

Audire — eshitmoq (negizi — audi)

Activum

Uchinchi shaxs birlik soni *audit* — u eshityapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni *audiunt* — ular eshitishyapti

Passivum

Uchinchi shaxs birlik soni *auditur* — eshitilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni *audintur* — eshitilsin

Esse — bor bo'lmoq yordamchi fe'lining hozirgi zamon uchinchi shaxsda tuslanishi.

Birlik

Singularis

est — u bor

Ko'plik

Pluralis

sunt — ular borlar

III shaxs

Misol:

Zincum metallum est — rux metallidir

Argentum et Zincum

metalla sunt

— kumush va rux metallardir

Fiat, fiant fe'lining retseptlarda qo'llanilishi. Uchinchi shaxs birlik soni shart fe'li *fiat* — qilinsin va uchinchi shaxs ko'plik soni shart fe'li *fiant* — tayyorlansin, *fio, fieri*— qilmoq, hosil bo'lmoq fe'lidan hosil qilingan. Masalan:

Misce, fiat pulvis — aralashtirib kukun hosil qilinsin

*Misce, fiat unguen-
tum*

— arlashtirib surtma hosil qilinsin

Misce, fiat pilulae

— aralashtirib hab dori tayyorlansin

14-§. GAPDA SO‘ZLARNING TARTIBI

Lotin tilida gap bo‘laklarining tartibi erkindir. Gapning boshida ega, o‘rtasida to‘ldiruvchi, oxirida kesim keladi. Masalan:

Aegrota pilulam sumit — bemor hab dori ichayapti.

15-§. TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN QUIYDAGI FE‘LLARNI XOTIRANGIZDA SAQLANG

Addere	— qo‘shmoq
adhibere	— qo‘llamoq, ishlatmoq
agitare	— chayqatmoq
audire	— eshitmoq
auscultare	— eshitib ko‘rmoq
colare	— suzmoq
concidere	— kesmoq
conspargere	— sepmoq
contundere	— yanchmoq
coquere	— pishirmoq, qaynatmoq
curare	— davolamoq
dare	— bermoq
diluere	— qo‘shmoq, suyultirmoq
diagnoscere	— aniqlamoq
dividere	— bo‘lmoq
exsiccare	— quritmoq
extendere	— surtmoq
extrahere	— chiqarib olmoq
extrimere	— siqmoq
filtrare	— suzgichdan o‘tkazmoq
formare	— shakl bermoq
finire	— tugatmoq
infundere	— quymoq
macerare	— ivitmoq
miscere	— aralashtirmoq
obducere	— o‘rab olmoq, qoplamoq
palpare	— paypaslamoq
praeparare	— tayyorlamoq
recipere	— olmoq
refrigerare	— sovitmoq
repetere	— takrorlamoq

salvere	— sogʻ boʻlmoq
valere	— sogʻ boʻlmoq
servare	— saqlamoq
solvere	— eritmoq
signare	— belgilamoq
sterilisare	— qaynatib tozalamoq
sumere	— qabul qilmoq, ichmoq
terere	— qirgʻichdan oʻtkazmoq
vertere	— orqasiga aylantirib qaramoq



21-mashq. Quyidagi fe'llarni tuslanishiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Audire, colare, miscere, obducere, palpate, coquere, curare, dare, dividere, recipere, salvere, sumere, vertere,olvere, repete-re, praeparare, conspergere, finire.



22-mashq. Fe'llarning negizini aniqlang.

Addere, agitare, filtrare, finire, macerare, servare, extendere, valere, signare, terere, vertere, concidere.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negiz
Addere	III	add



23-mashq. Quyidagi fe'llarning buyruq shaklini hosil qiling va o'zbek tiliga tarjima qiling.

Agitare, audire, auscultare, conspergere, contundere, coquere, diagnoscere, extendere, praeparare, signare, dare, terere, miscere, vertere, adhibere, filtrare, colare, finire obducere.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negiz	Buyruq mayli	
			birlik	ko'plik
Audire	IV	audi	audi eshit	audite eshiting

24-mashq. Quyidagi fe'llarni ma'nosiga qarab joylashtiring.

Auscultare	— takrorlamoq
colare	— olmoq
obducere	— davolamoq
dare	— shakl bermoq
miscere	— belgilamoq
praeparare	— eshitib ko'rmoq
infundere	— suzmoq
dividere	— o'rab olmoq
signare	— bermoq
formare	— aralashtirmoq
dignoscere	— tayyorlamoq
curare	— quymoq
sterilizare	— bo'lmoq
vertere	— aniqlamoq
repetere	— qaynatib tozalamoq
recipere	— orqasiga aylantirib qaramoq

? Mavzularga oid savollar

1. Lotin tilida nechta tuslanish bor?
2. Qanday qo'shimchali fe'llar birinchi turda tuslanadi?
3. Qanday qo'shimchali fe'llar ikkinchi turda tuslanadi?
4. Qanday qo'shimchali fe'llar uchinchi turda tuslanadi?
5. Qanday qo'shimchali fe'llar to'rtinchi turda tuslanadi?
6. Fe'lning negizini qanday aniqlash mumkin?
7. I, II va IV turda tuslanadigan fe'llarning buyruq shakli qanday hosil bo'ladi?
8. III turda tuslanadigan fe'llarning buyruq shakli qanday aniqlanadi?
9. Aniqlik nisbati fe'l negiziga qanday qo'shimchalar qo'shish yordamida hosil qilinadi?
10. Majhullik nisbati fe'l negiziga qanday qo'shimchalar qo'shilsa hosil bo'ladi?



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Patriam amare et defendere debemus.

Vatanimizni sevishimiz va himoya qilishimiz kerak.

❖ *Non est medicina sine lingua latina.* **otlar-4.5**

Lotin tilisiz tibbiyotni tasavvur etib bo'lmaydi.

Salve

Assalom.

Salvete!

Assalomu alaykum!

Vale!

Xayr! Yaxshi qol! Ko'rishguncha!

Valete!

Ko'rishgunimizcha xayr! Yaxshi qoling!

Labor omnia vincit.

Mehnat hamma narsani yengadi.

16-§. OT

Predmetning ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, rod, kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, kim? nima? so'roqlariga javob beradigan mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi. Otlarda uch xil grammatik rod bo'lib, ular quyidagicha:

Rod (*Genus*)

Genus masculinum — Genus maskulinum

Genus femininum — Genus femininum

Genus neutrum — Genus neutrum

Son (*Numerale*)

Lotin tilida otlar ikki songa ega:

Singularis — birlik son

Pluralis — ko'plik son

Lotin tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek oltita kelishik mavjud bo'lib, tibbiyotda otlar, asosan, beshta kelishikda turlanadi.

Kelishik (*Casus*)

Casus Nominativus — bosh kelishik, kim? nima?

Casus Genetivus — qaratqich kelishigi, kimning? nimaning?

Casus Dativus — jo'nalish kelishigi, kimga? nimaga?

- Casus Accusativus* — tushum kelishigi, kimni?
nimani?
- Casus Ablativus* — chiqish kelishigi, kimdan?
nimadan?
- Casus Vocativus* — gapda bosh kelishik bilan bir
xil savolga javob bo'lib keladi.
Shuning uchun ham oltinchi
kelishik tibbiyotda qo'llanil-
maydi.

Lotin tilida otlarning turlanish xususiyatlarini, asosan, besh guruhga bo'lish mumkin. Otlarning guruhlardagi turlanish xili qaratqich kelishigi (*Genetivus Singularis*)ning birlik sondagi kelishik qo'shimchasiga qarab aniqlanadi.

Qaratqich kelishigi birlik sonining besh guruhda turlanish qo'shimchalarini xotirada saqlang.

Guruhlar	Genetivus Singularis qo'shimchalari
I	ae
II	i
III	is
IV	us
V	ei

Lug'atda otlar quyidagicha yoziladi: bosh kelishikning to'liq shakli, keyin qaratqich kelishigini qo'shimchasi va rodi. Masalan:

- Aqua, ae, f* — o'qilishi — *aqua, aquae*, — suv,
feminini
- dens, ntis, m* — o'qilishi — *dens, dentis*, — tish,
masculini
- septum, i, n* — o'qilishi — *septum, septi* — to'siq,
neutri

Otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda ot negiziga kelishik qo'shimchalari qo'shiladi. Otning negizini topish uchun qaratqich kelishik birlik soni shaklidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak:

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis	Ot negizi
aqua	aquae	aqu—
dens	dentis	dent—
septum	septi	sept—

**25-mashq. Quyidagi otlarning turlanishini va rodini aniqlang:**

Tinctura, ae, f; musculus, i, m; species, ei, f; dysenteria, ae, f; cutis, is, f; col—apsus, us, m; unguentum; i, n, membrana, ae, f; spasmus, i, m; folium, i, n; dies, ei, f; coelia, ae, f; habitus, us, m; bacillus, i, m; aër, is, m, res, ei, f.

17-§. OTLARNING BIRINCHI GURUHDA TURLANISHI

Otlarning birinchi guruhda kelishiklar bo'yicha turlanishiga bosh kelishik birlik sonida (Nominativus Singularis) «a» qo'shimchasi bilan tugallangan jenskiy roddagi otlar kiradi. Qaratqich kelishigi birlik sonida (Genetivus Singularis) esa, «ae» qo'shimchasi bilan tugallanadi va lug'at shakli quyidagicha bo'ladi. Masalan: Tinctura, ae, f — spirtli eritma, tabuletta, ae, f — tabletkka, pilula, ae, f — hab dori. Bu otlar jenskiy roddga tegishli otlardir. Jenskiy roddagi otlar quyidagi kelishiklarda turlanadi:

Cesus	Singularis	Pluralis	Singularis	Pluralis
Nominativus	a	ae	pilula	pilulae
Genetivus	ae	arum	pilulae	pilularum
Dativus	ae	is	pilulae	pilulis
Accusativus	am	as	pilulam	pilulas
Ablativus	a	is	pilula	pilulis

Dori nomlari va dorivor o'simliklar nomi hamma vaqt bosh harf bilan yoziladi.

**18-§. OTLARNING BIRINCHI GURUHDA
TURLANISHIDA ISHLATILADIGAN SO'Z
YASOVCHI QO'SHIMCHALAR**

1. So'z yasovchi — ur + a qo'shimchasi harakat natijasini ifodalovchi fe'llardan hosil bo'lgan otlar bo'lishi mumkin. Misollar:

Fract-ur-a	— sinish,	frangere	— sindirmoq,
mixt-ur-a	— aralashma,	miscere	— aralashtirmoq,
signat-ur-a	— belgilash,	signare	— belgilamoq,
tinct-ur-a	— ivitma (nastoyka)- ning spirtida tay- yorlangan eritmasi,	tingere	— ivitmoq,

fiss-ur-a	— yoriq,	darz findere	— yormoq,
struct-ur-a	— tuzilish,	struere	— tuzmoq,
recept-ur-a	— retseptura,	recipere	— olmoq fe'lidan hosil qilingan.

2. **-ul+a** va **-cul+a** so'z yasovchi qo'shimchalari kichraytirish ma'nosini anglatadi:

Gland-ul-a	— bezcha,	glans	— eman mevasi,
radic-ul-a	— ildizcha,	radix	— ildiz,
pil-ul-a	— hab dori,	pila	— to'p, koptok,
partic-ul-a	— qismcha,	pars	— qism so'zlaridan kelib chiqqan.

3. **-in+a** so'z yasovchi qo'shimchasi soha, kasallik va moddaning ma'nosini anglatishi mumkin:

Medic-in-a	— tibbiyot,
medicus	— shifokor,
ang-in-a	— halqum limfa to'qimasining yallig'lanishi,
angeion	— qon tomiri,
gelat-in-a	— yelimshak,
gel	— tuz so'zlaridan kelib chiqqan.

Birinchi guruhda turlanuvchan quyidagi yunon atamalariga jenskiy rodga Nom. Sing. -e, Gen. Sing. -es qo'shimchasi qo'shiladi. Bularning faqat lug'at shaklini bilish kerak.

Aloë, ës, f	— aloy, sabur,
Hippophaë, ës, f	— chirqanoq,
Kalanchoë, ës, f	— kalanxoy,
chole, es, f	— o't (safro),
Hierochloë, ës, f	— tilqiyor.

19-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

M:	Aorta, ae, f	— shotomir
	arteria, ae, f	— o'q qon tomiri
	bursa, ae, f	— xalta
	clavicula, ae, f	— o'mrov suyagi
	costa, ae, f	— qovurg'a
	cuticula, ae, f	— nozik po'st teri
	fascia, ae, f	— mushak pardasi
	fibula, ae, f	— kichik boldir suyagi
	fossa, ae, f	— chuqurcha

M:

fractura, ae, f
glandula, ae, f
lingua, ae, f
mamma, ae, f
mandibula, ae, f
maxilla, ae, f
pleura, ae, f
scapula, ae, f
tibia, ae, f
tonsilla, ae, f
trachea, ae, f
urethra, ae, f
urina, ae, f
vagina, ae, f

vena, ae, f
vertebra, ae, f
vesica, ae, f
vesicula, ae, f
S—M:
bucca, ae, f
calvaria, ae, f

cellula, ae, f
columna, ae, f
concha, ae, f
cornea, ae, f
crista, ae, f
fissura, ae, f
gingiva, ae, f
gravida, ae, f
incisura, ae, f
mamilla, ae, f

medulla, ae, f
medulla ossium
medulla spinalis
medulla odlongata
membrana, ae, f
nucha, ae, f
orbita, ae, f
palpebra, ae, f
papilla, ae, f
patella, ae, f

— sinish
 — bezcha
 — til
 — sut bezi
 — pastki jag'
 — yuqori jag'
 — o'pka pardasi
 — kurak
 — katta boldir suyagi
 — bodomsimon bez
 — kekirdak
 — siydik chiqarish yo'li
 — siydik
 — qin, ayollar jinsiy
 — a'zosi
 — ko'k qon tomir, vena
 — umurtqa
 — pufak
 — pufakcha
 — lunj
 — kalla suyagining
 qopqog'i
 — hujayracha
 — umurtqa ustuni
 — chig'anoq
 — ko'z shox pardasi
 — qirra
 — yoriq, darz
 — milk
 — homilador
 — kesma, bo'lakcha
 — ko'krak so'rg'ichi.
 emchak uchi
 — miya moddasi, miya
 — ilikli suyak
 — orqa miya
 — uzunchoq miya
 — nog'ora parda
 — bo'yinning orqa tomoni
 — ko'z kosasi
 — qovoq
 — so'rg'ich
 — tizza qopqog'i

	<i>prostata, ae, f</i>	— erkaklar jinsiy a'zosi-ning toq (prostata) bezi
	<i>pulpa ae, f</i>	— go'sht, et
	<i>retina ae, f</i>	— to'r parda (ko'zga oid)
	<i>sclera, ae, f</i>	— ko'zning oq pardasi
	<i>spina, ae, f</i>	— tuk
	<i>substantia, ae, f</i>	— modda (asos)
	<i>sutura ae, f</i>	— chok
M—F:	<i>vulva ae, f</i>	— ayollarning tashqi jinsiy a'zosi
	<i>Althaea, ae, f</i>	— gulxayri
	<i>ampulla, ae, f</i>	— 1) ampula, ichiga dori solib og'zi payvandlangan shishacha, 2) naychali a'zoning kengaygan qismi (anat.)
	<i>aqua, ae, f</i>	— suv
	<i>Belladonna, ae, f</i>	— belladona, zaharli o't o'simligi
	<i>Calendula, ae, f</i>	— tirnoqgul, gulhamishabohor
	<i>camphora, ae, f</i>	— kamfora, o'tkir hidli modda
	<i>capsula, ae, f</i>	— 1) kapsula achchiq dorining eruvchan g'ilofi 2) qobiq (anat.)
	<i>Chamomilla ae, f</i>	— moychechak
	<i>charta ae, f</i>	— qog'oz
	<i>Convallaria, ae, f</i>	— marvaridgul
	<i>febricula, ae, f</i>	— yengil isitma
	<i>gutta, ae, f</i>	— tomchi
	<i>herba, ae, f</i>	— o't (o'sim.)
	<i>massa, ae, f</i>	— xamirsimon modda
	<i>massa pilularum</i>	— hab dorining xamirsimon moddasi
	<i>Mentha, ae, f</i>	— yalpiz
	<i>mixtura, ae, f</i>	— mikstura (suyuq dorivor aralashma)
	<i>natura, ae, f</i>	— tabiat
	<i>oblata, ae, f</i>	— shirin g'ilof
	<i>particula, ae, f</i>	— qismcha, bo'lakcha
	<i>pasta, ae, f</i>	— pasta (quyuq surtma dori)

- pilula, ae, f*
Rosa, ae, f
ratula, ae, f
Salvia, ae, f
signatura ae, f
tabuletta, ae, f
- temperatura, ae, f*
tinctura, ae, f
- F:

Valeriana, ae, f

Amygdala, ae, f

axungia, ae, f

bacca, ae, f

Betulla, ae, f

calcaria, ae, f

cera, ae, f

colatura, ae, f
- Cina, ae, f*

Cucurbita, ae, f

Datura, ae, f

Ephedra, ae, f
- Farfara, ae, f*

Frangula, ae, f

gelatina, ae, f

gemma, ae, f

Gentiana, ae, f

Glycyrrhiza, ae, f

Liquiritia, ae, f

Ipecacuanha, ae, f
- lagena, ae, f*

Lavandula, ae, f
- Leuzea, ae, f*

officina, ae, f

olla, ae, f

Oryza, ae, f

Periploca, ae, f

pharmaceuta, ae, f
- hab dori

 — na'matak atirgul

 — tugmacha dori

 — mavrak, marmarak

 — belgi ko'rsatma

 — tabletka, tugmacha-simon dori

 — harorat

 — nastoykaning spirtda tayyorlangan eritmasi

 — valeriana

 — bodom (meva)

 — yog', moy

 — meva

 — qayin

 — ohak

 — mum

 — suzib tindirilgan suyuqlik

 — darmana

 — oshqovoq, kada

 — bangidevona

 — efedra, igna bargli daraxt

 — tuyatovon

 — itjumrut

 — yelimshak

 — kurtak (o'sim.)

 — gazako't, gajako't

 — qizilmiya

 — shirinmiya

 — ipekakuana, qustiruvchi (qayt qildiruvchi) ildiz

 — shisha idish

 — lavanda, havorang, xushbo'y yashil o'simlik

 — levzeyra

 — dorixona

 — shisha idish

 — guruch (sholi)

 — periploka

 — dorishunos

<i>planta, ae, f</i>	— o'simlik
<i>Polygala, ae, f</i>	— istod
<i>rezina, ae, f</i>	— yelim, qatron
<i>Sanguisorba, ae, f</i>	— sangvizorba dorivor ko'kat
<i>scatula, ae, f</i>	— quticha
<i>Schizandra, ae, f</i>	— limon
<i>Senna, ae, f</i>	— senna
<i>Terebinthina, ae, f</i>	— terpentin, igna bargli daraxtning yelimi
<i>Thea, ae, f</i>	— choy
<i>Tilia, ae, f</i>	— jo'ka
<i>Tormentilla, ae, f</i>	— g'ozpanja, beshbarg, yerchoy
<i>Urtica, ae, f</i>	— chayono't

20-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
aqua	hydor	suv
cornea	keratos	ko'zning shoxpardasi
glandula	aden	bezcha
lingua	glossa	til
femina	gynaec	ayol
mamma	mastos	sut bezi
lacrima	dacryon	ko'z yoshi
medulla	myelos	ilikli suyak
palpebra	blepharon	qovog
urina	uron	siydik
vagina	colpos	qin
vena	phleps	ko'k tomir
vertebra	spondylos	umurtqa
vesica	cystis	pufak



26-mashq. Quyidagi otlarni tarjimasiqa qarab joylashtiring. M.

<i>Arteria</i>	— pufak
<i>clavicula</i>	— ko'k qon tomir
<i>costa</i>	— umurtqa
<i>fibula</i>	— qin
<i>fractura</i>	— siydik
<i>glandula</i>	— kurak
<i>lingua</i>	— katta boldir suyagi
<i>mandibula</i>	— bodomsimon bez
<i>maxila</i>	— o'q qon tomiri

<i>pleura</i>	— o‘mrov suyagi
<i>scapula</i>	— qovurg‘a
<i>tibia</i>	— sinish
<i>tonsilla</i>	— til
<i>urina</i>	— yuqori jag‘
<i>vagina</i>	— o‘pka pardasi



27-mashq. Tibbiy atamalarni ma‘nosiga qarab joylashtiring.
S—M.

<i>Calvaria</i>	— chok
<i>columna</i>	— modda
<i>fissura</i>	— ayollarning tashqi jinsiy a‘zosi
<i>gingiva</i>	— ko‘zning oq pardasi
<i>medulla</i>	— erkaklar jinsiy a‘zosi-ning toq bezi
<i>membrana</i>	— kalla suyagi qopqog‘i
<i>orbita</i>	— ustun
<i>palpebra, ae, f</i>	— yoriq
<i>prostata</i>	— milk
<i>papilla</i>	— miya
<i>sclera</i>	— nog‘ora parda
<i>substantia</i>	— ko‘z kosasi
<i>sutura</i>	— qovoq
<i>vulva</i>	— so‘rg‘ich



28-mashq. Lotin tilidagi otlarning o‘zbekcha muqobilini o‘z o‘rniga qo‘ying. M—F.

<i>Arapulla</i>	— harorat
<i>aqua</i>	— belgi, ko‘rsatma
<i>Belladonna</i>	— spirtli eritma
<i>Calendula</i>	— valeriana
<i>camphora</i>	— suyuq dorivor aralashma
<i>Chamomilla</i>	— yalpiz
<i>charta</i>	— ampula
<i>Convallaria</i>	— suv
<i>febricula</i>	— belladonna
<i>gutta</i>	— tirnoqgul
<i>herba</i>	— kamfora
<i>Mentha</i>	— moychechak
<i>mixtura</i>	— qog‘oz
<i>Salvia</i>	— yengil isitma
<i>singnatura</i>	— tomchi
<i>temperatura</i>	— mavrak
<i>tinctura</i>	— marvaridgul



29-mashq. Quyidagi dorivor gilyohlarning lotincha nomiga o'zbekcha nomini moslashtiring. F.

<i>Amygdala</i>	— yerchoy
<i>Betula</i>	— chayono't
<i>Leuzea</i>	— ipekakuana
<i>Cina</i>	— jo'ka
<i>Cucurbita</i>	— choy
<i>Datura</i>	— terpentin
<i>Ephedra</i>	— senna
<i>Farfara</i>	— limon
<i>Frangula</i>	— sangvizorba
<i>Gentiana</i>	— istod
<i>Glycyrrhiza</i>	— periploka
<i>Lavandula</i>	— guruch
<i>Ipecacuanha</i>	— levezeya
<i>Oryza</i>	— lavanda
<i>Periploca</i>	— shirinmiya
<i>Polygala</i>	— gazako't
<i>Sanguisorba</i>	— itjumrut
<i>Schizandra</i>	— tuyatovon
<i>Senna</i>	— efedra
<i>Terebinthina</i>	— bangidevona
<i>Thea</i>	— oshqovoq
<i>Tilia</i>	— darmana
<i>Tormentilla</i>	— qayin
<i>Urtica</i>	— qizilmiya
<i>Liquiritia</i>	— bodom



30-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qilgan holda bosh kelishik birlik va ko'plik (*Nominativus Singularis et Pluralis* hamda qaratqich kelishik birlik va ko'plik *Genetivus Sing. et Plur*)da turlang.

- M: o'q qon tomiri, qovurg'a, bodomsimon bez, til, siydik, kurak, umurtqa, pufak, ko'k qon tomiri, siydik chiqarish yo'li.
- S—M: kalla suyagining qopqog'i, yoriq, milk, miya, nog'ora parda, qovoq, modda, ko'z kosasi, chig'anoq.
- M—F: suv, tirnoqgul, marvaridgul, o't, hab dori, g'ilof, suyuq dorivor aralashma, quyuq surtma dori, tugmachasimon dori, spirtli eritma, valeriana.
- F: bodom, oshqovoq, meva, ohak, mum, shisha idish, o'simlik, limon, shirinmiya, quticha, chayono't, choy, jo'ka, suzilgan suyuqlik.

Namuna:

Guruh	Rod	Nom.Sing.	Gen.Sing.	Nom.Sing.	Gen.Sing.
I	F	aqua	aquae	aquae	quarum



31-mashq. *Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.*

- M: Aorta, bursae, costarum, fibula, glandulae, fractura, venarum, vesicae, vagina, urinarum.
- S—M: Buccae, cellularum, cornea, incisurae, conchae, grvida.
- M—F: Aquarum, Belladonnae, Calendularum, camphorae, capsularum, Chamomillae, charta, Convallariae, guttarum.
- F: Baccarum, axungia, Betula, Cucurbitarum, Frangulae, gemmarum, Polygala, Sennae, scatularum.

21-§. MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI

Lotin tilida ikki xil aniqlovchi qo'llaniladi: moslashgan aniqlovchi sifat bilan, moslashmagan aniqlovchi esa qaratqich kelishigida turlangan ot bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *aqua Menthae* — yalpizning suvi, *tinctura Valerianae* — valeriananing spirtli eritmasi, *tabuleta Bromcaphorae* — bromkamforaning tugmachasimon dorisi, *gemma Betulae* — qayinning kurtagi, *vena portae* — ko'k qon tomirning a'zoga kirish joyi.


Moslashmagan aniqlovchi bilan aniqlanuvchi atamani kelishiklar bo'yicha turlaganda faqat aniqlanuvchi so'z o'zgarib, moslashmagan aniqlovchi esa, o'zgarmasdan qoladi.



32-mashq. *Quyidagi moslashmagan aniqlovchilarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- M: Caput — fibulae, caput — costae, corpus — linguae, corpus tibiae, corpus vesicae, corpus vertebrae, fascia prostatae, fossa vesicae, incisura — mandibulae, papilla mammae, ruptura vaginae.
- S—M: Ampulla tibiae (uterinae), commissura palpebrarum, concha auriculae, fascia nuchae, rima palpebrarum, spina — scapulae, sutura calvariae, valva aortae, valvula venae.
- M—F: Aqua Menthae, guttae tincturae Convallariae, tabuletae Bromcamphorae, tinctura Valerianae, herba Chamomillae, tinctura Calendulae.

F: Aqua Amygdalarum, adde aquam, adde tincturam Schizandrac, adde guttas tincturae Calendulae, divide massam pilularum, da gemmas Betulae, macera baccas, gemma Betulae, Senna planta est, Calendula, Convallaria, Chamomilla, Ephedra, Farfara, Glycyrrhiza, Polygala et Salvia plantae sunt.

 33-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling.

S—M: tilning ko'k tomiri, ko'k tomirning a'zoga kirish joyi, kurakning sinishi, o'mrov suyagining sinishi, qovurg'alarning sinishi, yuqori jag'ning sinishi, pastki jag'ning sinishi, ko'z shox pardasining moddasi.

M—F: tomchidan qo'sh, tugmachasimon doridan ber, spirtli eritmani aralastir, suyuq dorivor aralashmadan ber, yalpiz suvi tomchisidan ol.

F: mevalarni qurit, suvdan quyung, mevalarni va kurtaklarni ter, bodom suvining tomchisidan ol.

22-§. PREDLOG (OLD KO'MAKCHI)LAR VA BOG'LOVCHILAR

Predlog ayrim ot yoki otlarni ikkinchi bir so'z bilan bog'lab, ularning orasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Har qaysi predlog faqat ma'lum kelishik bilan birga ishlatiladi. Predloglar o'zlari bog'lanib kelgan otlardan oldin ayrim yoziladi.

Tushum kelishigida ishlatiladigan predloglar:

Ante	— oldida
ad	— uchun, -gacha, -da (retseptda)
contra	— qarshi
intra	— ichida
per	— orqali
post	— keyin, so'ng

Masalan:

<i>Ad aegrotam</i>	— kasal uchun
<i>intra ventriculum</i>	— me'da ichida
<i>per vaginam</i>	— qin orqali
<i>post partum</i>	— tuqqandan keyin
<i>ante operationem</i>	— operatsiya oldidan
<i>contra scabiae</i>	— qichimaga qarshi

Chiqish kelishigida qo'llaniladigan predloglar:

cum	— bilan
de	— haqida
ex	— dan
sine	— siz
pro	— uchun

Masalan:

<i>Cum aqua</i>	— suv bilan
<i>de morbo</i>	— kasallik haqida
<i>ex officina</i>	— dorixonadan
<i>sine colore</i>	— rangsiz
<i>pro aegrotis</i>	— bemor uchun

Tushum va chiqish kelishigida qo'llaniladigan predloglar:

in -ga, -da	sub	—	ostida
-------------	-----	---	--------

Masalan:

<i>in aquam</i>	— suvga
<i>in aqua</i>	— suvda
<i>sub linguam</i>	— til ostiga
<i>sub lingua</i>	— til ostida

Bog'lovchilar

Tibbiy atamalarni bir-biri bilan bog'lash vazifasini bajarib, turlanmaydigan so'z **bog'lovchi** deb ataladi

et	— va, bilan
aut	— yoki
ut fiat	— hosil bo'lguncha
scu	— yoki
sed	— lekin

Masalan:

<i>Amidopyrinum aut Analginum</i>	— amidopirin yoki analgin
<i>costa et vertebra</i>	— qovurg'a va umurtqa
<i>misce, ut fiat pulvis</i>	— kukun hosil bo'lguncha aralashtir
<i>capsula seu ampulla</i>	— kapsula yoki ampula



34-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- M—F: Da in capsulis amylaceis, da in ampullis, da in charta cerata, da in tabulettis, da in scatula, da in oblatiis.
F: Solve in aqua, infunde aquam in ollam, forma pilulas ex massa pilularum, pone tabulettam sublinguam.



35-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling.

- M—F: Kapsulalarda ber, qog'ozda (o'ralgan holda) ber, tugmachasimon dori shaklida ber.
F: Tugmachasimon dorini suvda erit, hab dorilarni qutichada (ichiga solib) ber, valerianalarni qutichada (ichiga solib) ber, valeriananing spirtli eritmasini shisha idishga quy, qayin kurtagidan spirtli eritma tayyorla, valeriananing spirtli eritmasi bilan aralashtir.



Mavzularga oid savollar

1. Otlarda nechta rod bor?
2. Lotin tilidagi otlarning soni nechaga bo'linadi?
3. Tibbiyotda qaysi kelishiklar ko'p qo'llaniladi?
4. Qaysi kelishik qo'shimchasiga qarab otlarning guruhi aniqlanadi?
5. Besh guruhga tegishli otlarning *Gen. Sing.* qo'shimchasini bayon eting.
6. Otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
7. Lug'atda otlarning rod belgisi qanday ko'rsatiladi?
8. Birinchi guruh otlari qaysi rodga tegishli?
9. Birinchi guruh otlari *Nominativus et Genetivus* da qanday qo'shimchalarga ega?
10. Birinchi guruh otlarini yasashda qanday so'z yasovchi qo'shimchalar qo'llaniladi?
11. Moslashmagan aniqlovchi qanday so'zlar bilan ifodalanishi mumkin?
12. Moslashmagan aniqlovchi bilan aniqlanuvchi atama kelishiklarda qanday turlanadi?
13. *Accusativus* kelishigida qanday predloglar qo'llaniladi?
14. *Ablativus* kelishigida qanday predloglar ishlatiladi?
15. Tibbiyotda qo'llaniladigan bog'lovchilarni misollar asosida izohlang.
16. Lotincha-yunoncha ma'nodosh atamalarni bayon eting.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Ars longa vita brevis.

Hayot qisqa, san'at esa abadiydir.

Vita sine litteris mors est.

Ilmsiz hayot — o'limdir.

Amat victoria curam.

Talabalik tirishqoqlikni talab qiladi.

Carpe diem.

Bugungi ishni ertaga qoldirma.

Domus propria — domus optima.

Mehmondorchilik yaxshi, uy undan ham yaxshi.

23-§. RETSEPTURA

Retseptura — bu dorilarni yozish va tayyorlash qoidalarini o'rganuvchi fan.

Retsept va uning asosiy qismlari

Retsept — bu shifokorning dori tayyorlash, tayyorlangan dorini qabul qilish usullari ko'rsatmasi va davolanish uchun bemorga berish kerakligi to'g'risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi. Retsept maxsus varaqalarda yoziladi.

Retsept rasmiy hujjat bo'lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to'g'riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir. Respublikamizda retseptlar lotin tilida yoziladi, ammo retseptning quyidagi qismlari bundan istisno: sarlavha, dorini qanday qabul qilish to'g'risidagi ko'rsatma va retsept yozgan shaxsning imzosi.

Retsept sakkiz qismdan iborat

1. Davolash muassasasining manzili va telefon raqami.
2. Retsept yozgan kun, oy, yil.
3. Bemorning ismi-sharifi va yoshi.
4. Shifokorning ismi-sharifi.
5. Dorining nomi va miqdori.
6. Shifokorning dorixona xodimiga dori tayyorlash (surtma, kukun va boshqalar) to'g'risidagi ko'rsatmasi.

7. Shifokorning bemorga dorini qabul qilish usuli haqidagi ko'rsatmasi.

8. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.

Retseptning beshinchi, oltinchi va yettinchi qismining boshlang'ich so'zi lotin tilida yoziladi.

Beshinchi qism — shartli belgi R. (qisqartirilgan holda) bilan boshlanadi (*recipe* — ol. *recipere*—olmoq fe'lining buyruq mayli uchinchi shaxs birlik sonidir). So'ngra bosh harf bilan dori nomi yoziladi, keyin miqdori ko'rsatiladi. Dori nomi hamma vaqt qaratqich kelishigi (*Genetivus*)da yoziladi. Masalan:

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml

Tincturae Convalariae 15 ml

Qattiq va sochiluvchan moddalar miqdori grammlarda, suyuqliklar esa, millilitr, tomchilarda ko'rsatiladi:

(nimaning?) (nimasidan?) (qancha?)

Ol: Marvaridgul spirtli eritmasidan 10 ml

Recipe: Tincturae Convalariae 10 ml

Agar ikki dori moddasining miqdori bir xil bo'lsa, unda ikkinchi dori nomidan keyin shartli belgi *aa* (ana—teng, babbaravar) yozilib so'ngra dori miqdori ko'rsatiladi:

Recipe: Tincturae Convalariae

Tincturae Velerianae aa 10 ml

Grammlar va millilitrlar arab raqamlari bilan ko'rsatilib yoziladi: 3,0; 0,3; 0,03 va boshqalar.

Tomchilar rim raqamlari bilan ko'rsatiladi:

gullam I, guttas II.

Dori moddalarining biologik ta'sir birligi qisqacha BT shaklida, shoni esa, arab raqamlari bilan o'nliklar, mingliklar, millionlarda yoziladi:

Recipe: Phenoxyethylpenicillini 100000

Oltinchi qismda shifokor dori moddasiga qanaqa shakl berishni lotin tilida yozadi (kukun, hab dori, surtma), ularga qanday ishlov berish kerakligi, qancha miqdorda berish va qanday ko'rinishdaligi ko'rsatiladi: *Misce, fiat unguentum.*

Dorilarni biror narsaga o‘rab yoki solib berish kerak bo‘lsa, retseptda kerakli ko‘rsatmalar ko‘rsatilib yoziladi:

<i>Da in vitro nigro</i>	— qora (rangli) shishachada ber.
<i>Da in vitro flavo</i>	— sariq shishachada ber,
<i>Da in charta cerata</i>	— mumli qog‘ozda ber,
<i>Da in ampullis</i>	— ampulalarda ber,
<i>Da in scatulla</i>	— qutichada ber

Retseptning lotincha qismi shartli qisqartirilgan S. (signa — belgila) harfi bilan tugaydi (Signa — belgila, ya‘ni bu signare— belgilamoq fe‘lining buyruq mayli uchinchi shaxs birlik sonidir).

Yettinchi qism dorini qabul qilish usuli (Signatura). Bu qismda bemor tushunadigan tilda dori miqdori, vaqti va dorini qanday usulda qabul qilish yo‘llari ko‘rsatiladi:

Signa: 15 tomchidan kuniga 2 marta ovqatdan yarim soat oldin,

Signa: 1 tabletkadan kuniga uch mahal,

Signa: 1 stakan issiq suvga 1 choy qoshiq (chayqash uchun).

Retseptdagi qo‘shimcha yozuvlar

1. Dorini tezlik bilan tayyorlash yoki berish lozim bo‘lsa, retsept varaqasining yuqori qismiga shifokor tomonidan quyidagi so‘zlar yoziladi:

<i>Cito</i>	— tez! zudlik bilan!
<i>Sitissime</i>	— juda tez!
<i>Statim</i>	— darhol!

2. Agar retsept varaqasining orqa tomonidan dori nomlarining davomi bo‘lsa, u holda shifokor retsept varaqasi pastining o‘ng tomoniga *Verte* — orqa tomoniga «qaralsin», deb yozadi (qisqartirilgani — V!).
3. Agar yozilgan retseptni takrorlash lozim bo‘lsa, unda shifokor retsept varaqasining yuqorisiga *Repete* — takrorla! *Repetatur* takrorlansin yoki *Bis repetatur* — ikki marta takrorlansin, deb yozib qo‘yadi. Retseptlar bitta moddadan tashkil topgan bo‘lsa oddiy, ikki yoki undan ortiq moddadan tashkil topgan bo‘lsa, murakkab retsept deyiladi.

RETSEPT VARAQASINING NAMUNASI

Retsept varaqasining shakli

Sog'liqni saqlash vazirligi Muassasaning nomi	OKUD bo'yicha kod shakli _____ OKPO bo'yicha muassasa kodi _____ 107/V sonli tibbiy hujjat shaklini O'zR. SSV tasdiqlagan
-----------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

RETSEPT

(kattalar, bolalar uchun — keraksizi o'chirilsin)

200__ -yil « ____ » _____

(retsept yozilgan kun, oy, yil)

Bemorning ismi, sharifi

Yoshi

Shifokorning ismi, sharifi

So'm	tiyin	
So'm	tiyin	

Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri


Retseptning muddati — 10 kun, 2 oy
(keraksizi o'chirilsin)

Retsept varaqasining orqa tomoni

Shifokorga eslatma

- davolash–profilaktika muassasasining shartli belgisi bosmaxona usulida bosiladi yoki to'rtburchak muhr qo'yiladi;
- retsept lotin tilida tushunarli qilib, aniq harflar bilan siyohda yoki sharikli ruchkada yoziladi, retseptni tuzatish man etiladi;
- bir retsept varaqasida tarkibida zaharli yoki nasha moddasi bo'lgan bitta dori yoki ikkita oddiy va kuchli ta'sir etuvchi dori bo'lishi mumkin;
- faqat qabul qilingan qisqartma otlarning shartli belgisi yozilishi kerak;
- qattiq va sochiluvchan moddalar — grammlarda (0,001; 0,5; 1,0), suyuqliklar — millilitrlarda, grammlarda va tomchilarda yozilishi kerak;
- dorini qabul qilish usuli bemor tushunadigan tilda yozilishi kerak, «ichki», «ma'lum» kabi umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanish mumkin emas;
- retsept shifokorning imzosi, shaxsiy muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Dorini shaxsiy tayyorlash №	Dorixonaning to'rtburchak muhri	
Qabul qilindi. Tayyorlandi	Tekshirildi	Berildi

 **36-mashq.** Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.
M—F.

Recipe: Aquae Menthae 100.0 ml

Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 5—10 marta

Recipe: Tincturae Calendulae 40 ml

Da. Signa: 10—20 tomchidan kuniga 2 marta.

Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml

Da. Signa: 15 tomchidan kuniga 2—3 marta.

Recipe: Tincturae Schizandrae 50 ml


Da. Signa: 20—25 tomchidan kuniga 2 marta.

Recipe: Tincturae Convallariae

Tincturae Valerianae aa 10 ml

Tincturae Belladonnae 5 ml

Misce. Da. Signa: 20—25 tomchidan kuniga 2—3 marta.

 **37-mashq.** Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. OI: Valeriananing spirtli eritmasidan 10 ml
Ber. Belgila: 15 — 20 tomchidan kuniga 3 mahal.
2. OI: Yalpizning spirtli eritmasidan 25 ml
Ber. Belgila: 15 — 20 tomchidan kuniga 3 mahal.
3. OI: Marvaridgulning spirtli eritmasidan
Valeriananing spirtli eritmasidan teng miqdorda 15 ml
Aralashtir. Ber.
4. OI: Qayin kurtagidan 30,0
Ber. Belgila. 1 osh qoshiq kurtak 1 stakan qaynoq suvda
damlansin, 2 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal ichilsin.

 **Mavzularga oid savollar**

1. Retseptura soʻzini tushuntirib bering.
2. Retsept deganda nimani tushunasiz?
3. Retsept necha qismdan iborat?
4. Retseptning lotincha qismi qaysi soʻzlar bilan boshlanib, qaysi soʻzlar bilan tugaydi?
5. Retseptda dori nomlari qaysi kelishikda yoziladi?
6. Qaysi retsept oddiy va qandaylari murakkab retsept deyiladi?
7. Retseptlarda qanday qoʻshimcha soʻzlar yozilishi mumkin?
8. Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim boʻlsa, qanday lotincha soʻzlar retsept varaqasiga yozilishi mumkin?



Mustaqil oʻrganish uchun

Lotin maqollari, hikmatli soʻzlar va iboralar

Amicus certus in re incerta cernitur.

Sodiq doʻst ogʻir kunda bilinar.

Natura sanat, medicus curat.

Tabiat sogʻaytiradi, shifokor davolaydi.

Usus optimus magister est.

Tajriba eng yaxshi ustozdir.

Fugiens laboris.

Yalqov. Dangasa.

Homo hebes.

Befarosat. Alqsiz odam.

Homo sapiens.

Aqlli odam.

**24-§. TIBBIYOTDA KO'P QO'LLANILADIGAN
YUNONCHA SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR
VA ATAMALAR. M—F.**

aesthes, -aesthesia (gr. aesthesis)	— sezish, his qilish
anaesthesia	— og'riqsizlantirish
-alg, -algia (gr. algos)	— og'riq
neuralgia	— asab kasalligi
-graph, -graphia	— chizaman, tasvirlay-
(gr. grapho)	man, yozaman
(ge. tomos)	— qavat
tomographia	— rentgen nurlari orqali qavatning aniq tasvirini olish
	— qon
-haem, -haemat, -aemia	
(gr. haema)	
anaemia	— kamqonlik
-logia (gr. logos)	— fan
oncologia	— shishlarni o'rganuvchi fan
-metria (gr. metreo)	— o'lchayman, aniqlayman
craniometria	— kalla suyagini o'lchash
-path, -pathia (gr. pathos:	— 1) sezish; 2) kasallikni
apathia)	sezmaslik, qiziqishning so'nishi
-therm, -thermia (gr. thermos)	— issiqlik, harorat
hypothermia	— sovish
-ton, -tonia (gr. tonos)	— taranglashish
hypertonia	— qon bosimining ko'tarilishi
-ur, -uria (gr. uron)	— siydik
anuria	— siydik chiqmasligi
-rrhagia (gr. rrhagos)	— yulingan, kesilgan
haemorrhagia)	— qon oqishi (ketishi)
-scop, -scopia (gr. scopeo)	— kuzataman, o'rganaman
rectoscopia	— to'g'ri ichakni maxsus asboblari orqali tekshirish
-therapia (gr. therapeia)	— qarash, davolash
hydrotherapia	— suv bilan davolash
-trophia (gr. thophe)	— oziqlanish
atrophia	— oriqlash
-ectasia (gr. ektasis)	— kengaytirish, cho'zish
bronchoectasia	— bronxlarning kengayishi
-ectomia (gr. ectome)	— kesish

tonsillectomia	— tanglaydagi bodomsimon bezni kesib olib tashlash
-ergia (gr. ergon)	— ish, harakat
(gr. allos)	— boshqa
allergia	— organizmning biron-bir dori moddasiga qarashiligi
malacia (gr. malokos)	— yumshoq
osteomalacia	— suyaklarning yumshashi
-penia (gr. penia)	— yetishmovchilik
lymphopenia	— periferik qonda limfotsitlarning kamayishi
-phad, -phagia (gr. phagein)	— yemoq
dysphagia	— yutishning qiyinlashuvi
-philia (gr. philia)	— sevmoq, moyillik
haemophilia	— qon ketishiga moyillik
-phobia (gr. phobos)	— qoʻrquv
photophobia	— yorugʻlikdan qoʻrqish
-plasia (gr. plasis)	— shakllanish, hosil boʻlish
hypoplasia	— rivojlanmagan
-plegia (gr. ptege)	— zarba, falokat
hemiplegia	— muskul faoliyatining bir tomonlama izdan chiqishi
-rhapsia (gr. rhapshe)	— chok
(gr. colpos)	— qin
colporrhaphia	— qin ichki devorini tikish
-sthenia (gr. sthenos)	— kuch
asthenia	— holsizlanish, umumiy kuchsizlanish
-stomia, stomat (gr. stoma. atos. n)	— teshik, ogʻiz
stomatologia	— ogʻiz boʻshligʻi va tish kasalliklarini oʻrganuvchi fan

25-§. OTLARNING IKKINCHI GURUHDA TURLANISHI

Otlarning ikkinchi guruhiga mujskoy (*Masculinum*) va sredniy (*Neutrum*) roddagi otlar kiradi. Masculinum Nom. Sing. **da -us**, -er qoʻshimchasiga, Neutrum Nom. Sing. da **um** qoʻshimchalariga ega. Ikkala roddagi otlar Gen. Sing. da **-i** qoʻshimchasi bilan turlanadi va lugʻat shakli quyidagicha boʻladi. Masalan:

<i>Musculus</i> , i, m	— mushak
<i>magister</i> , tri, m	— oʻqituvchi
<i>oleum</i> , i, n	— moy
<i>unguentum</i> , i, n	— surtma

Masculinum va Neutrum rodlaridagi otlar kelishiklarda quyidagicha turlanadi

Causus	Singularis		Plaralis	
	Masculinum	Neutrum	Masculinum	Neutrum
Nominativus	— us, er	— um	— i	— a
Genetivus	— i	— i	— orum	— orum
Dativus	— o	— o	— is	— is
Accusativus	— um	— um	— os	— a
Ablativus	o	— o	— is	— is
Nominativus	<i>musculus</i>	<i>oleum</i>	<i>musculi</i>	<i>olea</i>
Genetivus	<i>musculi</i>	<i>olei</i>	<i>musculorum</i>	<i>oleorum</i>
Dativus	<i>musculos</i>	<i>oleo</i>	<i>musculis</i>	<i>oleis</i>
Accusativus	<i>musculos</i>	<i>oleum</i>	<i>musculos</i>	<i>olea</i>
Ablativus	<i>musculos</i>	<i>oleo</i>	<i>musculis</i>	<i>oleis</i>

Qoidadan tashqari holat

Quyidagi otlar *Femininum* rodiga tegishli

<i>Alnus, i, f</i>	— qandag'och
<i>Amygdalus, i, f</i>	— bodom (daraxt)
<i>Crataegus, i, f</i>	— do'lana
<i>Eucalyptus, i, f</i>	— evkalipt
<i>Juni perus, i, f</i>	— archa
<i>Pinus, i, f</i>	— qarag'ay
<i>Rhamnus, i, f</i>	— itjumrut
<i>Padus, i, f</i>	— shumurt
<i>Sambucus, i, f</i>	— marjon daraxt
<i>Sorbus, i, f</i>	— milash (chetan)

Dorilarning asosiy qismi Neutrum rodida yozilib, Nom. Sing. da **-um** qo'shimchasi, Gen. Sing. da **-i** qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan:

Nom. Sing. Analginum, Vaselineum, Novocainum,
Gen. Sing. Analgini. Vaselini. Novocaini.

Dorilarning o'zbekcha nomi lotincha nomining o'qilishiga mos keladi, faqat **-um** qo'shimchasi bo'lmaydi:

Penicillinum
Norsulfazolum
Corvalolum

26-§. IKKINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLARNING YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. So'z yasovchi qo'shimchalar **-in+um** va **-ol +um** ko'pincha dori nomlarida qo'llaniladi: *Analg-in-um*; *Menth-ol-um*.
2. So'z yasovchi qo'shimcha **-ism+us** har xil zaharlanishlarni va biror-bir kasallikka moyilligi borligini ifodalashi mumkin:

<i>Saturn-ism-us (saturnus)</i>	— qo'rg'oshin, qo'rg'oshin bug'idan yoki changidan surunkali zaharlanish
<i>Ophit-ism-us (gr.ophis)</i>	— ilon, ilon zaharidan zaharlanish
<i>Cocain-ism-us</i>	— kokainga berilish
<i>Infantil-ism-us (infans)</i>	— bola, aql pastlik

1. So'z yasovchi qo'shimchalar **-ment** — vosita yoki tadbirni ifodalovchi otlarni hosil qilishda xizmat qiladi:

<i>Liga-mentum (ligare)</i>	— bog'lamoq, bog'lam
<i>ali-mentum (alare)</i>	— ovqatlantirmoq, ovqat
<i>medica-mentum</i>	— dori-darmon

So'z yasovchi qo'shimchalar **-ul+us**, **-cul+us**, **-ul+um**, **-culum** otlarga kichraytirish ma'nosini beradi:

<i>Globulus</i>	— soqqacha
<i>tuberculum</i>	— do'mboqcha
<i>capitulum</i>	— boshcha
<i>granulum</i>	— donacha
<i>globus</i>	— soqqa
<i>tuber</i>	— do'mboq
<i>caput</i>	— bosh
<i>granum</i>	— don

27-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING

M:	<i>Bronchus, i, m</i>	— bronx, nafas yo'li
	<i>oesophagus, i, m</i>	— qizilo'ngach
	<i>humerus, i, m</i>	— yelka suyagi
	<i>morbus, i, m</i>	— kasallik
	<i>musculus, i, m</i>	— mushak, muskul

S—M:

- nasus, i, m*
nervus, i, m
oculus, i, m
uterus, i, m
ventriculus, i, m
cerebrum, i, n
cranium, i, n
duodenum, i, n
intestinum, i, n
myocardium, i, n
endocardium, i, n
epicardium, i, n

pericardium, i, n
peritoneum, i, n
rectum, i, n
per rectum
angulus, i, m
bulbus oculi
carpus, i, m
metacarpus, i, m
condylus, i, m
digitus, i, m
folliculus, i, m
fundus, i, m
lobus, i, m
lobulus, i, m
lumbus, i, m
nodus, i, m
neonatus, i, m

pylorus, i, m
sulcus, i, m
tarsus, i, m
metatarsus, i, m
thalamus, i, m
thymus, i, m
truncus, i, m
umbilicus, i, m
atrium, i, n
brachium, i, n
antebrachium, i, n
cavum, i, n
caecum, i, n
- burun
 — asab
 — ko'z
 — bachadon
 — me'da, oshqozon
 — bosh miya
 — kalla suyagi
 — o'n ikki barmoqli ichak
 — ichak
 — yurak mushagi
 — yurak ichki pardasi
 — yurak mushagini sirtidan qoplovchi seroz parda
 — yurak xaltasi
 — qorin seroz pardasi
 — to'g'ri ichak
 — to'g'ri ichak orqali
 — burchak
 — ko'z soqqasi
 — kaft oldi
 — kaft orqasi
 — bo'rtma shakldagi o'sma
 — barmoq
 — xaltacha, pufakcha
 — tagi, osti
 — bo'lak
 — bo'lakcha
 — bel
 — tugun
 — yangi tug'ilgan bola, chaqaloq
 — me'dani chiqish qismi
 — burushiq, ajin
 — oyoq kafti yuzasiga oid
 — oyoq kaftiga oid
 — ko'ruv do'mbog'i
 — ayrisimon bez
 — gavda, poya, tana
 — kindik
 — yurak bo'lmasi
 — yelka
 — bilak
 — bo'shliq
 — ko'richak

	<i>cerebellum, i, n</i>	— miyacha
	<i>collum, i, n</i>	— bo'yin, bo'yincha
	<i>dorsum, i, n</i>	— orqa
	<i>ileum, i, n</i>	— yonbosh ichak
	<i>jejunum, i, n</i>	— ingichka ichak
	<i>labium, i, n</i>	— lab
	<i>ligamentum, i, n</i>	— bog'lam
	<i>ovarium, i, n</i>	— tuxumdon
	<i>permeum, i, n</i>	— oraliq
	<i>septum, i, n</i>	— to'siq
	<i>sternum, i, n</i>	— ko'krak (to'sh)
	<i>tympanum, i, n</i>	— nog'ora
	<i>membrana tympani</i>	— nog'ora parda
M—F:	<i>Crataegus, i, f</i>	— do'lana
	<i>globulus, i, m</i>	— soqqacha (sharcha)
	<i>Helianthus, i, m</i>	— kungaboqar
	<i>Leonurus, i, m</i>	— arslonquyruq
	<i>numerus, i, m</i>	— son (raqam)
	<i>sirupus, i, m</i>	— sharbat
	<i>Strophanthus, i, m</i>	— strofant
	<i>Strychnos, i, m</i>	— chilibuxa
	<i>succus, i, m</i>	— shira
	<i>Absinthum, i, n</i>	— ermon (shuvoq, yovshan)
	<i>acidum, i, n</i>	— kislota
	<i>amylum, i, n</i>	— ohor
	<i>antidotum, i, n</i>	— zaharga qarshi, ziddi-zahar
	<i>decoctum, i, n</i>	— qaynatma
	<i>emulsum, i, n</i>	— emulsiya (suyuqlik qorishmasi)
	<i>emplastrum, i, n</i>	— malham
	<i>extractum, i, n</i>	— ekstrakt (so'rim)
	<i>folium, i, n</i>	— barg
	<i>granulum, i, n</i>	— donacha
	<i>Helichrysum, i, n</i>	— bo'znoch
	<i>Hypericum, i, n</i>	— dalachoy, qizilpoycha
	<i>infusum, i, n</i>	— damlama
	<i>linimentum, i, n</i>	— suyuq surtma
	<i>oleum, i, n</i>	— moy
	<i>Rheum, i, n</i>	— rovoch
	<i>remedium, i, n</i>	— davolash vositasi
	<i>saccharum, i, n</i>	— qand, shakar
	<i>suppositorium, i, n</i>	— shamcha

<i>unguentum, i, n</i>	— surtma
<i>venenum, i, n</i>	— zahar
<i>vitaminum, i, n</i>	— vitamin
<i>vitrum, i, n</i>	— shisha idishcha
<i>Bacillus, i, m</i>	— tayoqsimon dori
<i>bulbus, i, m</i>	— ildizpoya, piyozbosh
<i>briquetum, i, n</i>	— briket
<i>Eleutherococcus</i>	— eleuterokokk
<i>Galanthus</i>	— boychechak I
<i>Hyoscyamus, i, m</i>	— mingdevona
<i>Myrtilus, i, m</i>	— chernika
<i>Nerium oleander,</i> <i>dri, m</i>	— sambitgul
<i>Oxycoccus, i, m</i>	— klyukva
<i>Ricinus, i, m</i>	— kanakunjut
<i>Rubus idaeus</i>	— parmanchak
<i>Thymus, i, m</i>	— tog'jambil
<i>acetum, i, n</i>	— sirka
<i>Anisum, i, n</i>	— arpabodiyon
<i>butyrum, i, n</i>	— moy (quyuq)
<i>Cheliodonium, i, n</i>	— qoncho'p
<i>Equisimum, i, n</i>	— qirqbo'g'im
<i>Erysimum, i, n</i>	— jeltushnik
<i>Gnaphalium, i, n</i>	— shivit
<i>Foeniculum, i, n</i>	— gnafiliy
<i>Gossypium, i, n</i>	— paxta
<i>Ledum, i, n</i>	— ledum
<i>Lecopodium, i, n</i>	— likopodiy
<i>Linum, i, n</i>	— zig'ir
<i>medicamentum, i, n</i>	— dori-darmon
<i>Millefolium, i, n</i>	— bo'yomodaron
<i>Stramonium, i, n</i>	— bangidevona
<i>Tanacetum, i, n</i>	— dastarbosh
<i>Taraxacum, i, n</i>	— qoqigul
<i>Triticum, i, n</i>	— bug'doy

28-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
calculus	lith	tosh
cancer	carcin	rak, xavfli o'sma
digitus	dactyl	barmoq
morbus	path (o)	kasallik

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
musculus	myo	mushak
nasus	rhin	burun
nervus	neur	asab
oculus	ophthalm	ko'z
umbilicus	omphal	kindik
uterus	hyster, metra	bachadon
ventriculus	gaster	me'da, oshqozon
caecum	typhi	ko'richak
cerebrum	encephal	bosh, miya
intestinum	enter	ichak
crassum	col	yo'g'on ichak
ligamentum	desm (o)	bog'lam
medicamentum	pharmac	dori-darmon
ovarium	oophol	tuxumdon
rectum	proct	to'g'ri ichak
venenum	toxicon	zahar

38-mashq. Quyidagi otlarni tarjimasiga qarab moslashtiring. *M.*

<i>Bronchus</i>	— qorin seroz pardasi
<i>humerus</i>	— to'g'ri ichak
<i>morbus</i>	— yurak mashagi
<i>musculus</i>	— ichak
<i>nasus</i>	— kaila suyagi
<i>nervus</i>	— o'n ikki barmoqli ichak
<i>oculus</i>	— bosh miya
<i>uterus</i>	— nafas yo'li
<i>ventriculus</i>	— yelka suyagi
<i>cerebrum</i>	— kasallik
<i>cranium</i>	— mushak
<i>duodenum</i>	— burun
<i>intestinum</i>	— asab
<i>myocardium</i>	— ko'z
<i>peritoneum</i>	— bachadon
<i>rectum</i>	— me'da

39-mashq. Quyidagi atamalarni ma'nosiga qarab joylash-
ning. *S—M.*

<i>Carpus</i>	— tuxumdon
<i>condylus</i>	— bog'lam
<i>digitus</i>	— nog'ora
<i>lobus</i>	— ko'krak
<i>lumbus</i>	— orqa
<i>nodus</i>	— ko'richak
<i>thymus</i>	— bo'shliq

<i>truncus</i>	— bilak
<i>umbilicus</i>	— kaft oldi
<i>brachium</i>	— bo'rtma shakldagi o'sma
<i>antebrachium</i>	— barmoq
<i>cavum</i>	— bo'lak
<i>caecum</i>	— bel
<i>collum</i>	— tugun
<i>dorsum</i>	— ayrisimon bez
<i>labium</i>	— gavda
<i>ligamentum</i>	— kindik
<i>ovarium</i>	— yelka
<i>sternum</i>	— lab
<i>tympanum</i>	— bo'yin



40-mashq. Lotin tilidagi otlarning o'zbekchasini o'z o'rniga qo'ying. *M—F.*

<i>Crataegus</i>	— zahar
<i>numerus</i>	— shisha idishcha
<i>sirupus</i>	— surtma
<i>Helianthus</i>	— shamcha
<i>Stophanthus</i>	— moy
<i>succus</i>	— rovoch
<i>acidum</i>	— suyuq surtma
<i>amylum</i>	— damlama
<i>decoctum</i>	— qaynatma
<i>emulsum</i>	— barg
<i>emplastrum</i>	— do'lana
<i>extractum</i>	— son
<i>folium</i>	— sharbat
<i>infusum</i>	— malham
<i>linimentum</i>	— strofant
<i>oleum</i>	— shira
<i>Rheum</i>	— kislota
<i>suppositorium</i>	— ohor, kraxmal
<i>unguentum</i>	— qaynatma
<i>venenum</i>	— emulsiya
<i>vitrum</i>	— kungaboqar



41-mashq. Quyidagi dorivor giyohlarning lotincha nomiga o'zbekchasini moslashtiring. *F.*

<i>Galanthus</i>	— dastarbosh
<i>Eleutherococcus</i>	— bangidevona
<i>Myrtillus</i>	— qoqigul
<i>Hyoscyamus</i>	— bug'doy

<i>Oxycoccus</i>	— bo'ymodaron
<i>Thymus</i>	— zig'ir
<i>Ricinus</i>	— paxta
<i>Anisum</i>	— shivit
<i>Chelidonium</i>	— eleuterokokk
<i>Erysinum</i>	— boychechak
<i>Foeniculum</i>	— mingdevona
<i>Equisetum</i>	— chernika
<i>Gossipium</i>	— kanakunjut
<i>Linum</i>	— klyukva
<i>Millifolium</i>	— tog'jambil
<i>Stramonium</i>	— arpabodiyon
<i>Tanacetum</i>	— qirqbo'g'im
<i>Taraxacum</i>	— qoncho'p
<i>Triticum</i>	— jeltushnik

42-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling va Nominativus Sing. hamda Genetivus Sing. da turlang.


- M: qizilo'ngach, yelka suyagi, mushak, ko'z, bachadon, me'da, yurakning ichki pardasi, yurak mushagini sirtidan qoplovchi seroz parda, yurak xaltachasi, to'g'ri ichak, o'n ikki barmoqli ichak.
- S—M: burchak, ko'z soqqasi, kaft orqasi, xaltacha tagi, bo'lakcha, chaqaloq, oyoq kafti yuzasiga oid: nog'ora parda, ko'ruv do'mbog'i, kindik.
- M—F: sharcha, arslonquyruq, chilibuxa, ermon, ziddi-zahar, donacha, bo'znoch, dalachoy, shakar, vitamin, davolash vositasi.
- F: tayoqchasimon dori, piyozbosh, briket, boychechak, mingdevona, sambitgul, parmanchak, qirqbo'g'im.

Namuna:


Guruh	Rod	Nom. Sing	Gen. Sing	Nom. Plur.	Gen. Plur
II	m	musculus	musculi	musculi	musculorum
II	n	folium	folii	folia	foliorum

43-mashq. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

- M: oesophagus, morbus, musculi, cerebri, cranii, per rectum
- S—M: bulbi oculi, digitorum, lumbi, umbilici, brachii
- M—F: Crataegi, globulus, foliorum, suppositorii, veneni bacillorum, bulbi, Galanthus, Hyoscyami, Rubi idaei, acetum

 **44-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini toping.

- M: angullus, oculi, caput humeri, cavum pericardii, cavum pleurae, corpus humeri, fossa cranii, fundus oculi, septum nasi, septum linguae, morbus oesophagi.
- S—M: angulus costae, cancer labii, collum costae, dorsum sellae, fractura digitorum, fissura cerebelli, fundus vesicae, ligamentum nuchae, morbus gingivorum, vestibulum vaginae
- M—F: antidotum metallorum, decoctum foliorum, Salviae, extractum Absinthii, folia Convallariae infusum herbae Hyperici, oleum Vaselini, sirupi Rhei, tinctura Strophanthi, unguentum Laevocini.
- F: decoctum foliorum Uvae ursi, emplastrum Hydraryri, folium Kalanchoës, herba Hyperici, infusum herbae Leonuri, sirupus Aloës, succus baccarum Myrtilli, tinctura Strychni.

 **45-mashq.** Quyidagi so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini ko'rsating.

- M: qizilo'ngachning xaffi o'smasi (raki), me'da raki, asab kasalligi, bosh miyaning ko'k tomiri (Vena).
- S—M: me'da osti, barmoq sinishi, muskul boylami, nog'ora pardasi, to'sh burchagi, qovurg'a bo'yinchasi, orqa muskul, kalla suyagining choki, miyachaning bo'lakchalari, bosh miya bo'lagi, bachadon bo'yinchasi,
- M—F: rovoch ekstrakti (so'rimi), gulgayri sharbati, shakar sharbati, mavrak barglari, yalpizning spirtli eritmasi, glukozaning tugmachasimon dorisi, yodning spirtli eritmasi, na'matak moyi, glitserinli surtma, «Sanitas»ning suyuq surtmasi.
- F: klyukva mevasi, yalpiz bargi, ka'anxoye shirasi. Ol: tayoqchasimon dorilardan, soqqachalardan va shamchalardan, Ber: qoncho'p o'tidan, Ol: mavrak bargi damlamasidan, tuyatovon bargidan qaynatma tayyorla, Ol: parmanchak sharbatidan keragicha, shivit suvi, moychechak o'tidan damlama tayyorla, ixtiol va vazelindan olib surtma tayyorla.



46-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.
M—F.

- Recipe. Tincturae Absinthii
Tincturae Belladonnae aa 10 ml
Misce. Da.
Signa: 15—20 tomchidan ovqatlanishdan oldin
- Recipe. Resorcini 1,0.
Vasellini 10,0
Misce, fiat unguentum.
Da. Signa: surtma.
- Recipe: Amidopyrini
Analginii aa 0,25
Da tales doses numero 6 in tabulettis.
Signa: tabletkadan kuniga 2—3 mahal.
- Recipe: Infusi foliorum Salviae 20,0 — 200 ml
Da. Signa: Chayqash uchun
- Recipe: Mentholi 2,0
Olei Helianthi 20,0
Misce. Da.
Signa: Mentolli moy
- Recipe: Tincturae Strychni 5 ml
Tincturae Convallariae
Tincturae Valerianae aa 10 ml
Misce. Da.
Signa: 20—25 tomchidan kuniga 2—3 marta.
- Recipe: Infusi herbae Hyperici 10,0 — 200 ml
Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 mahal.
- Recipe: Olei Ricini 20,0
Xeroformii 1,2
Vinylini 1,0
Misce, fiat linimentum.
Da. Signa: Surtmali bog'lamlar uchun.
- Recipe: Infusi foliorum Eucalypti 10,0—200 ml
Da. Signa: Chayqash uchun.
- Recipe: Olei Eucalypti 10,0
Mentholi 1,0
Misce. Da.
Signa: Bug'li ingalatsiya uchun.
- Recipe: Tabulettas Amidopyrini 0,25 numero 10
Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 2—3 marta.
- Recipe: Decocti foliorum Farfarae 15,0—200 ml
Da. Signa: 1 osh qoshiqdan har 2—3 soatda



47-mashq. Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.
M—F.

- Ol: Analgindan 0,5
10 dona shunday miqdorli tabletkadan ber.
Belgila: 1 tabletkadan kuniga 2 mahal.
- Ol: Marvaridgulning spirtli eritmasidan
Valeriananing spirtli eritmasidan teng
miqdorda 10 ml
Belladonnaaning spirtli eritmasidan 5 ml
Mentoldan 0,2
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20—30 tomchidan kuniga 2—3 marta.
- Ol: Arslonquyruq o'ti damlamasidan 15,0—200 ml.
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta.
- Ol: Archagul barglarining qaynatmasidan 10,0—200 ml
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3—5 marta.
- Ol: Sano bargi damlamasidan 10,0—150 ml
Rovoch sharbatidan 30 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: 1 osh qoshiqdan ertalab va kechqurun ichish uchun.
- Ol: Shivit suvidan 200 ml
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 5—6 marta.
- Ol: Chirqanoq moyidan 30 ml
Ber. Belgila: Surtish uchun.
- Ol: Kanakunjut moyidan 20,0
Kseroformdan 1,2
Vinilindan 1,0
Suyuq surtma bo'lguncha aralashtir.
Ber. Belgila: Surtmali malham uchun.



Mavzularga oid savollar

1. Ikkinchi guruhda turlanuvchi otlarga qaysi rodlar misol bo'ladi?
2. Ikkinchi guruhdagi turlanuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
3. *Masculinum* ga oid ikkinchi guruh otlari *Nom. Sing.* va *Gen. Sing.* da qanday qo'shimchalarga ega bo'ladi?
4. *Nautrum* ga oid ikkinchi guruh otlari *Nom. Sing.* va *Gen. Sing.* da qanday qo'shimchalarga ega bo'ladi?
5. Ikkinchi guruh otlarini yasashda qanday so'z yasovchi qo'shimchalar ishlatiladi?
6. Ikkinchi guruhda turlanuvchi *Femininum*ga oid otlarni izohlang.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Homines dum docent, discunt.

Odamlar o'rgatib o'rganadilar.

Multum vinum bibere, non diu vivere.

Ichkilikni ko'p ichgan, ko'p yashamaydi.

Non progredi est regredi.

Olg'a intilmaslik, orqada qolmoq demakdir.

Nulla aetas ad discendum sera.

Ilmning kechi bo'lmaydi.

Qui quaerit — reperit.

Izlagan — topadi.

Summum bonum medicinae sanitas.

Tibbiyotning oliy maqsadi — sog'liq-salomatlik.

29-§. DORI NOMLARI YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLAR

Ko'pchilik dori nomlari sun'iy ravishda hosil qilinib, ular bir necha so'z bo'laklari orqali ifodalanishi mumkin. Bunday so'z qismlari dorining kimyoviy tarkibi, davolash ta'siri yoki farmakologik tavsifi haqida ma'lumot beradi. Masalan, Ampicillinum, Bicillinum, Oxacillinum dori nomlaridagi cillin+um so'z yasovchi qismi shu dorilarning antibiotik guruhiga tegishli ekanini yoki Phenaminum, Phenobarbitalum, Phenylbutazolium dori nomlaridagi — phen — umumiy so'z yasovchi qismi shu dorilar tarkibida fenil moddasi borligini ko'rsatadi.

30-§. QUYIDAGI MA'NOLI SO'Z YASOVCHI QISMLARNI, ULARNING YOZILISHI VA MAZMUNINI XOTIRANGIZDA SAQLANG!

Ma'noli qism	Mazmuni	Misollar
— cillin—	antibiotik	Penicillinum
—mycin—	antibiotik	Streptomycinum
—cyclin—	antibiotik	Tetracyclinum

Ma'noli qism	Mazmuni	Misollar
—sulfa—	mikroblarga qarshi sulfanilamidlar	Norsulfazolum Sulfadimezinum
—pyr—	isitma pasaytiruvchi	Amidopyrinum
—alg—	og'riq qoldiruvchi	Analginum, Promedolum
—dol—		
—chol—	o't (safro) haydovchi	Allocholum
—cor—(lat)	yurakka tegishli	Corvalolum
—card—(gr)	yurakka oid	Cardiotoxinum
—oestr—	estrogenlar	Oestradiolum
—aeth (yl)	etil	Aethaperazinum
—meth (yl)—	metil	Methylsulfazinum
—(a)zol—	azot guruhi	Aethazolum
—(a)zon—	azot guruhi	Phthivazidum
—zid—		
—(a) zin—	azot guruhi	Sulfadimezinum
—thi(o)—	oltinugurt	Thioacetazonum
—phen (yl)—	fenil	Phenalinum
—hydr—	suv, vodorod	Hydrocortisonum
—oxy—	taxir, kislorod	Oxytetracyclinum
—cain—	og'riqsizlantiradigan	Novocainum
—aesth—	sezdirmaydigan	Anaesthocainum
—andr—	androgenlar	Protandrenum, Methyl testosteronum
—test—		
—barb—	barbituratlar	Phenobarbitalum
—thyr—	qalqonsimon bez moddasi	Diiodthyrosinum
—Phyll—	barg	Theophyllinum
—anth—	gul	Strophanthinum
—naphth—	qora moy, neft	Benzonaphtholum
—glyc—	shirin	Glycirinum
—the—		
—thi (o)—	choy	Thioacetazinum
—stress—		
—tranq—	tinchlantiradigan	Anastress, Tranquil
—ur—	siydik haydovchi	Urothrophinum
—vit—	vitamin	Vitaminum, Undevit
—mal—, —al—	uyqu keltiruvchi	Luminalum
—somm—	uxlatuvchi	Somnalin
—hypn—	uxlatgich	Hypnobroom
—yl—, —hyle—	modda	Amylum

Dorilarning farmakologik ta'siri

Odam a'zolariga bir xil ta'sir ko'rsatadigan dorilar farmakologiyada guruhlariga bo'linadi va ular sifat ko'rinishida bo'lib, dorilarning farmakologik ta'sirini ta'riflaydi.

31-§. QUYIDAGI ATAMALARNI XOTIRANGIZDA SAQLANG!

<i>Analgetica</i>	— og'riq qoldiradigan
<i>analeptica</i>	— jonlantiruvchi
<i>anaesthetica</i>	— sezdirmaydigan (og'riqsizlantiradigan)
<i>antiseptica</i>	— yuqumsizlantiradigan
<i>cardiaca</i>	— yurakka tegishli
<i>haemostatica</i>	— qon to'xtatuvchi
<i>spasmolytica</i>	— spazmolitik
<i>hypotensiva</i>	— qon bosimini pasaytiruvchi
<i>hypnotica</i>	— uxlatuvchi
<i>heroica</i>	— ta'siri bo'yicha kuchli
<i>narcotica</i>	— narkotik
<i>sedativa</i>	— tinchlantiruvchi
<i>anthelminthica</i>	— gijjaga qarshi
<i>antiasthmatica</i>	— nafas qisishiga qarshi
<i>antibiotica</i>	— antibiotik
<i>antipyretica</i>	— isitma pasaytiruvchi
<i>sulfanilamidea</i>	— mikrobgga qarshi
<i>laxativa</i>	— surgi, ichni yumshatuvchi
<i>fungicida</i>	— zamburug'li teri kasalligiga qarshi
<i>diuretica</i>	— siydik haydovchi
<i>cholagoga</i>	— o't (safro) haydovchi
<i>bactericida</i>	— bakteritsid (bakteriyaga qarshi)



48-mashq. Quyidagi dori nomlarida ma'noli so'z yasovchi qo'shimchalarni ko'rsating. M—F.

Algolysinum, Aminazinum, Aethacridinum, Anaesthocainum, Phthalazolium, Anaesthesinum, Barbamylum, Sulfacylum, Erythromycinum, Methylsulfazinum, Ampicillinum, Milocordinum, Octoestrolum, Pircophenum, Oleandomycinum, Sulfapyridazinum, Dicainum, Urodanum, Sulfadimethoxinum



49-mashq. Farmatsevtik atamalarni ma'nosiga qarab joylashtiring. M—F.

<i>Analgetica</i>	— bakteritsid
<i>anaesthetica</i>	— o't haydovchi
<i>antiseptica</i>	— siydik haydovchi
<i>anthelminthica</i>	— surgi

<i>antibiotica</i>	— mikrobg qarshi
<i>bactericida</i>	— narkotik
<i>cardiaca</i>	— antibiotik
<i>cholagoga</i>	— gijaga qarshi
<i>diuretica</i>	— og'riq qoldiruvchi
<i>haemostatica</i>	— yuqumsizlantiruvchi
<i>hypnotica</i>	— spazmolitik
<i>laxativa</i>	— uxlatuvchi
<i>narcotica</i>	— qon to'xtatuvchi
<i>spasmolytica</i>	— yurakka oid
<i>sulfanilamidea</i>	— og'riqsizlantiruvchi



50-mashq. Dori nomlarini lotin tiliga tarjima qiling va ma'noli so'z yasovchi qismlar ostiga chizing. M—F.

Agopirin, bisilin, valokardin, amidopirin, tetrasiklin, xolagol, etazol, tiamin, metoksin, anestizin, sovkain, korglikon, nitrogliserin, testosteron, fenoksimetilpenisillin, antianemin, diazolin.



51-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Recipe: Dragee Diazolini 0,25

Da tales doses numero 20

Signa: 1 donachadan kuniga 3 mahal ovqatdan keyin.

Recipe: Phenoli 0,5

Glycerini 10 ml

Misce. Da.

Signa: Quloqqa tomizish uchun.

Recipe: Sulfadimezini 0,5

Da tales doses numero 20 in tabulettis.

Signa: 2 tabletkadan kuniga 4 mahal.

Recipe: Sulfacyli — natrii 2,0

Lanolini 0,8

Vaselini ad 10,0

Misce. fiat unguentum.

Da. Signa: Ko'zga surtish uchun.



52-mashq. Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling. M—F.

Ol: Kordiamindan 10 ml

Ber. Belgila: 20—25 tomchidan ichish uchun.

Ol: Dibazoldan 0,02

Shunday miqdorli 12 ta tabletk ber.

Belgila: 1 tabletkadan kuniga 3 marta.

Ol: «Betiol» shamchalaridan 10 dona
 Ber. Belgila: Kuniga 1 shamchadan.
 Ol: Naftalan emulsiyasidan
 Ber. Belgila: Kompresni yumshatish uchun.

32-§. KIMYOVIY MODDALAR, OKSIDLAR, KISLOTALAR VA TUZLARNING NOMI

Farmatsevtik atamalarning asosiy qismini kimyoviy moddalar va birikmalar tashkil qiladi.

1. Kimyoviy moddalar

Hamma kimyoviy moddalarning nomi ikkinchi guruhda turlanuvchi sredniy rodga oid bo'lib **-um** qo'shimchasiga ega bo'ladi.
 Masalan:

Lotincha nomi	Kimyoviy belgisi	O'zbekcha muqobili
Aluminum	Al	Aluminiy
Argentum	Ag	Kumush
Arsenicum	As	Margimush
Aurum	Au	Oltin
Barium	Ba	Bariy
Bismuthum	Bi	Bismut
Borum	B	Bor
Bromum	Br	Brom
Calcium	Ca	Kalsiy
Carboneum	C	Karbon
Chlorum	Cl	Xlor
Cuprum	Cu	Mis
Ferrum	Fe	Temir
Fluorum	F	Ftor
Iodum	I	Yod
Hydrogenium	H	Vodorod
Nitrogenium	N	Azot
Oxygenium	O	Kislorod
Hydrargyrum	Hg	Simob
Kalium	K	Kaliy
Lithium	L	Litiy
Magnium	Mg	Magniy
Manganum	Mn	Marganes
Natrium	Na	Natriy
Plumbum	Pb	Qo'rg'oshin
Silicium	Si	Kremniy
Stibium	Sb	Surma
Thallium	Tl	Talliy
Zincum	Zn	Rux

Qoidadan tashqari holat:

Sulfur, uris, n	— oltingugurt
Phosphorus, i, m	— fosfor

2. Oksidlar nomi

Hamma oksidlar ikki otdan tashkil topadi.

Birinchisi — modda nomi Gen. Sing., ikkinchisi oksidlarning guruh nomi Nom. Sing. da bo'ladi. Masalan:

<i>Calcii oxydum</i>	— kalsiy oksidi
<i>Hydrogenii peroxydum</i>	— vodorod peroksidi
<i>oxydum</i>	— oksid
<i>peroxydum</i>	— peroksid
<i>hydroxydum</i>	— gidroksid

Chala oksidlar ikkita otdan tarkib topib, birinchisi—modda nomi Nog. Sing. da, ikkinchisi — chala oksid guruhining nomi oxydulatus, **a, um**, sifati ham Nom. Sing. da bo'ladi:

Nitrogenium oxydulatum — azotning chala oksidi.

3. Kislotalar nomi

Kislotalar nomi acidum (kislota) ot va moslashgan sifattan hosil qilinadi:

<i>Acidum Lacticum</i>	— sut kislota
<i>Acidum Boricum</i>	— borat kislota

Ayrim hollarda moddalar ikkita kislota hosil qilishi mumkin. Bu vaqtda tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lgan kislotalar **-icum** qo'shimchali sifat yordamida hosil qilinadi:

<i>Acidum Sulfuricum</i>	— oltingugurt kislota
<i>Acidum Nitricum</i>	— azot kislota
<i>Acidum Phosphoricum</i>	— fosfor kislotasi

Tarkibida kislorod miqdori kam bo'lgan kislotalar **-ocum** qo'shimchali sifat yordamida hosil qilinadi:

<i>Acidum Sulfurosum</i>	— oltingugurt kislota
<i>Acidum Phosphorosum</i>	— fosfor kislotasi

Tarkibida kislorod moddasi bo'lmagan kislotalar **hydro** — old qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi:

<i>Acidum Hydrochloricum</i>	— vodorod xlorid kislota
<i>Acidum Hydrobromicum</i>	— vodorod bromid kislota
<i>Acidum Hydroiodicum</i>	— vodorod yodid kislota

4. Tuzlar nomi

Kation nomi — ot Gen. Sing. shaklida birinchi o'ringa, anion nomi ham ot bilan ifodalaniib Nom. Sing. shaklida ikkinchi o'ringa qo'yiladi. Tarkibida kislorod bo'lgan kislotali tuzlarni ifodalovchi anionlar **-as**, **-is** va **-idum** qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi:

Kalii sulfas — kaliy sulfat. *Kalii asetas* — kaliy atsetat.

Natrii sulfas — natriy sulfat. *Natrii nitris* — natriy nitrit.

Natrii sulfidum — natriy sulfid.

33-§. QUYIDAGI KISLOTALAR NOMINI XOTIRANGIZDA SAQLANG!

<i>Acidum aceticum</i>	— sirka kislota
<i>Acidum acetylsalicylicum</i>	— atsetilsalitsilat kislota
<i>Acidum benzoicum</i>	— benzoy kislota
<i>Acidum boricum</i>	— borat kislota
<i>Acidum citricum</i>	— limon kislota
<i>Acidum folicum</i>	— folat kislota
<i>Acidum carbolicum</i>	— karbolat kislota
<i>Acidum carbonicum</i>	— ko'mir kislota
<i>Acidum glutaminicum</i>	— glutamin kislota
<i>Acidum lacticum</i>	— sut kislota
<i>Acidum nicotinicum</i>	— nikotinat kislota
<i>Acidum salicylicum</i>	— salitsilat kislota
<i>Acidum tartaricum</i>	— uzum kislota
<i>Acidum ascorbinicum</i>	— askorbinat kislota
<i>Acidum dehydrocholium</i>	— degidroxolat kislota
<i>Acidum arsenicum</i>	— margimush kislota
<i>Acidum arsenicosum</i>	— margimushli kislota
<i>Acidum ferro-ascorbicum</i>	— temir askorbinat kislota
<i>Acidum nitricum</i>	— azot kislota
<i>Acidum nitrosum</i>	— azotli kislota
<i>Acidum sulfuricum</i>	— oltingugurt kislota
<i>Acidum sulfurosum</i>	— oltingugurt kislota
<i>Acidum hydrobromicum</i>	— vodorod bromid kislota
<i>Acidum hydrochloricum</i>	— vodorod xlorid kislota
<i>Acidum hydroiodicum</i>	— vodorod yodid kislota



53-mashq. Quyidagi kimyoviy moddalarni tarjimasiga qarab o'z o'rniga qo'ying. M—F.

<i>Argentum</i>	— kislorod
<i>Aurum</i>	— rux
<i>Barium</i>	— qo'rg'oshin
<i>Bromum</i>	— oltingugurt
<i>Carboneum</i>	— vodorod
<i>Chlorum</i>	— fosfor
<i>Cuprum</i>	— natriy
<i>Ferrum</i>	— magniy
<i>Fluorum</i>	— simob
<i>Hydrogenium</i>	— kaliy
<i>Oxygenium</i>	— kumush
<i>Hydrargyrum</i>	— oltin
<i>Kalium</i>	— bariy
<i>Magnium</i>	— brom
<i>Natrium</i>	— uglerod
<i>Plumbum</i>	— xlor
<i>Zincum</i>	— mis
<i>Sulfur</i>	— temir
<i>Phosphorus</i>	— fluor




54-mashq. Quyidagi oksidlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Magnii oxydum, Hydrogenii peroxydum, Aluminiumi hydroxydum, Zinci oxydum, Hydrargyri oxydum, Magnii peroxydum, Aluminiumi hydroxydum.




55-mashq. Kislotalarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M—F.


<i>Acidum aceticum</i>	— oltingugurt kislota
<i>Acidum acetylsalicylicum</i>	— temir askorbinat kislota
<i>Acidum boricum</i>	— margimush kislota
<i>Acidum carbolicum</i>	— azot kislota
<i>Acidum carbonicum</i>	— askorbinat kislota
<i>Acidum glutaminicum</i>	— nikotinat kislota
<i>Acidum lacticum</i>	— salitsilat kislota
<i>Acidum nicotinicum</i>	— sirka kislota
<i>Acidum salicylicum</i>	— atsetilasalitsilat kislota
<i>Acidum ascorbinicum</i>	— borat kislota
<i>Acidum arsenicum</i>	— karbolat kislota
<i>Acidum ferro-ascorbinicum</i>	— ko'mir kislota
<i>Acidum nitricum</i>	— glutamin kislota
<i>Acidum sulfuricum</i>	— sut kislota

 **56-mashq.** *Quyida keltirilgan tuzlar nomini o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

Calcii chloras, Kalii acetas, Natrii arsenis, Zinci sulfas, Natrii nitris, Magnii sulfas, Nitrii fluoridum, Hydrargyri cyanidum, Dihydrostreptomycini ascorbas.

 **57-mashq.** *Quyidagi tuzlar nomini lotin tiliga tarjima qiling. M—F.*

Bariy sulfat, mis sulfat, kodein fosfat, kaliy xlorid, natriy benzoat, kalsiy laktat, rux dixlorid, kaliy yodid.

 **58-mashq.** *Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

Recipe: Zinci oxydi

Amyli ana 5,0

Vaselini 10,0

Misce. Da.

Signa: Quyuq surtma.

Recipe: Magnii oxydi 20,0

Aquae destillatae 120 ml

Misce. Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan har daqiqada.

Recipe: Natrii bromidi 4,0

Codeini phosphatis 0,2

Adonisidi 6,0

Aquae destillatae 200 ml

Misce. Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

Recipe: Mentholi 0,15

Acidi borici pulverati

Zinci oxydi ana 0,75

Vaselini 15,0

Misce fiat unguentum Da.

Signa: Burunga surtish uchun.

Recipe: Acidi salicylici 1,0


Zinci oxydi

Amyli Triticici ana 12,5

Vaselini flavi ad 50,0

Misce fiat pasta. Da.

Signa: Lassar quyuq surtmasi.

 **59-mashq.** *Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling. M—F.*

Ol: Benzoy kislotasidan 0,6

Salitsilat kislotadan 0,3

Vazelindan 10,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Surtma.

- Ol: Natriy bromiddan 6,0
 Barbitol-natriydan 1,0
 Anti pirindan 2,0
 Valeriananing spirtli eritmasidan
 Do'lana ekstraktidan teng miqdorda 6,0
 Qalampirmunchoq suvidan 200 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga uch mahal.
- Ol: Natriy bromiddan
 Kaliy bromiddan teng miqdorda 3,0
 Kofein-natriy benzoatdan 0,5
 Tozalangan suvdan 200 ml
 Valeriananing spirtli eritmasidan 2,0
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 2—3 mahal.
- Ol: Natriy bromiddan
 Natriy gidrokarbonatdan teng miqdorda 4,0
 Kodein fosfatdan 0,12
 Valeriananing spirtli eritmasidan 10 ml
 Tozalangan suvdan 180 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.
- Ol: Ammoniy xloriddan 2,0
 Kodein fosfatdan 0,2
 Shirinmiya ekstraktidan 6,0
 Tozalangan suvdan 200 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: 1 osh qoshiqdan har ikki soatda ichish uchun.

? Mavzularga oid savollar

1. Kimyoviy moddalar qaysi rodga tegishli?
2. Oksidlar qanday hosil qilinadi?
3. Chala oksidlar qanday yasaladi?
4. Kislotalar nomi qanday hosil bo'ladi?
5. Tuzlar nomi qanday usulda hosil bo'ladi?



! Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Consuetudo est altera natura.

Odat kishining ikkinchi tabiatidir.

Fortes fortuna adiuvat.

Jasur kishilarga taqdir yordam beradi.

Debes, argo potes.

Bajarish zarurmi, demak qo'lingdan keladi.

Homini cibus utilissimus est simplex.

Oddiy ovqat, odam uchun har narsadan ham foydali.

Ubi concordia, ibi victoria.

Hamjihatlik bor joyda, g'alaba bo'ladi.

34-§. SIFAT

Predmetning belgisini bildirib qanday? qanaqa? savollariga javob bo'lgan so'zlarga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar otlar kabi rollarda, sonlarda va kelishiklarda turlanadi. Sifatlarning o'z kelishik qo'shimchalari bo'lmaganligi sababli ular I, II va III guruhdagi otlarning kelishik qo'shimchalari orqali turlanadi.

Sifatlar ikki guruhga bo'linadi:

- birinchisi — birinchi va ikkinchi guruhda turlanuvchi sifatlar;
- ikkinchisi — uchinchi guruhda turlanuvchi sifatlar.

Birinchi guruhda turlanuvchi sifatlar *Femininum rodiga* tegishli bo'lib, Nom. Sing. dagi qo'shimchasi **-a** va *Masculinum* hamda *Neutrum* rodlariga tegishli bo'lib, *Masculinum* Nom. Sing. da **-us, -er** qo'shimchalariga va *Neutrum* Nom. Sing. da **-um** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Birinchi guruhda turlanuvchi sifatlarning lug'at shakli

Lug'atlarda *Masculinum* rodiga tegishli sifatning to'liq shakli yozilib, keyin *Femininum* va *Neutrum* rodlarining Nom. Sing. qo'shimchasi yoziladi. Masalan:

<i>Purus, a, um</i>	— toza,
<i>ruber, bra, brum</i>	— qizil,
<i>niger, gra, grum</i>	— qora.

Sifatlarning lug'at shaklini esda saqlash kerak. **Birinchi guruh** sifatlarining kelishiklardagi turlanish namunasi.

1. *Purus, a, um*, — toza; 2. *Dexter, tra, trum*, — o'ng.

Casus	Masculinum	Femininum Singularis	Neutrum
Nominativus	pur+us	pur—a	pur—um
Genetivus	pur—i	pur—ae	pur—i
Accusativus	pur—um	pur—am	pur—um
Nominativus	pur—o	pur—a	pur—o
Ablativus	dexter	dextra	dextrum
Genetivus	dextr—i	dextr—ae	dextr—i
Accusativus	dextr—um	dextr—am	dextr—um
Ablativus	dextr—o	dextr—a	dextr—o
Pluralis			
Nominativus	pur—i	pur—ae	pur—a
Genetivus	pur—orum	pur—arum	pur—orum
Accusativus	pur—os	pur—as	pur—a
Ablativus	pur—is	pur—is	pur—is
Nominativus	dextr—i	dextr—ae	dextr—a
Genetivus	dextr—orum	dextr—arum	dextr—orum
Accusativus	dextr—os	dextr—as	dextr—a
Ablativus	dextr—is	dextr—s	dextr—is

35-§. BIRINCHI GURUH SIFATLARINING YASALISHIDA QO‘LLANILUVCHI SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

1. Sifatlarni yasashda **-eus** va **-aceus** so‘z yasovchi qo‘shimchalari predmet belgisini, rangini va uning qanday moddadan yasalganligini ko‘rsatadi. Masalan:

ferr+eus —temirga oid, *ferrum* — temir. *oss+eus* —suyakka tegishli, *os. ossis. n* —suyak, *chari + aceus* — qog‘ozga oid, *charta* — qog‘oz, so‘zlaridan olingan.

2. Sifatlarni hosil qilishda **-idus** so‘z yasovchi qo‘shimchasi qo‘llanilib, bunda predmetning tabiiy xususiyatlari (mazasi, og‘irligi va harorati) ko‘rsatiladi:

frig+idus — sovuq,
grav+idus — og‘ir,
faet+idus — sassiq.

3. **-osus** so‘z yasovchi qo‘shimchasi sifatlarda mo‘l-ko‘lchilik ma‘nosini anglatadi:

aqu+osus — suvga serob,
squam+osus — tangachasimon,
fibrin+osus — sertola.

-icus, -imus, -ideus, -asus, -enthus soʻz yasovchi qoʻshimchalar sifatlarini hosil qilishda qoʻllaniladi:

<i>Pancreat+ icus</i>	— meʼda osti beziga oid,
<i>palat+imus</i>	— tanglayga oid,
<i>lamdo+ ideus</i>	— lamdovidli,
<i>coll+asus</i>	— qadoqli, qavariqli,
<i>purul+entus</i>	— yiringli.

36-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

M:	<i>Acusticus, a, um</i>	— eshitishga oid
	<i>cavus, a, um</i>	— kovak, ichi boʻsh
	<i>coccygeus, a, um</i>	— dumgʻazaga oid
	<i>coronarius, a, um</i>	— tojsimon
	<i>dexter, tra, trum</i>	— oʻng
	<i>sinister, tra, trum</i>	— chap
	<i>externus, a, um</i>	— tashqi
	<i>internus, a, um</i>	— ichki
	<i>gastricus, a, um</i>	— meʼdaga oid
	<i>iliacus, a, um</i>	— yonboshga tegishli
	<i>intermedius, a, um</i>	— oraliq
	<i>latus, a, um</i>	— keng
	<i>lymphaticus, a, um</i>	— limfasimon
	<i>medianus, a, um</i>	— oraliq
	<i>medius, a, um</i>	— oʻrta
	<i>thoracicus, a, um</i>	— chuqur
	<i>profundus, a, um</i>	— koʻkrakka tegishli
	<i>transversus, a, um</i>	— koʻndalang
	<i>nervus trigeminus</i>	— uch shoxli nerv
	<i>zygomaticus, a, um</i>	— yuz suyagiga tegishli
	<i>callosus, a, um</i>	— serqadoq
	<i>compactus, a, um</i>	— zich, tigʻiz
S—M:	<i>cutaneus, a, um</i>	— teriga oid
	<i>subcutaneus, a, um</i>	— teri ostiga tegishli
	<i>musculus deltoideus</i>	— deltasimon mushak
	<i>durus, a, um</i>	— qattiq
	<i>pius, a, um</i>	— miya pardasining yumshoq toʻqimasiga oid
	<i>fibrosus, a, um</i>	— tolasimon
	<i>glandulosus, a, um</i>	— bezsimon
	<i>ischadius, a, um</i>	— quymichga tegishli
	<i>mastoideum, a, um</i>	— sut bezisimon
	<i>mucosus, a, um</i>	— shilliqsimon

<i>obliquus, a, um</i>	— qiyshiq
<i>oblongatus, a, um</i>	— uzunchoq
<i>palatinus, a, um</i>	— tanglayga oid
<i>pilosus, a, um</i>	— sersoçh
<i>saphenus, a, um</i>	— yashirin
<i>serratus, a, um</i>	— tishli
<i>spinosus, a, um</i>	— serqiltiq, sertuk
<i>spongiosus, a, um</i>	— g'ovaksimon
<i>squamosus, a, um</i>	— tangachasimon
<i>acutus, a, um</i>	— o'tkir
<i>chronicus, a, um</i>	— surunkali
<i>contagiosus, a, um</i>	— yuqumli
<i>epidemicus, a, um</i>	— keng tarqaluvchi
<i>malignus, a, um</i>	— xavfli
<i>toxicus, a, um</i>	— zaharli
<i>tuberosus, a, um</i>	— egri-bugrisimon
<i>vasculosus, a, um</i>	— sertomir
<i>verrucosus, a, um</i>	— serso'gal
M—F: <i>acetylsalicylicus, a, um</i>	— atsetilsalitsilat
<i>albus, a, um</i>	— oq
<i>amarus, a, um</i>	— achchiq
<i>calidus, a, um</i>	— issiq
<i>camphoratus, a, um</i>	— kamforali
<i>ceratus, a, um</i>	— mumli
<i>compositus, a, um</i>	— murakkab
<i>concentratatus, a, um</i>	— to'yingan, quyuuq
<i>crystallizatus, a, um</i>	— zarrachasimon
<i>destillatus, a, um</i>	— soflangan, tozalangan
<i>dilutus, a, um</i>	— suyultirilgan
<i>fluidus, a, um</i>	— suyuq, oquvchan
<i>fervidus, a, um</i>	— qaynovchan
<i>gelatinosus, a, um</i>	— yelimshaksimon
<i>gelidus, a, um</i>	— muzli
<i>niger, gra, grum</i>	— qora
<i>obductus, a, um</i>	— usti parda bilan qoplangan (qobiqli)
<i>opicus, a, um</i>	— ko'rishga oid
<i>purus, a, um</i>	— toza
<i>rectificatus, a, um</i>	— tozalangan (spirtli)
<i>siccus, a, um</i>	— quruq
<i>spirituosus, a, um</i>	— spirtli
<i>spissus, a, um</i>	— quyuuq

F: <i>tepidus, a, um</i>	— iliq
<i>activatus, a, um</i>	— aktivlashtirilgan
<i>aethereus, a, um</i>	— efirli
<i>aethylicus, a, um</i>	— etilli
<i>amylaceus, a, um</i>	— ohorli
<i>anhydricus, a, um</i>	— suvsiz
<i>hydricus, a, um</i>	— suvli
<i>anisatus, a, um</i>	— arpabodiyonsimon
<i>aquosus, a, um</i>	— suvli
<i>aromaticus, a, um</i>	— xushbo'y
<i>causticus, a, um</i>	— achishtiruvchi
<i>cinereus, a, um</i>	— kulrang
<i>coeruleus, a, um</i>	— havorang, zangori
<i>divisus, a, um</i>	— bo'linuvchan
<i>exsiccatu, a, um</i>	— quritilgan
<i>fructuosus</i>	— sermeva
<i>glutenosus, a, um</i>	— serelim
<i>grossus, a, um</i>	— yirik, katta
<i>liquidus, a, um</i>	— suyuq, eruvchan
<i>oleosus, a, um</i>	— moyli
<i>paraffinatus, a, um</i>	— mumsimon
<i>piperitus, a, um</i>	— qalampirli
<i>praecipitatus, a, um</i>	— cho'kindi
<i>porcinus, a, um</i>	— cho'chqa yog'iga tegishli
<i>pulveratus, a, um</i>	— kukunsimon
<i>ruber, bra, brum</i>	— qizil
<i>sanus, a, um</i>	— sog'
<i>solidus, a, um</i>	— qattiq
<i>sterilisatus, a, um</i>	— sterillangan
<i>suillus, a, um</i>	— cho'chqa yog'iga oid
<i>tritus, a, um</i>	— qirg'ichdan o'tkazilgan
<i>uliginosus, a, um</i>	— dog'langan
<i>ustus, a, um</i>	— kuydirilgan

37-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH SIFATLAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
albus	leuk	oq
durus	scler	qattiq
flavus	xanth	sariq
magnus	macros	katta
niger	melan	qora
multus	poly	ko'p
ruber	arythr	qizil
parvus	micros	kichik



60-mashq. Quyidagi sifatlarni tarjimasiga qarab moslashtiring. *M.*

<i>Acusticus</i>	— ko'krakka oid
<i>coccygeus</i>	— oraliq
<i>dexter</i>	— yuz suyagiga tegishli
<i>internus</i>	— limfasimon
<i>externus</i>	— eshitishga oid
<i>gastricus</i>	— dumg'azaga oid
<i>lymphaticus</i>	— o'ng
<i>medianus</i>	— tashqi
<i>thoracicus</i>	— me'daga oid
<i>zygomaticus</i>	— ichki



61-mashq. Sifatlarni ma'nosiga qarab joylashtiring.

S—M:

<i>Compactus</i>	— sertomir
<i>cutaneus</i>	— egri-bugri
<i>durus</i>	— serso'gal
<i>fibrosus</i>	— zaharli
<i>ischiadicus</i>	— xavfli
<i>mastoideus</i>	— keng tarqaluvchi
<i>mucosus</i>	— yuqumli
<i>oblongatus</i>	— surunkali
<i>palatinus</i>	— o'tkir
<i>acutus</i>	— uzunchoq
<i>chronicus</i>	— tanglayga oid
<i>contagiosus</i>	— shilimshiqsimon
<i>epidemicus</i>	— sut bezisimon
<i>malignus</i>	— quymichga tegishli
<i>toxicus</i>	— tolasimon
<i>tuberosus</i>	— qattiq
<i>vasculosus</i>	— teriga oid
<i>verrucosus</i>	— zich



62-mashq. Sifatlarning o'zbekcha nomini lotincha muqobiliga qarab o'z o'rniga qo'ying. *M—F.*

<i>acetylsalicylicus</i>	— toza
<i>albus</i>	— qobiqli
<i>amarus</i>	— quyuc
<i>camphoratus</i>	— spirtli
<i>ceratus</i>	— yelimshaksimon
<i>compositus</i>	— suyuq
<i>crystallisatus</i>	— atsetilsalitsilat
<i>destillatus</i>	— oq
<i>fluidus</i>	— achchiq

<i>gelatinosus</i>	— kamforali
<i>obductus</i>	— mumli
<i>purus</i>	— murakkab
<i>spirituosus</i>	— zarrachasimon
<i>spissus</i>	— tozalangan



63-mashq. *Farmatsevtik atamalarni o'z o'rniga qo'ying. F.*

<i>Activatus</i>	— kukunsimon
<i>aethereus</i>	— sterillangan
<i>amylaceus</i>	— kuydirilgan
<i>anisatus</i>	— mumsimon
<i>aromaticus</i>	— cho'chqa yog'iga oid
<i>causticus</i>	— qirg'ichdan o'tkazilgan
<i>divisus</i>	— moyli
<i>suillus</i>	— faollashtirilgan
<i>exsiccatu</i>	— efirli
<i>fructosus</i>	— ohorli
<i>oleosus</i>	— arpabodiyonli
<i>trit</i>	— xushbo'y
<i>paraffinatus</i>	— achishtiruvchi
<i>pulveratus</i>	— bo'linuvchi
<i>sterilisatus</i>	— quritilgan
<i>ustus</i>	— sermeva



64-mashq. *Quyidagi sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling va lug'at shaklida yozing.*

- M: tojsimon, kovak, chap, yonboshga tegishli, oraliq, keng, chuqur, ko'ndalang, o'rta.
- S—M: serqadoq, teri ostiga tegishli, yumshoq, bezsimon, qiyshiq, sersocho, yashirin, sertuk, tishli, g'ovak-simon, tangachasimon, egri-bugrisimon, sertomir, zaharli, serso'gal.
- M—F: issiq, to'yingan, zarrachasimon, qaynovchan, muzli, tozalangan, quruq, quyuq, iliq, qobiqli.
- F: etilli, ohorli, suvsiz, suvli, kulrang, havorang, serelim, suyuq, qalampirli, cho'kindi, qizil, sog', cho'chqa yog'iga oid.



65-mashq. *Quyidagi retseptlarini o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

Recipe: *Magnesiae ustae* 2,5

Da in *scatula*.

Signa: Yarim choy qoshiqdan kuniga 2 mahal.


Recipe: Diuretini 4,0
Aquae Menthae piperitae
Aquae destillatae ana 60 ml
Misce. Da.
Signa: 20—30 tomchidan kuniga 3 mahal.

Recipe: Tincturae amarae
Tincturae Rhei ana 15 ml
Misce. Da.
Signa: 20—30 tomchidan kuniga 3 mahal.

Recipe: Extracti Eleutherococci fluidi 50 ml
Da. Signa: 20—30 tomchidan kuniga 3 marta.

Recipe: Extracti Urticae fluidi
Extracti Millefolii fluidi ana 25 ml
Misce. Da.
Signa: 25—30 tomchidan kuniga 3 marta.

Recipe: Infusi herbae Gnaphalii uliginosi 30,0—200 ml
Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 4 marta.

 **66-mashq.** Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.
M—F.

Ol: Sanoning murakkab spirtli eritmasidan 30 ml.
Ber. Belgila: Kuniga 1 mahal (kattalar uchun).

Ol: Me'da shirasidan 100 ml.
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta
ovqatlanish paytida.

Ol: Diprazindan 0,025.
qobiqli tabletkadan 20 ta ber.
Belgila: 1 tabletkadan kuniga 2—3 marta.

Ol: Kuydirilgan Magneziydan 20,0.
Tozalangan suvdan 120 ml.
Aralashtir. Ber.

Belgila: Kislotadan zaharlangan paytda 1 osh
qoshiqdan har 10 minutda ichish uchun.

Ol: Achchiq Rovochning spirtli eritmasidan 50 ml
Ber. Belgila: 12 tomchidan kuniga 2 mahal ovqat-
lanishdan oldin.

Ol: Suyuq Gematogendan 250,0
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

 **Mavzularga oid savollar**

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2. Sifatlar necha guruhga bo'linadi?

3. Sifatning lug'at shakli deganda nimani tushunasiz?
4. *Femininum* rodiga tegishli sifatlar *Nom. Sing.* va *Gen. Sing.* qanday qo'shimchalarga ega?
5. *Masculinum* va *Neutrum* rodiga qarashli sifatlar *Nom. Sing.* va *Gen. Sing.* qanday qo'shimchalarga ega?
6. Predmet belgisi va rangini ko'rsatuvchi qanday so'z yasovchi qo'shimchalarni bilasiz?
7. Predmetning tabiiy xususiyatlarini ko'rsatuvchi qanday so'z yasovchi qo'shimchalarni bilasiz?
8. Predmetdan mo'l-ko'lchilik ma'nosini anglatuvchi qanday so'z yasovchi qo'shimchalarni bilasiz?
9. Lotincha-yunoncha ma'nodosh sifatlarni bayon eting.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Ad cogitandum et agentum homo natus est.

Inson fikrlash va harakat qilish uchun yaratilgan.

Disce, sed a doctis, indoctos ipse doceto.

Bilgandan o'rgan, bilmaganga o'rgat.

Radices doctrinae amarae, fructus dulces sunt.

Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa, shirin.

Diagnosis bona, curatio bona.

Yaxshilab tekshirish, davolash garovidir.

Ex malis eligere minima opertet.

Yomonfikdan eng kichigini tanlash lozim.

M- 2

38-§. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

Lotin tilida sifatlar rod, son hamda kelishik bo'yicha o'zgaradi va ot sifatini aniqlab, u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchi — sifat hamma vaqt otdan keyin turadi:

Cera pura — toza mum,

succus purus — toza shira,

Vaselinum purum — toza vazelin.

Birinchi guruh sifatlarining otlar bilan kelishiklarda turlanish namunasi:

Musculus rectus — to'g'rilovchi muskul,

oculus dextre — o'ng ko'z,

vena dextra — o'ng ko'k tomir,

extractum fluidum — suyuq ekstrakt.

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	musculus rectus	muscul-i rect-i
Genetivus	muscul-i rect-i	muscul-orum rect-orum
Accusativus	muscul-um rect-um	muscul-os rect-os
Ablativus	muscul-o rect-o	muscul-is rect-is
Nominativus	oculus dexter	ocui-i dextr-i
Genetivus	ocul-i dextr-i	ocul-orum dextr-orum
Accusativus	ocul-um dextr-um	ocul-os dextr-os
Ablativus	ocul-o dextr-o	ocul-is dextr-is
Nominativus	vena dextra	ven-ae dextr-ae
Genetivus	vena-ae dextr-ae	ven-arum dextr-arum
Accusativus	ven-am dextr-am	ven-as dextr-as
Ablativus	ven-a dextr-a	ven-is dextr-is
Nominativus	extractum fluidum	extract-a fluid-a
Genetivus	extract-i fluid-i	extract-orum fluid-orum
Accusativus	extract-um fluid-um	extract-a fluid-a
Ablativus	extract-o fluid-o	extract-is fluid-is

67-mashq. *Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- M: Arteria coronaria dextra, aorta thoracica, glandula thyroidea, glandulae gastricae, humerus dexter et sinister intestinum crassum, morbus chronicus, morbus hypertonicus et hypotonicus, morbus ischaemicus, musculus trapezius, nervus ischiadicus, nervus vagus, pneumonia crouposa, vena cava, ventriculus dexter, vertebra thoracica, vesica fellea, vesica urinaria.
- S—M: Cancer ventriculi, ganglia thoracicae, glandula parathyroidea, incisura cardiaca, medulla oblongata, musculus organismi, nodus lymphaticus, nervus trigeminus, palatum osseum, sutura palatina mediana, tunica vasculosa, typhus exanthematicus, urethra femina, urethra masculina, variola vera, morbus, contagiosus est, diphteria morbus internus est.
- M—F: Aqua destillata, charta cerata, Mentha piperita, infusum Sennae compositum, extractum Belladonnae siccum, extractum Leonuri fluidum, da oleum Camphoratum in ampullis, tabulettae extracti Valerianae obductae, tincturae Amarae.
- F: Axungia porcina depurata, extractum Taraxaci spissum, extractum Sanguisorbae fluidum, extractum Hyoscyami siccum, oleum Terebinthinae rectificatum, mixtura medicamentum compositum est, praepara aquam Amygdalarum amararum.



68-mashq. Quyidagi so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling.

M: chap me'da, o'ng ko'z, ko'krakka oid aorta, ko'rish asabi, ko'zga oid muskul, ko'ndalang muskul, asab kasalligi, ichki kasallik.

S—M: sariq bog'lam, keng bog'lam, limfa tuguni, tangachasimon chok, uzun muskul, tanglayga oid ko'ndalang chok, surunkali me'da kasalligi.

M—F: rovochning quruq ekstrakti, gulxayrining quyuuq ekstrakti, toza kodein, oq surtma, qora suyuq surtma, oq qandni soflangan suvda erit, to'g'ri ichak orqali, sariq vazelin, kanakunjut moyini elastik yelimshak kapsulalarda ber. Qalampir, yalpiz suvi, miksturani qora shishachada ber.

F: ohorli kapsula, vazelin moyi, quruq ekstrakt, g'o'zaning (paxta) suyuq ekstrakti, shirinmiyaning quyuuq ekstrakti, chilibuxaning quruq ekstrakti, surtmani mumli qog'ozda ber, murakkab qo'rg'oshin malhami, kuydirilgan magneziy.



69-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

M—F.

Recipe: Tincturae Convallariae
Tincturae Valerianae ana 10 ml
Extracti Crataegi fluidi 5 ml
Mentholi 0,05
Misce. Da.
Signa: 20—25 tomchidan kuniga 3 mahal.

Recipe: Olei Terebinthinae
Olei camphorati
Chloroformi ana 100,0
Misce. Da.
Signa: Surtish uchun.

Recipe: Mentholi
Camphorae tritae 0,05
Olei Eucalypti guttam I
Olei Vaseline 10,0
Misce. Da.
Signa: Halqumga quyish uchun.

Recipe: Extracti Eucommiae fluidi 25 ml
Da. Signa: 15—30 tomchidan kuniga 2—3 mahal.



70-mashq. *Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.*
M—F.

- Ol: Sangvizorba suyuq ekstraktidan 30 ml
Ber. Belgila: 30 tomchidan kuniga 3—4 marta.
- Ol: Metil ko'kidan 0,1
Shunday miqdorda 10 ta yelimshak kapsulalarda ber.
Belgila: 1 kapsuladan kuniga 2 marta.
- Ol: Itshumurt suyuq ekstraktidan 30 ml
Ber. Belgila: 30—40 tomchidan ichish uchun.
- Ol: Quruq Gematogendan 1,0
60 ta shunday miqdorda mumlangan qog'ozda ber.
Belgila: Bittadan kuniga uch mahal.

MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi so'zlarni tarjima qiling:

A). Yuqori jag', ampula, arteriya, oziqlanishning buzilishi, modda, tashqi, o'pka yallig'lanishi, ko'z, bakteriya, pastki jag', xotira yo'qolishi, o'tkir, kapsula, qorin bo'shlig'i, mumsimon, ovqat hazm qilishning buzilishi, suv, kuydirilgan, burun, yelka suyagi, ichki, til, yurak faoliyatining buzilishi, xushbo'y, hab dori, ko'k qon tomiri murakkab, pufak, ichburug', achchiq, tomchi, kekirdak, surankali, mushaklarning tirishishi, yelimshak-simon, ichak, umurtqa, xavfli, bez, zaharli, spirtli, tirik to'qimalarning o'lishi, tugmachasimon dori, qovuqdan siydik chiqishining qiyinlashuvi, suyultirilgan, o't (o'simlik), o'mrov bronx, o'n ikki barmoqli ichak, me'daga oid.

B). Tonsilla, anuria, oblongatus, finctura, vagina, epidemicus, scapula, costa, compactus, oesophagus, furunculus, fluidus, rectum, contagiosus, mixtura, urethra, sutura, mamma, ventriculus, uterus, caecum, infusum, urina, leukaemia, hypertonia, pasta, morbus, cranium, folium, decoctum, narcoticus, camp-hora, hypotonia, nervus, musculus, linimentum, suppositorium, medicamentum, serum, sedativus.

*Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring
va tarjima qiling:*

A). lobus (dexter), substantia (compactus), bronchus (medius), medulla (oblongatus), medicamentum (internus), morbus

(contagiosus), glycosidum (cardiacus), clavicula (dexter), capsula (gelatinosus), vesica (urinarius), rheumatismus (acutus), scapula (sinister).

B). To'g'ri ichak, tashqi chok, surunkali kasallik, suyuq ekstrakt, kamforali moy, me'da shirasi, surunkali revmatizm, elastik kapsula, o't pufagi, o'ng ko'z, toza kodein, ichki kasallik.

Quyidagilardan retsept tuzing va tarjima qiling:

Ol: Marvaridgulning spirtli eritmasidan
Valeriananing spirtli eritmasidan teng 10,0
Belladonaning spirtli eritmasidan 5,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20—25 tomchidan kuniga 2—3 marta.

Ol: Achchiq spirtli eritmadan
Rovochning spirtli eritmasidan teng 15,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20—30 tomchidan kuniga 3 marta ovqatlanish oldidan.

Ol: Marvaridgulning spirtli eritmasidan
Valeriananing spirtli eritmasidan teng 10,0
Do'lana ekstraktidan 5,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20—30 tomchidan kuniga 2 marta.

Ol: Evkalipt moyidan
Arpabodiyon moyidan teng 10,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Ingalatsiya uchun.

Rp: Infus...foli...Senn.... 10,0—150,0
Sirup... Rhe...30,0
M.D.

S: Bir osh qoshiqdan ertalab va kechqurun.
Rp: Aqu...Menth... 100,0
D.S: Bir osh qoshiqdan kuniga 5—10 marta.

Rp: Tinctur...Valerian.... aethere....30,0
D.S: 10—15 tomchidan qabul qilish uchun.

Rp: Emuls...ole...Ricin...100,0
Resorcin...0,12
Bismuth...nitrat....1,0
Tinctur... Opi....
M.D.

S: Bir choy qoshiqdan kuniga 3 marta.

39-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR.

1. Uchinchi guruhga *Masculinum*, *Femininum* va *Neutrum* rodlariga tegishli otlar kirib, ular Nom. Sing. da har xil qo'shimchalarga ega bo'ladi. Uchinchi guruhdagi otlarning asosiy xususiyati, uchala roddagi otlar Gen. Sing.da **-is** qo'shimchasiga ega bo'lishidir.
2. *Masculinum* va *Femininum* rodlaridagi otlar kelishiklarda turlanganda bir xil qo'shimchalarga ega bo'ladi.
3. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlar teng murakkab bo'ladi, bunda Gen. Sing.dagi bo'g'inlar soni Nom. Sing.dagi bo'g'inlar soniga teng bo'ladi. Noteng murakkabda esa Gen. Sing. dagi bo'g'inlar soni Nom. Sing.dagi bo'g'inlar sonidan ortiq bo'ladi.

Masalav:

Teng murakkab
Nom. Sing. Cut-is
Gen. Sing. cut-is

Noteng murakkab
cor-pus
cor-po-ris

4. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning negizi Gen. Sing. dagi **-is** qo'shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi:

Kelishik	Teng murakkab ot	Negiz	Noteng murakkab ot	Negiz
Nom. Sing. Gen. Sing.	Cutis Cut-is	cut.	Cortex Cortic-is	cortic.

Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug'at shakli birinchi o'rinda Nom. Sing. shaklining to'liq holi, keyin Gen. Sing. ning qo'shimchasi, so'ngra rodi ko'rsatilib, oxirida tarjimai beriladi:

Radix, icis, f ildiz Nom. Sing. radix, Gen. Sing. radicis.

Bir bo'g'inli otlar lug'atda Nom. Sing. shakli bilan birga Gen. Sing. shaklida ham to'liq yoziladi: Flos, floris, m.

Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalari

Causus	Singularis		Pluralis	
	Masc. Femin	Neutrum	Masc. Femin	Neutrum
Nominativus			es	a
Genetivus	is	is	um	um
Dativus	i	i	ibus	ibus
Accusativus	em	Acc. -Nom.	es	a
Ablativus	e	e	ibus	ibus

Otlarning uchinchi guruhda turlanish namunasi
Cortex **icis**, **m-** Solutio, **onis**, **f-** Semen, **inis**, **n-**

Singularis			
Casus	Masculinum	Femininum	Neutrum
Nom.	cortex	solutio	semen
Gen.	cortic—is	solution—is	semin—is
Acc.	cortic—em	solution—em	semen
Abl.	cortic—e	solution—e	semin—e
Pluralis			
Nom.	cortic—es	solution—es	semin—a
Gen.	cortic—um	solution—um	semin—um
Acc.	cortic—es	solution—es	semin—a
Abl.	cortic—ibus	solution—ibus	semin—ibus

40-§. BIRINCHI GURUH SIFATLARINING UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR BILAN MOSLASHISHI

Birinchi guruh sifatlari uchinchi guruhda turlanuvchi otlar bilan rodde va sonda moslashib, faqat kelishiklar bo'yicha turlanganda qo'shimchalar har xil bo'ladi. Masalan: *Amarus*, **a**, **um** —achchiq sifati cortex, icis, m —po'stloq, radix, icis, **f**—ildiz, semen, **inis**, **n**—urug' otlar bilan moslashtirsak, unda quyidagilar hosil bo'ladi:

Cortex amarus — achchiq po'stloq,
radix amara — achchiq ildiz,
semen amarum — achchiq urug'.

Bunday hollarda cortex, radix, semen otlari uchinchi guruhda amarus, a, um sifati esa, birinchi va ikkinchi guruhda kelishiklar bo'yicha turlanadi.

Sifatlarning otlar bilan moslashuv namunasi

I. Liquor flavus — sariq suyuqlik,
liquor, oris, m — suyuqlik,
flavus, a, um — sariq.

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	liquor flavus	liquor-es flav-i
Gen.	liquor-is flav-i	liquor-um flav-orum
Acc.	liquor-em flav-um	liquor-es flav-os
Abl.	liquor-e flav-o	liquor-ibus flav-is

2. Radix amara — achchiq ildiz,
 radix, **icis, f** — ildiz,
 amarus, **a, um** — achchiq.

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	radix amara	radic-es amar-ae
Gen.	radic-is amar-ae	radic-um amar-arum
Acc.	radic-em amar-am	radic-es amar-as
Abl.	radic-e amar-a	radic-ibus amar-is

3. Semen amarum — achchiq urug',
 semen, **inis, n** — urug',
 amarus, **a, um** — achchiq.

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	semen amarum	semin-a amar-a
Gen.	semin-is amar-i	semin-us amar-orum
Acc.	semin-en amar-um	semin-a amar-a
Abl.	semin-e amar-o semen, inis, n	semin-ibus amar-is

41-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI MASCULINUM RODIGA TEGISHLI OTLAR

Nominativus	Genetivus	Misollar
— o	— onis	pulmo, pulmonis — o'pka
	— inis	homo, hominis — odam
— or	— oris	liquor, liquoris — suyuqlik
— os	— oris	flos, floris — gul
— er	— eris	aether, aetheris — efir
— ex	— ris	venter, ventris — qorin
	— icis	cortex, corticis — po'stloq
— es	— edis	pes, pedis — oyoq
	— etis	paries, parietis — to'siq
	— itis	stipes, stipitis — novda

Qoidadan tashqari holat

I. Quyidagi otlar Neutrus rodiga qarashli:

Os, oris, n — og'iz, tuber, eris, n bo'rtma, tugunak, piper.

eris, n —qalampir, cor, cordis, n —yurak, os, ossis, n —suyak, Papaver, eris, n — ko'knori, cadaver, eris, n — jonsiz (o'lik) tana.

2. Quyidagi otlar Femininum rodiga qarashli:
Gaster, gastris, f — oshqozon, me'da; mater, matris, f — miya pardasi.

42-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI MASCULINUM RODIGA OID OTLARNING YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. tor, -sor, -xor so'z yasovchi qo'shimchalari harakat ma'nosini anglatadi:

Flexor — bukuvchi: *flectere* — bukmoq,
extensor — to'g'rilovchi (yoziluvchi), *extendere* — to'g'rilamoq,
adductor — yaqinlashtiruvchi, *adducere* — yaqinlashtirmoq,
abductor — uzoqlashtiruvchi, *abducere* — uzoqlashtirmoq,
rotator — aylantiruvchi, *rotare* — aylantirmoq,
levator — ko'taruvchi, *lovare* — ko'tarmoq fe'llaridan hosil qilingan.

2. -or so'z yasovchi qo'shimchasi jismoniy yoki ruhiy holat ma'nosini anglatadi:

Dolor — og'riq, *dolere* — og'rirmoq,
tumor — shish, *o'sma tumere* — shishmoq,
rubor — qizarish, *rubere* — qizarmoq fe'llaridan hosil qilingan.

43-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!


M:	Apex, icis, m	— uchki qism, boshi
	cor, cordis, n	— yurak
	cortex, icis, m	— po'stloq (teriga oid)
	gaster, tris, f	— oshqozon
	os, oris, n	— og'iz

os, ossis, n	— suyak
per os	— og'iz orqali
pes, pedis, m	— oyoq
pulmo, onis, m	— o'pka
musculus sphincter, eris, m	— qisuvchi muskul
ureter, eris, m	— siydik yo'li
S—M: musculus extensor, oris, m	— yozuvchi muskul
musculus flexor, oris, m	— bukuvchi muskul
musculus abductor, oris, m	— uzoqlashtiruvchi muskul
musculus adductor, oris, m	— yaqinlashtiruvchi muskul
musculus rotator, oris, m	— aylantiruvchi muskul
musculus levator, oris, m	— ko'taruvchi muskul
calor, oris, m	— issiqlik
dolor, oris, m	— og'riq
paries, etis, m	— to'siq
tuber, eris, m	— bo'rtma
tumor, oris, m	— shish, o'sma
vomer, eris, m	— dimog' suyagi
M—F: aether, eris, m	— efir
auctor, oris, m	— retsept yozgan kishi, muallif
pro auctore	— muallif uchun
cortex, icis, m	— po'stloq (o'sim.)
flos, oris, m	— gul
liquor, oris, m	— suyuqlik
liquor Ammonii	— suv maza
anisatus	— novshadil arpabodiyon tom- chisi
F: adeps, icis, m	— yog', charvi
aër, aëris, m	— havo
Bursa pastoris	— jag' -jag', ochambiti
carbo, onis, m	— ko'mir
odor, oris, m	— hid.
sapo, onis, m	— sovun
sapor, oris, m	— maza
stipes, itis, m	— novda (bot)
Papaver, eris, n	— ko'knori


Piper, eris, n	— qalampir, murch
Polygonum	— suvqalampir
hydropiper	
tuber, eris, n	— bo'rtma, tugunak

44-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR


Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
homo	anthropos	odam (erkak kishi)
pes	podos	oyoq
pulmo	pneumon	o'pka
os	stomat	og'iz
tumor	onco	shish (o'sma)

 **71-mashq.** Quyidagi otlarni tarjimasiga qarab moslashtiring. *M.*


<i>Apex</i>	— oyoq
<i>cor</i>	— o'pka
<i>cortex</i>	— qisuvchi muskul
<i>gaster</i>	— siydik yo'li
<i>os</i>	— uchki qism
<i>per os</i>	— yurak
<i>pes</i>	— po'stloq
<i>pulmo</i>	— oshqozon
<i>musculus sphincter</i>	— og'iz
<i>ureter</i>	— og'iz orqali

 **72-mashq.** Quyidagi atamalarni mazmuni asosida moslashtiring. *S—M.*


<i>Musculus extensor</i>	— bo'rtma
<i>musculus flexor</i>	— shish, o'sma
<i>musculus abductor</i>	— dimog' suyagi
<i>musculus adductor</i>	— to'siq
<i>musculus rotator</i>	— og'riq
<i>musculus levator</i>	— yozuvchi muskul
<i>calor</i>	— bukuvchi muskul
<i>dolor</i>	— yaqinlashtiruvchi muskul
<i>paries</i>	— aylantiruvchi muskul
<i>tuber</i>	— uzoqlashtiruvchi muskul
<i>tumor</i>	— ko'taruvchi muskul
<i>vomer</i>	— issiqlik

 **73-mashq.** Lotin tilidagi otlarning o'zbekcha muqobilini o'z o'rniga qo'ying. M—S.

<i>Aether</i>	— novshadil arpabodiyon tomchisi
<i>auctor</i>	— gul
<i>pro auctore</i>	— suyuqlik
<i>cortex</i>	— muallif
<i>flos</i>	— efir
<i>liquor</i>	— muallif uchun
<i>liquor Ammonii anisatus</i>	— po'stloq

 **74-mashq.** Quyidagi so'zlarning lotincha nomiga o'zbekcha nomini moslashtiring. F.


<i>Adeps</i>	— novda
<i>aër</i>	— ko'mir
<i>Bursa pastoris</i>	— hid
<i>carbo</i>	— qalampir
<i>odor</i>	— bo'rtma
<i>sapo</i>	— yog'
<i>sapor</i>	— havo
<i>stipes</i>	— jag'-jag'
<i>Papaver</i>	— sovun
<i>Piper</i>	— maza
<i>Polygonum</i>	— ko'knori
<i>hydropiper</i>	— suv maza
<i>tuber</i>	— suvqalampir

 **75-mashq.** Quyidagi otlarni lotin tiliga tarjima qiling va *Nom. Sing. et Gen. Sing.* da turlang:

M: yurak, po'stloq, og'iz, oshqozon, oyoq, o'pka, issiqlik, og'rig', to'siq, bo'rtma, shish, dimog' suyagi, efir, gul, suyuqlik, novshadil arpabodiyon tomchisi, yog', havo, jag'-jag', ko'mir, ko'knori, qalampir, suvqalampir, bo'rtma (bot).

Namuna:

Guruh	Rod	Nom.Sing.	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
III	m	pulmo	pulmonis	pulmones	pulmonum

 **76-mashq.** Quyidagi atamalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

M: Cortex cerebri, apex linguae, apex cordis, nasus hominis, musculus adductores, abductores, flexores extensores: gangraena pulmonis, tumor cerebri

- S—M: Cortex cerebelli, musculus sphincter, apex vesicae, digiti pedis, paries externus.
- M—F: flores Calendulae, infusum florum Chamomillae, decoctum corticis Frangulae, liquor Burovi, liquor Ammonii anisatus, da medicamentum.
- F: pro auctore, extractum Bursae pastoris fluidum, cortex Eucommiae, extractum florum Helichrysi, decoctum florum Tanaceti, extractum Viburni fluidum, flores Crataegi, extractum Polygoni hydropiperis fluidum.



77-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling.

- M: odam gavdasi, oyoq sinishi, yurakning o'rta venasi, o'ng va chap o'pka, o'pkaning uchki qismi.
- S—M: quymichga oid bo'rtma, ichki to'siq, yozuvchi muskul, ko'tariluvchi muskul, uzoqlashtiruvchi muskul, yuqori jag' bo'rtmasi, xavfsiz o'sma, xavfli o'sma.
- M—F: moychechak guli, tirmoqgul guli damlamasi, faollashtirilgan ko'mir, novshadil arbabodiyon tomchisi, chirqanoq bargi, mevasi va po'stlog'i.
- F: Qora marjon daraxti guli, itshumurt po'stlog'i qaynatmasi, jag'-jag', etil efiri, dastarbosh guli, suvqalampir suyuq ekstrakti.



78-mashq. Quyidagi sifatlarni otlarga moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Apex (internus, a, um) sapor (amarus, a, um);
 pulmo (dexter, tra, trum) carbo (activatus, a, um);
 aether (purus, a, um) liquor (puris, a, um);
 tuber (ischiadicus, a, um) pulmo (sinister, tra, trum).



79-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

- Recipe: Florum Calendulae 30,0
 Da. Signa: Chayqash uchun damlama.
- Recipe: Carbonis activati 100,0
 Da in scatula.
 Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Recipe: Infusi herbae Bursae pastoris ex 10,0—200 ml
 Da. Signa: 1—2 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Recipe: Extracti Bursae pastoris fluidi
 Extracti Viburni fluidi ana 10 ml
 Misce. Da.
 Signa: 20 tomchidan kuniga 3 marta.

Recipe: Decocti corticis Eucommiae ex 10,0—200 ml
Da. Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Recipe: Infusi florum Tiliae 50 ml
Da. Signa: Chayqash uchun.



80-mashq. Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling. *M—F.*

Ol: Moychechak gulidan 30,0

Ber. Belgila. Choy kabi damla.

Ol: Burov suyuqligidan 100 ml

Ber. Belgila: Malham uchun.

Ol: Novshadil arpabodiyon tomchisidan 15 ml

Ber. Belgila: 5—10 tomchidan kuniga 2—3 marta.

Ol: Suvqalampir suyuq ekstrakti

Bodrezak suyuq ekstraktidan teng miqdorda 20 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: 20—30 tomchidan kuniga 2—3 marta

Ol: Novshadil arpabodiyon tomchisidan 50 ml

Gulxayri sharbatidan 30,0

tozalangan suvdan 200 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta.

Ol: *Alnus potlog'i* damlamasidan 15,0—200 ml

Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta.



Mavzularga oid savollar

1. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning asosiy xususiyati nimadan iborat?
2. Teng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
3. Noteng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
4. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning negizini qanday aniqlash mumkin?
5. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
6. Birinchi guruh sifatleri uchinci guruhda turlanuvchi otlar bilan qanday moslashadi? Misollar keltiring.
7. *Masculinum* rodiga tegishli otlar *Nom. Sing.*da qanday qo'shimchalarga ega?
8. *Masculinum* rodiga oid otlarning yasalişida qanday so'z yasovchi qo'shimchalar qo'llaniladi?
9. Lotincha-yunoncha ma'nodosh atamalarni bayon eting.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Salus populi — suprema lex.

Xalq farovonligi — oliy qonun.

Dulce et decorum est pro patria mori.

Vatan uchun jon bermoq baxt va sharaf erur.

Vivere est cogitare.

Yashamoq — fikr yuritmoqdir.

Vox audita latet, littera scripta manet.

Aytilgan so'z uchib ketar, yozilgani qolar.

Bonum initium est dimidium facti.

Yaxshi boshlangan ish—yarim bitgan ish.

45-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI FEMININUM RODIGA TEGISHLI OTLAR

Femininum rodiga tegishli otlar *Nom. Sing.*da quyidagi qo'shimchalarga ega:

Nominativus	Genetivus	Misollar
—as	— atis	extremitas, extremitatis — uchi, oxiri
—es	— is	tabis, tabis — oriqlash
—is	— idis	colitis, colitidis — yo'g'on ichak shilliq
	— is	pardasining yallig'lanishi
—us	— utis	auris, auris — quloq
	— udis	senectus, senectutis — qarilik
		incus, incudis — sandon, ichki tog'ay (quloqda)
—ax	— acis	borax, boracis — tanakor
—ux	— ucis	nux, nucis — yong'oq
—ix	— icis	radix, radicis — ildiz
—s	— tis	mens, mentis — aql, idrok
—x	— gis	meninx, meningis — miya pardasi
—do	— inis	hirudo, hirudinis — zuluk
—go	— inis	mucilago, mucilaginis — shilliq modda
—io	— onis	solutio, solutionis — eritma

Qoidadan tashqari holat

Quyidagi otlar *Musculinum* rodiga tegishli:

Canalis, **is, m** — yo'l, kanal; lapis, **idis, m**—tosh; pulvis, **eris, m** — kukun; axis, **is, m** — bo'yin umurtqasi; penis, **is, m** — olat, erkaklarning jinsiy a'zosi; sanguis, **inis, m**—qon; unguis, **is, m**—tirnoq; vermis, **is, m**—chualchangsimon qurt, gijja; dentis, **m**—tish; hydrops, **opis, m**—istisqo; thorax, **acis, m**—ko'krak

qafasi; larynx, laryngis — hiqildoq; pharynx, **ngis, m** — halqum, yutqin; coccyx, **ygis, m** — dum suyagi; tendo, **inis, m** — pay, chandir; margo, **inis, m** — qirra, chekka.

Quyidagi otlar Neutrum rodiga qarashli:

Pancreas, pancreatis, **n** — me'da osti bezi; vas, vasis — tomir.

46-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI FEMININUM RODIGA TEGISHLI OTLARNING YASALISHIDA ISHLATILADIGAN SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. **-io** so'z yasovchi qo'shimchasi harakat yoki harakat natijasini ifodalaydi:

contusio — shikastlanish, lat yeyish, contundere — urmoq,
curatio — davolash, curare — davolamoq,
solutio — eritma, solvere — eritmoq fe'llaridan hosil qilingan.

2. **-itis** so'z yasovchi qo'shimchasi yallig'lanish jarayonini anglatadi:

bronchitis — bronx shilliq pardasining yallig'lanishi,
hepatitis — jigarning yallig'lanishi,
hephritis — buyrakning yallig'lanishi,
gingivitis — milk shilliq qavatining yallig'lanishi.

3. **-osis** so'z yasovchi qo'shimchasi moddaning ko'payishi yoki to'planishini ko'rsatadi:

monocytosis — monotsitlarning qonda ko'payishi,
lipomatosis — yog' to'qimalarining ayrim a'zo qismlarida to'planishi.

4. **-iasis** so'z yasovchi qo'shimchasi kasallikni anglatadi:

amaebias — amyobali ichburug',
leontiasis — moxov kasalligi.

47-§. TIBBIY AMALIYOTDA QO'LLANILADIGAN ANIONLAR NOMI

<i>Acetas, atis, m</i>	— atsetat
<i>arsenas, atis, m</i>	— arsenat
<i>arsenis, itis, m</i>	— arsenat
<i>benzoas, atis, m</i>	— benzoat
<i>bromidum, i, n</i>	— bromid

<i>carbonas, atis, m</i>	— karbonat
<i>citras, atis, m</i>	— sitrat
<i>chloridum, i, n</i>	— xlorid
<i>iodidum, i, n</i>	— yodid
<i>nitras, atis, m</i>	— nitrat
<i>nitris, itis, m</i>	— nitrit
<i>phosphas, atis, m</i>	— fosfat
<i>salicylas, atis, m</i>	— salitsilat
<i>sulfas, atis, m</i>	— sulfat
<i>tetraboras, atis, m</i>	— tetraborat
<i>gluconas, atis, m</i>	— glukonat
<i>glycerophosphas, m</i>	— glitserofosfat
<i>hydrocarbonas, atis, m</i>	— gidrokarbonat
<i>hydrochloridum, i, n</i>	— gidroxlorid

48-§. QUIYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

M:	<i>Appendix, icis, f</i>	— o'simta
	<i>articulatio, onis, f</i>	— bo'g'im
	<i>auris, is, f</i>	— quloq
	<i>basis, is, f</i>	— asos
	<i>canalis, is, f</i>	— yo'l, kanal
	<i>cartilago, inis, f</i>	— tog'ay
	<i>cavitas, atis, f</i>	— bo'shliq
	<i>dens, dentis, f</i>	— tish
	<i>hypophysis, is, f</i>	— miya (pastki) ortig'i
	<i>larynx, yngis, m</i>	— hiqildoq, bo'g'iz
	<i>pancreas, atis, n</i>	— me'da osti bezi
	<i>pervis, is, f</i>	— chanoq (jom)
	<i>pharynx, yngis, m</i>	— halqum, yutqin
	<i>thorax, acis, m</i>	— ko'krak qafasi
	<i>vas, vasis, n</i>	— tomir
	<i>amputatio, onis, f</i>	— kesib tashlash
	<i>anamnesis, is, f</i>	— kasallikning kelib chiqishi haqida ma'lumot-noma
	<i>auscultatio, onis, f</i>	— eshitib aniqlash, eshitib ko'rish
	<i>cirrhosis, is, f</i>	— to'qima kassalligi
	<i>contusio, onis, f</i>	— shikastlanish, lat yeyish
	<i>crisis, is, f</i>	— kasallik jarayonining keskin o'zgarishi
	<i>curatio, onis, f</i>	— davolash

<i>diagnosis, is, f</i>	— kasallikni aniqlash
<i>genesis, is, f</i>	— kelib chiqish, rivojlanish
<i>lysis, is, f</i>	— buzilish
<i>metastasis, is, f</i>	— kasallikning bir a'zo- dan ikkinchisiga o'tishi
<i>mycosis, is, f</i>	— terining zamburug' ka- salligi
<i>necrosis, is, f</i>	— to'qimalarning o'lishi
<i>palpatio, onis, f</i>	— qo'l bilan paypaslab tekshirish
<i>paralysis, is, f</i>	— biron-bir a'zo faoliya- tining, buzilishi, ishla- masligi
<i>percussio, onis, f</i>	— barmoq yoki bolg'acha bilan urib ko'rish, to'- qillatish
<i>prognosis, is, f</i>	— kasallik rivojini oldin- dan bilish
<i>sclerosis, is, f</i>	— skleroz, tomirda qon- ning zichlanishi
<i>sepsis, is, f</i>	— sepsis, qon orqali za- harlanish
<i>stenosis, is, f</i>	— stenoz, torayish
<i>transfusio onis, f</i>	— transfuziya, quyish
<i>transfusio sanguinis</i>	— qon quyish
S—M:	— teri
<i>cutis, is, f</i>	— o't (safro)
<i>bilis, is, f</i>	— uchi, oxiri
<i>extremitas, atis, f</i>	— homilador
<i>graviditas, atis, f</i>	— homilaning bachadon- dan tashqarida rivojlanishi
<i>graviditas extrauterina</i>	— ko'z rangdor pardasi
<i>iris, iridis, f</i>	— miya pardasi
<i>meninx, ngis, f</i>	— qon
<i>sanguis, inis, m</i>	— birlashish, qo'shilish
<i>symphysis, is, f</i>	— pay, chandir
<i>tendo, inis, m</i>	— xotima, yakun
<i>terminatio, onis, f</i>	— tuxum (urug')
<i>testis, is, m</i>	— g'adur-budir
<i>tuberositas, atis, f</i>	

	<i>convulsio, onis, f</i>	— tutqanoq, mushaklar-ning beixtiyor qisqarishi
	<i>extractio, onis, f</i>	— 1) sug'orish, olib tashlash, so'rish, 2) ajratib olish (so'rim)
	<i>febris, is, f</i>	— isitma, bezgak
	<i>incisio, onis, f</i>	— kesik
	<i>inflammatio, onis, f</i>	— yallig'lanish
	<i>paresis, is, f</i>	— qisman shol, falaj bo'lish
	<i>perforatio, onis, f</i>	— teshilish
	<i>synthesis, is, f</i>	— qo'shilma, birikma
	<i>tussis, is, f</i>	— yo'tal
M—F:	<i>Adonis, idis, m</i>	— gulizardak
	<i>borax, acis, f</i>	— tanakor
	<i>Digitalis, is, f</i>	— angishvonagul
	<i>dosis, is, f</i>	— miqdor o'lchovi
	<i>emulsio, onis, f</i>	— emulsiya, bir-biriga mos kelmaydigan ikki xil suyuqlik aralashmasi
	<i>Filix, icis, f</i>	— qirqquloq
	<i>hirudo, onis, f</i>	— zuluk
	<i>injectio, onis, f</i>	— tomir yoki teri ostiga igna orqali dori yuborish
	<i>mucilago, inis, f</i>	— shilliq modda
	<i>narcosis, is, f</i>	— og'riq sezdirmaydigan yoki behush qilish
	<i>pars, partis, f</i>	— qism
	<i>pulvis, eris, m</i>	— kukun
	<i>radix, icis, f</i>	— ildiz
	<i>solutio, onis, f</i>	— eritma
	<i>Thermopsis, idis, f</i>	— afsonak
	<i>pix, picis, f</i>	— yelim
	<i>Pix liquida</i>	— qatron
F:	<i>apis, is, f</i>	— asalari
	<i>Arachis idis, f</i>	— yeryong'oq
	<i>aspersio, onis, f</i>	— sepma dori
	<i>basis, is, f</i>	— asos
	<i>Mays, ydis, f</i>	— makkajo'xori
	<i>nux, nucis, f</i>	— yong'oq

<i>Plantago, inis, f</i>	— zubtutum
<i>Ribes, is, n</i>	— qorag'at
<i>Sinapis, is, f</i>	— xantal
<i>Solutio Ammonii caustici</i>	— novshadil spirti
<i>suspensio, onis, f</i>	— suspenziya

49-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
cutis	derma	teri
s. articulatio	arthron	bo'g'im
dens	odontos	tish
sanguis	haema	qon
cartilago	chondros	tog'ay
vas	angion	tomir
auris	otos	quloq



81-mashq. Quyidagi otlarning lotin nomiga qarab o'zbekcha muqobilini o'z o'rniga qo'ying. *M.*

<i>Appendix</i>	— qo'l bilan paypaslab kasallikni aniqlash
<i>articulatio</i>	— qon orqali zaharlanish
<i>auris</i>	— kasallikning bir a'zodan ikkinchisiga o'tishi
<i>cartilago</i>	— kasallikni aniqlash
<i>dens</i>	— shikastlanish
<i>larynx</i>	— davolash
<i>pancreas</i>	— eshitib ko'rish
<i>pharynx</i>	— kasallikning kelib chiqishi haqida ma'lumotnoma
<i>thorax</i>	— o'siq
<i>amputatio</i>	— bo'g'im
<i>anamnesis</i>	— tog'ay
<i>auscultatio</i>	— quloq
<i>contusio</i>	— tish
<i>curatio</i>	— hiqildoq
<i>diagnosis</i>	— me'da osti bezi
<i>metastasis</i>	— halqum
<i>palpatio</i>	— ko'krak qafasi
<i>sepsis</i>	— kesib tashlash



82-mashq. Quyidagi atamalarni ma'nosiga qarab joylashtiring. S—M.

<i>cutis</i>	— qisman shol, falaj bo'lish
<i>bilis</i>	— teshilish
<i>extremitas</i>	— yo'tal
<i>graviditas</i>	— isitma, bezgak
<i>meninx</i>	— yallig'lanish
<i>sanguis</i>	— sug'urish
<i>tendo</i>	— teri
<i>terminatio</i>	— o't (safro)
<i>convulsio</i>	— uchi, oxiri
<i>extractio</i>	— homiladorlik
<i>febris</i>	— miya pardasi
<i>inflammatio</i>	— qon
<i>paresis</i>	— pay, chandiq
<i>perforatio</i>	— xotima
<i>tussis</i>	— tutqanoq



83-mashq. Lotincha so'zlarni o'zbekchasi bilan moslashtiring. M—F.

<i>Adonis</i>	— igna bilan dori yuborish
<i>borax</i>	— qirqquloq
<i>Digitalis</i>	— yelim
<i>dosis</i>	— afsonak
<i>emulsio</i>	— eritma
<i>mucilago</i>	— gulizardak
<i>pulvis</i>	— tanakor
<i>radix</i>	— angishvonagul
<i>solutio</i>	— o'lchovli miqdor
<i>Thermopsis</i>	— ikki xil suyuqlik qarishmasi
<i>pix</i>	— shilliq modda
<i>injectio</i>	— kukun
<i>Filix</i>	— ildiz



84-mashq. Quyidagi atamalarni ma'nosiga qarab o'rniga qo'ying. F.

<i>Apis</i>	— novshadil spirti
<i>Arachis</i>	— suspenziya
<i>aspersio</i>	— xantal
<i>Mays</i>	— qorag'at
<i>nux</i>	— asalari

<i>Plantago</i>	— yeryong‘oq
<i>Ribes</i>	— sepma
<i>Sinapis</i>	— makkajo‘xori
<i>suspensio</i>	— yong‘oq
<i>solutio Ammonii</i>	— zubtulum

85-mashq. Quyidagi otlarni lotin tiliga tarjima qiling va Nom. Sing. Gen. Sing. et Pluralis da turlang.


- M: asos, yo‘l, bo‘shliq, miya ortig‘i, chanoq, tomir, to‘qima kasalligi.
- S—M: ko‘z rangdor pardasi, birlashish, tuxum, kesik, qo‘shilma.
- M—F: qirqquloq, zuluk, behush qilish, qism, kukun, qatron.
- F: yeryong‘oq, sepma, makkajo‘xori, zubtulum, qorag‘at, xantal.

Namuna:


Guruh	Rod	Nom. Sing.	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
III	f	solutio	solutionis	solutiones	solutionum

86-mashq. Quyidagi atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.


- M: articulatio composita, cavitas thoracis, cavitas pharyngis, cavitas oris, dens serotinus, auris interna, basis crani, cervix uteri, transfusio sanguinis, radix pulmonis.
- S—M: articulationes digitorum pedis, ligamentum apicidentis, arteria carotis interna, plicae iridis, compressio cerebri, raphe pharyngis, canalis radices dentis, symphysis mandibulae, erosio cervici uteri, graviditas extra uterina, tussis convulsiva, tumor laryngis.
- M—F: infusum radices Valerianae, solutio Iodi spirituosa, solutio Folliculino oleosa pro injectionibus, solutio Natrii chloridi isotonica, solutio Ammonii caustici, extractum Thermopsidis siccum, infusum radices Althaeae, pix liquida Betulae, extractum Aloes fluidum.

 **87-mashq.** *Quyidagi so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling.*

- M: o'ng qism, burun tog'ayi, tog'ay uchi, dumg'aza suyagi bo'shlig'i, o'rta, ichki va tashqi quloq, ko'rish yo'li (kanali), limfa tomiri, o'pka asosi, murakkab bo'g'in, qoni quyish.
- S—M: ichki to'siq, miya pardasi, tanglay yo'li, keng pay, sut tishlari, me'daning kengayishi. qizilo'ngachning torayishi.
- M—F: natriy brom, kaliy brom, eritma, igna orqali dori yuborish uchun suv, achchiq ildiz, murakkab kukun, rovoch ildizi kukuni, angishvonagul bargi kukuni, gulizardak o'ti, afsonak o'ti damlamasi, amidopirin kukuni, yeryong'oq moyi, paxta ildizi po'stlog'i, shirinmiya ildizining murakkab kukuni, novshadil spiriti.

 **88-mashq.** *Quyidagi sifatlarni otlarga moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

Pulvis (compositus, a, um) solutio (spirituosus, a, um)
bronchitis (acutus, a, um) auris (medius, a, um) pleuritis
(siccus, a, um) meningitis (epidemicus, a, um) articulatio
(compositus, colitis (chronicus, a, um) a, um).

 **89-mashq.** *Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 0,1—100 ml
Liquoris Ammonij anisati 1 ml
Natrii benzoatis 0,6
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.

Signa: Bir choy qoshiqdan kuniga 3—4 mahal.

Recipe: Tabulettas Oleandomycini phosphatis obductas numero 25

Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 4—6 mahal.

Recipe: Boracis

Natrii hydrocarbonatis ana 20,0

Natrii chloridi 10,0

Olei Menthae guttas III

Misce, fiat pulvis

Da. Signa: Chayqash uchun.

- Recipe: Calcii carbonatis praecipitatis
 Natrii hydrocarbonatis
 Bismuthi subnitratris ana 0,3
 Extracti Belladonnae 0,015
 Misce, fiat pulvis.
 Dentur tales doses numero 20
 Signetur: 1 donadan kuniga 3 marta.
- Recipe: Strychnini nitratris 0,05.
 Phenobarbitali 5,0
 Pulveris et radices Valerianae quantum satis
 Misce, fiat pilulae numero 100
 Da. Signa: Har kuni 2—3 hab doridan.
- Recipe: Chlorali hydratis 1,0
 Mucilaginis Amyli
 Aquae destillatae ana 25 ml
 Misce. Da.
 Signa: 1 donadan huqna uchun.
- Recipe: Pulveris foliorum Digitalis 0,05
 Sacchari 0,3
 Misce, fiat pulvis. Da tales doses numero 12
 Signa: 1 donadan kuniga 3—4 mahal.



90-mashq. *Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.*
M—F.

- Ol: 5 % li Glukoza eritmasidan 5 ml
 Shunday miqdorda 6 ta ampula ber.
 Belgila: Ko'k tomirga yuborish uchun.
- Ol: 0,1 Tetratsiklin gidrokslorid tabletkasidan 30 dona ber.
 Belgila: 2 tabletkadan kuniga 3—4 mahal.
- Ol: Natriy xloriddan 0,45
 Natriy gidrokarbonat
 Kalsiy xlorid
 Kalsiy xloriddan teng miqdorda 0,01
 Glukozadan 0,5
 Igna orqali quyish uchun suvdan 500 ml
 Aralashtirilsin! Tozalansin! Berilsin!
 Belgilansin: Ko'k tomirga yuborish uchun (tomchilab).
- Ol: Pilokarpin gidroksloriddan 0,1
 Tozalangan suvdan 10 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: Ko'zga tomizish uchun.

- Ol: Bariy sulfiddan 20,0
Rux oksidi
Bug'doy ohoridan teng miqdorda 10,0
Aralashtir. Bankada ber.
Belgila: Sochni to'kish uchun.
- Ol: Zubtutum shirasidan 50 ml
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Ol: Qayin qatronidan 5,0
Kseroformdan 3,0
Kanakunjut moyidan 100 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Bog'lash (malham) uchun (Vishnevskiy surtmasi).

❓ Mavzularga oid savollar

1. *Femininum* rodiga tegishli otlar *Nom. Sing.*da qanday qo'shimchalarga ega?
2. *Femininum* rodiga oid otlarning yasashida qanday so'z yasovchi qo'shimchalar qo'llaniladi?
3. Tibbiy amaliyotda qo'llaniluvchi anionlarni izohlang.
4. Lotincha-yunoncha ma'nodosh atamalarni bayon eting.
5. Birinchi guruhdagi sifatlar uchinchi guruhda turlanuvchi otlar bilan rodga qanday moslashadi?



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Amicus cognoscitur amore, more, ore, re.

Do'st mehr-muhabbatda, axloqda, gapda va ishda bilinar.

Amor tussisque non celatur.

Sevgi va yo'talni yashirib bo'lmaydi.

Tempora mutantur et nos mutamur in illis.

Zamon o'zgaryapti, shu bilan birga biz ham o'zgaryapmiz.

Si vera narretis, non opus sit testibus.

Agar haqiqatni gapirsangiz, guvohga hojat yo'q.

Mendaci homini verum quidem dicenti credere non solemus.

Yolg'onchining rost gapi ham yolg'on bo'lur.

**50-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI
NEUTRUM RODIGA TEGISHLI OTLAR**

Neutrum rodiga oid otlar *Nom. Sing.* da quyidagi qo'shimchalariga ega:

Nominativus	Genetivus	Misollar
—en	—inis	adbomen, adbominis, n — oshqozon me'da
—us	or —eris	corpus, corporis, n — gavda, tana ulcus, ulceris, n — yara
—ur	—uris	pus, puris, n — yiring, madda
—ut	—oris	femur, femoris, n — son
—ut	—uris	sulfur, sulfuris, n — oltingugurt
—ma	—itis	occiput, occipitis — ensa
—i	—atis	trauma, traumatis, n — shikastlanish
—i	—llis	mel, mellis, n — asal
—c	—	fel, fellis, n — o't (safro)
—e	—tis	lac, lactis, n — sut
—al	—is	secale, secalis, n — javdarli bug'doy
—ar	—alis	animal, animalis, n — hayvon
—ar	—aris	calcar, calcaris, n — pix

Qoidadan tashqari holat

Quyidagi otlar *Masculinum* rodiga qaraydi:

Ren, renis, m — buyrak; Lien, lienis, m — taloq; lichen, inis, m — temiratki; sal, is, m — tuz; aden, is, m — bez.

**51-§. UCHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI
NEUTRUM RODIGA TEGISHLI OTLARNING
YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN SO'Z
YASOVCHI QO'SHIMCHALAR**

1. **-itis** so'z yasovchi qo'shimchasi yallig'lanish jarayonini ifodalaydi:

hepatitis — jigar yallig'lanishi, hepar — jigar,
arthritis — bo'g'im yallig'lanishi, arthron — bo'g'im so'zidan
hosil qilingan.

2. **-ema** va **-oma** so'z yasovchi qo'shimchalari sepkil, shish va yiringli yara ma'nosini anglatadi:

blepharodema — ko'z qovoqlarining shishi,
adenoma — bez shishi,
odontoma — tish shishi,

emphysema — terining havo borligi
natijasida kengayishi,
exanthema — terida toshma paydo bo'lishi.

1. **-osis** so'z yasovchi qo'shimchasi yallig'lanishiga oid bo'lmagan kasalliklarni ifodalaydi:

nephrosclerosis — buyrak sklerozi
acidosis — kislotaning me'yoridan ortiq
bo'lishi.
neurosis — asab sistemasi faoliyatining
buzilishi.

2. **-asis, -esis** so'z yasovchi qo'shimchalari yallig'lanishga oid bo'lmagan kasalliklarning sharoitini, harakatini yoki holatini aniqlaydi:

choletihiasis — o't pufagida tosh paydo bo'lish
kasalligi.
diuresis — ma'lum vaqt ichida hosil
bo'lgan siydik miqdori.

52-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!


M:	<i>Abdomen, inis, n</i>	— oshqozon, me'da
	<i>caput, itis, n</i>	— bosh, boshcha
	<i>corpus, oris, n</i>	— gavda, tana
	<i>diaphragma, atis, n</i>	— ko'krak-qorin to'sig'i (muskulli devor)
	<i>femur, oris, n</i>	— son
	<i>foramen, inis, n</i>	— teshik
	<i>hepar, atis, n</i>	— jigar
	<i>lien, lienis, m</i>	— taloq
	<i>pectus, oris, n</i>	— ko'krak
	<i>ren, renis, m</i>	— buyrak
	<i>asthma, atis, n</i>	— nafas qisishi
	<i>carcinoma, atis, n</i>	— xavfli o'sma, rak
	<i>glaucoma, atis, n</i>	— ko'z ichi qon bosimi- ning oshishi
	<i>sarcoma, atis, n</i>	— biriktiruvchi to'qima- dan o'sadigan xavfli o'sma
	<i>symptoma, atis, n</i>	— belgi, alomat
M:	<i>aden, enis, m</i>	— bez
	<i>crus, cruris, n</i>	— boldir
	<i>occiput, itis, n</i>	— ensa
	<i>rete, is, n</i>	— to'rsimon parda (ko'zga oid)

	<i>zygoma, atis, n</i>	— yong'oq
	<i>viscus, eris, n</i>	— ichki
	<i>eczema, atis, n</i>	— chilla yara
	<i>emphysema, atis, n</i>	— terining havo borligi natijasida kengayishi
	<i>erythema, atis, n</i>	— qizillik (dog')
	<i>neoplasma, atis, n</i>	— o'sma
	<i>oedema, atis, n</i>	— shish
	<i>trachoma, atis, n</i>	— shilpiqlik (traxoma)
	<i>ulcus, eris, n</i>	— yara
	<i>vulnus, eris, n</i>	— jarohat
M—F:	<i>Secale, is, n</i>	— javdari bug'doy
	<i>Secale cornutum</i>	— shoxkuya (bot.)
	<i>sulfur, uris, n</i>	— oltingugurt
	<i>jecur, oris, n</i>	— jigar
	<i>oleum jecoris Aselli</i>	— baliq yog'i
	<i>semen, inis, n</i>	— urug'
	<i>rhizoma, atis, n</i>	— ildizpoya
	<i>viride, is, n</i>	— maysa, ko'kat
F:	<i>albumen, inis, n</i>	— oqsil
	<i>alumen, inis, n</i>	— achitqi. achchiqtosh
	<i>elexir, iris, n</i>	— eleksir
	<i>gargarisma, atis, n</i>	— chayqash
	<i>genus, eris, n</i>	— rod, jins
	<i>lac, lactis, n</i>	— sut
	<i>mel, mellis, n</i>	— asal
	<i>Nuphar, aris, n</i>	— nilufar (sariq gulli dori- vor suv o'simligi)
	<i>sal, salis, m</i>	— tuz
	<i>stigma, atis, n</i>	— tumshuqcha. og'izcha (bot.)
	<i>tempus, oris, n</i>	— vaqt
	<i>ex tempore</i>	— kerakli vaqtda, keragicha


53-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
lien	splen	taloq
caput	kephale	bosh
ren	nephros	buyrak
corpus	somat	tana. gavda
jecur	hepar	jigar


Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
fel pus lac	chole pyon galactos	o't (safro) yiring sut

 **91-mashq.** Quyidagi atamalarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M.

<i>abdomen</i>	— belgi, alomat
<i>caput</i>	— xavfli o'sma
<i>corpus</i>	— taloq
<i>diaphragma</i>	— biriktiruvchi to'qimadan o'sadigan xavfli o'sma
<i>femur</i>	— buyrak
<i>hepar</i>	— oshqozon
<i>lien</i>	— bosh
<i>pectus</i>	— gavda
<i>ren</i>	— ko'krak-qorin to'sig'i
<i>carcinoma</i>	— son
<i>syntoma</i>	— jigar
<i>sarcoma</i>	— ko'krak

 **92-mashq.** Quyidagi otlarni ma'nosiga qarab joylashtiring. S—M.

<i>aden</i>	— shilpiqlik
<i>crus</i>	— yara
<i>occiput</i>	— shish
<i>zygoma</i>	— jarohat
<i>eczema</i>	— bez
<i>erythema</i>	— boldir
<i>neoplasma</i>	— yong'oq
<i>oedema</i>	— ensa
<i>trachoma</i>	— qizillik (dog')
<i>ulcus</i>	— o'sma
<i>vulnus</i>	— chilla yara

 **93-mashq.** Lotincha atamalarni o'zbekcha muqobili bilan moslashtiring. M—F.

<i>Secale</i>	— ildizpoya
<i>sulfur</i>	— urug'
<i>jecur</i>	— ko'kat
<i>Secale cornutum</i>	— oltingugurt
<i>oleum jecoris Aselli</i>	— javdari bug'doy

semen	— jigar
rhizoma	— qorakuya
viride	— baliq yog'i

94-mashq. Quyidagi atamalarni ma'nosiga qarab o'z o'rniga qo'ying. F.

Albumen	— tuz
elixir	— kerakli vaqtda
alumen	— sariq nufar
gargarisma	— oqsil
lac	— achitqi, achchiqtosh
mel	— eleksir
Nuphar	— chayqash
sal	— sut
ex tempore	— asal

95-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling va Nom. et Singularis et Plur da turlang.

M: oshqozon, nafas qisishi, ko'z ichi qon bosimining oshishi, belgi.

S—M: to'rsimon parda, yonoq, ensa, ichki, chilla yara.

M—F: oltingugurt, jigar, urug', baliq yog'i, ildizpoya.

F: tumshuqcha, vaqt, chayqash, eleksir, oqsil, achitqi.

Namuna:

Guruh	Rod	Nom.Sing.	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
III	n	rhizoma	rhizomatis	rhizomata	rhizomatum

96-mashq. Quyidagi so'z birikmalaridan tibbiy atama yasang va ma'nosini aniqlang.

branch	—	arthr	—	myocard	—
col	—	cervis	—	nephr	—
encephal	—	dermat	—	odont	—
gingiv	—	myos	—	parat	—
mast	—	neur	—	rach	—

} — itis } — itis } — itis

vagin	—	stomat	—
rhin	—	prostat	—
polimiyel	—	radicul	—
periton	—	metr	—
tonsill	—	gastr	—

} — itis } — itis



97-mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

- M: foramen mandibulae, cavitas abdominis, foramen venae cavae, foramen apicis dentis, corpus humeri, caput femoris, ten dexter, angina pectoris, fractura femoris, emphysema pulmonum, carcinoma vesicae felleae.
- S—M: foramina incisiva, foramina palatina, foramen spinosum, rete testis, crus dextrum et sinistrum, lobuli hepatis, diaphragma pelvis, symptomata certa morbi, ulcus duodeni, vulnus capitis, erythema cutis
- M—F: Sulfur praecipitatum, oleum jecoris Aselli, semen Lini, mucilago seminis Lini, rhizoma Filicis maris, pulvis Secalis cornuti.
- F: rhizoma Eleutherococci, semen Schizandrae, acidum Lacticum, rhizoma Nupharis lutei, stigma Maydis, radix Veratri.



98-mashq. Quyidagi soʻzlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- M: aylana teshik, son tanasi, chap buyrak, meʼda osti bezi tanasi, uzunchoq bosh, nafas qisishi belgisi, jigarning xavfli oʻsmasi.
- S—M: chap boldir, jigarning chap boʻlagi, toʻgʻri ichak yarasi, qizil ekzema, hiqildoq shishi, toʻsh tanasi.
- M—F: achchiq urugʻ, valeriana ildizpoyasi, zigʻir urugʻi, oshqovoq urugʻi, tozalangan oltinugurt, afsonak urugʻi.
- F: kuydirilgan achchiqtosh, makkajoʻxori popugi, achchiq bodom urugʻi, qora xantal urugʻi, oshqovoq urugʻi emulsiyasi.



99-mashq. Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va oʻzbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Lien (sanus, a, um) crus (dexter, tra, trum) ren (sinister, tra, trum) corpus (luteus, a um) hepar (adiposus, a, um) alumen (ustus, a, um) oedema (malignus, a, um) gargarisma (tepidus, a, um).



100-mashq. Quyidagi retseptlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Recipe: Emulsi olei jecoris Aselli 200,0
Da in vitro fuscó.
Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 2 mahal.


Recipe: Corporis Vitrei 2 ml
Da in ampulla.
Signa: Teri ostiga yuborish uchun.

Recipe: Sulfuris depurati
Magnesii oxydi
Sacchari ana 10,0
Misce. Da.
Signa: Yarim choy qoshiqdan ichish uchun.

Recipe: Picis liquidae Betulae
Sulfuris praecipitati ana 3,0
Vasellini ad 30,0
Misce, fiat unguentum. Da.
Signa: Surtma.

Recipe: Emulsi seminum Cucurbitae 100 ml
Da Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Recipe: Extracti stigmatum Maydis fluidi 20 ml
Da. Signa: 30—40 tomchidan kuniga 2—3 mahal.

 **101-mashq.** Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.
M—F.

Ol: Achchiqtoshdan 4,0
Borat kislotasidan 6,0
Tozalangan suvdan 200 ml
Aralashtir. Ber.

Belgila: Malham uchun.
Ol: Tozalangan oltingugurtdan 0,3
Shaftoli moyidan 30,0
Aralashtirilsin! Tozalansin! Berilsin!
Belgilansin: Igna orqali yuborish uchun.

Ol: Makkajo'xori popugidan 20,0
Ber. Belgila: 1 stakan qaynoq suvga bir osh qoshiqda
damlansin va 1 osh qoshiqdan kuniga uch mahaldan
ichish uchun.

Ol: Yeryong'oq urug'i emulsiyasidan 180 ml
Ber. Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga uch marta.

Ol: Qorakuyaning suyuq ekstraktidan
Suvqalampirning suyuq ekstraktidan teng miqdorda
10 ml
Jag'-jag'ning suyuq ekstraktidan 10 ml
Aralashtirilsin. Berilsin.
Belgilansin: 30 tomchidan kuniga uch marta.

Ol: Salitsilat kislotadan 2,0
Kuydirilgan achchiqtosh
Talkdan teng miqdorda 50,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Sepma.

? Mavzularga oid savollar

1. *Neutrum* rodiga tegishli otlar Nom. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega?
2. *Neutrum* rodiga oid otlarning yasashida qanday so'z yasovchi qo'shimchalar qo'llaniladi?
3. Birinchi guruh sifatlari uchinchi guruhda turlanuvchi *Neutrum* rodidagi otlar bilan qanday moslashadi?
4. Lotincha-yunoncha ma'nodosh otlarni bayon eting.



! Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Non quaerit aeger medicum eloquentem, sed sanantem.
Bemor shirinsuxan shifokorni emas, sog'aytiruvchi shifokorni istaydi.

Est modus in rebus.

Hamma narsaning chegarasi (me'yor) bor.

Non omne, Quod nitet, aurum est.

Yaltiroq narsalar oltin bo'lavermaydi.

Notae inflammationis sunt quattuor: rubor et tumor cum calore et dolore.

Yallig'lanishning belgilari to'rtta: qizarish va shish hamda isitma og'riq bilan.

Optimum medicamentum quies est.

Orom eng yaxshi doridir.

54-§. YUNON TILIDAN KIRIB KELGAN TIBBIY ATAMALAR

Lotin tiliga va tibbiy atamalarga yunon tilidan kirib kelgan ko'pgina so'zlarni uchratish mumkin. Bularning ayrimlari o'zining sof yunoncha shaklini saqlab qolgan, boshqalari esa, lotin tili qo'shimchalarini qabul qilgan. Shuning uchun ham ularning kelishiklarda turlanish xususiyatlarini esda saqlash lozim.

Birinchidan, Masculinum roddagi otlar Nom. Sing. da **-es**. Gen. Sing. esa, **-ae** qo'shimchasi bilan tugaydi va birinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalarini oladi. Masalan:

- Diabetes, diabetae, m* — qand kasalligi.
ascites, ascitae, m — istisqo, qoringa suv yig'ilishi

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	diabetes	diabetae
Genetivus	diabetae	diabetarum
Accusativus	diabetam	diabetas
Ablativus	diabeta	diabetis

Ikkinchidan, Femininum roddagi otlar Nom. Sing.da **-e**, Gen. Sing. da **-es** kelishik qo'shimchalari bilan tugaydi. Birlik sonida turlanganda yunon tili qo'shimchalari saqlanib, ko'plik sonida esa birinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi:

- Phlegmone, phlegmones, f* — yallig'lanish
rhaphe, rhapses, f — chok, chok chizig'i
systole, systoles, f — qisilish, siqilish

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	rhaphe	rhaepae
Genetivus	rhapses	rhaptharum
Accusativus	rhapthem	rhapsas
Ablativus	rhaphe	rhapsis

Uchinchidan, **-on** qo'shimchali otlar ikkinchi guruhda turlanuvchi Neutrum roddagi otlar kabi kelishiklarda turlanadi:

- Skeleton, sceleti, n* — skelet
organon, organi, n — a'zo

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	organon	organa
Genetivus	organi	organorum
Accusativus	organon	organa
Ablativus	organo	organi

To'rtinchidan, Neutrum roddagi otlar Nom. Sing.da **-ma**, Gen. Sing.da **-atis** qo'shimchasi bilan tugaydi va uchinchi guruhda turlanuvchi Neutrum roddagi otlar kabi turlanadi, lekin Dativus et Ablativus Plur.da **-ibis** o'rniga **-is** qo'shimchasi qo'yiladi:

Eczema, eczematis, n — chilla yara,
gramma, grammatis — gramm,
systema, systematis, n — sistema.

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	gramma	grammata
Genetivus	grammatis	grammatum
Dativus	grammati	grammatis
Accusativus	gramma	grammata
Ablativus	grammate	grammatis

Beshinchidan, **-is** qo'shimchali yunon tilidan kirib kelgan teng murakkab so'zlar uchinechi guruhda turlanuvchi Masculinum yoki Femininum rodlariga tegishli otlarning kelishik qo'shimchalarini oladi. lekin quyidagi turlanish xususiyatlariga ega:

Accusativus Singularis da **-em** (o'rniga — **im**)
Dativus Singularis da **-e** (o'rniga **-i**)
Genetivus Pluralis da **-um** (o'rniga — **ium**)
 qo'yiladi
Basis, basis, f — asos
crisis, crisis, f — kasallik jarayonining keskin o'zgarishi.

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	basis	bases
Genetivus	basis	basium
Dativus	basi	basibus
Accusativus	basim	bases
Ablativus	basi	basibus

55-§. QUYIDAGI YUNONCHA ATAMALARNI YOD OLING!

M: *ancon, onis, m* — tirsak
angeion, ii, n — tomir
arthron, i, n — bo'g'im
carcinoma, atis, n — xavfli o'sma, rak
cele, es, f — dabba, churra tushishi
colon, i, n — yo'g'on ichakning ko'richakdan to'g'ri ichak-kacha bo'lgan qismi

<i>cystis, is, f</i>	— pufak
<i>derma, atis, n</i>	— teri
<i>desma, atis, n</i>	— bog'lam
<i>encephalon, i, n</i>	— bosh miya
<i>enteron, i, n</i>	— ichak
<i>ganglion, ii, n</i>	— tugun
<i>genion, i, n</i>	— iyak, engak
<i>haema, atis, n</i>	— qon (tomir ichagidagi)
<i>kephale, es, f</i>	— bosh
<i>keratoma, atis, n</i>	— epidermis, shox qavat-ning o'sma kabi qalinlashuvi
<i>lipoma, atis, n</i>	— yog'li o'sma
<i>myxoma, atis, n</i>	— shilliq parda sarkomasi
<i>neuron, i, n</i>	— asab
<i>osteon, i, n</i>	— suyak
<i>pyon, i, n</i>	— yiring
<i>rhapfe, es, f</i>	— chok
<i>soma, atis, n</i>	— gavda, tana
<i>stoma, atis, n</i>	— og'iz
<i>zygoma, atis, n</i>	— yonoq
S—M: <i>anamnesis, is, f</i>	— xotirlash, eslash
<i>angiostenosis, is, f</i>	— tomirning torayishi
<i>apostema, atis, n</i>	— chi pqon. sizlog'ich
<i>ascites, ae, f</i>	— assit, qoringa suv yig'ilishi
<i>brachypnoë, ës, f</i>	— nafas olishning qisqaligi
<i>cardiorrhexis, is, f</i>	— yurak faoliyatining to'xtashi (yorilishi)
<i>cataplasma, atis, n</i>	— issiq suvga ho'llangan doka bog'lam yo'li bilan davolash
<i>cholelithiasis, is, f</i>	— o't xaltachasiga tosh yig'ilishi
<i>cholestasis, is, f</i>	— o'tning to'planib qolishi
<i>diabetes, ae, f</i>	— qand kasalligi
<i>diastole es, f</i>	— yurakning kengayishi
<i>dyspnoë ës, f</i>	— nafas qisishi. harsillash
<i>enteroptosis, is, f</i>	— ichaklarning pastga qarab siljishi

<i>epidermis, is, f</i>	— teri ustki qavati
<i>gastroptosis, is, f</i>	— me'daning pastga qarab siljishi
<i>haemoptoë, ës, f</i>	— nafas yo'li orqali qon tupurish
<i>hydrohepatosis, is, f</i>	— jigarda suyuqlik to'p-lanishi
<i>iridorrhexis, is, f</i>	— ko'z rangdor pardasi-ning yorilishi
<i>kyesis, is, f</i>	— homiladorlik
<i>neurosis, is, f</i>	— asab kasalligi
<i>odontopoësis, is, f</i>	— tish chiqishi
<i>psychosis, is, f</i>	— ruhiy kasallik
<i>systole, es, f</i>	— yurakning bir me'yorda qisqarishi
<i>uropoësis, is, f</i>	— siydik hosil bo'lishi
<i>xeroderma, atis, n</i>	— terining quruqlashishi
M—F: <i>Aloë, ës, f</i>	— aloy, sabur
<i>astma, atis, n</i>	— nafas bo'g'ilishi
<i>basis, is, f</i>	— asos, negiz
<i>chole, es, f</i>	— o't (safro)
<i>clysma, atis, n</i>	— huqna, to'g'ri ichakni yuvish
<i>crisis, is, f</i>	— kasallik jarayonining keskin o'zgarishi
<i>dosis, is, f</i>	— miqdor o'lchovi
<i>diagnosis, is, f</i>	— kasallikni aniqlash
<i>gargarisma, atis, n</i>	— chayqash
<i>hypnosis, is, f</i>	— uxlatuvchi
<i>mensis, is, f</i>	— oy
<i>narcosis, is, f</i>	— sun'iy uyqu holati
<i>pharmacon, i, n</i>	— dori-darmon
<i>phyton, i, n</i>	— o'simlik
<i>pneumon, i, n</i>	— o'pka
<i>praxis, is, f</i>	— amaliyot
<i>psyche, es, f</i>	— ruh
<i>pyrosis, is, f</i>	— jig'ildon qaynashi, zarda
<i>rhizoma, atis, n</i>	— ildizpoya
<i>symptoma, atis, n</i>	— belgi, alomat
<i>systema, atis, n</i>	— sistema, tarmoq



102-mashq. Yunoncha atamalarini o'zbekcha muqobili bilan moslashtiring. *M.*

<i>Angeion</i>	— suyak
<i>arthron</i>	— yiring
<i>carcinoma</i>	— og'iz
<i>cele</i>	— bosli
<i>colon</i>	— asab
<i>cystis</i>	— tomir
<i>derma</i>	— bo'g'im
<i>encephalon</i>	— xavfli o'sma
<i>enteron</i>	— dabba
<i>ganglion</i>	— yo'g'on ichakning ko'richakdan to'g'ri ichak- kacha bo'lgan qismi
<i>genion</i>	— pufak
<i>haema</i>	— leri
<i>kephale</i>	— ichak
<i>neuron</i>	— bosh miya
<i>osteon</i>	— tugun
<i>pyon</i>	— iyak, engak
<i>stoma</i>	— qon



103-mashq. Quyidagi atamalarni mazmuniga qarab o'z o'rniga qo'ying. *S—M.*

<i>Anamnesis</i>	— asab kasalligi
<i>angiostenosis</i>	— terining quruqlashishi
<i>apostema</i>	— siydik hosil bo'lishi
<i>ascites</i>	— yurakning bir me'yorda qis- qarishi
<i>cardiorrhexis</i>	— ruhiy kasallik
<i>cataplasma</i>	— xotirlash
<i>diabetes</i>	— o'tning to'planib qolishi
<i>diastole</i>	— tomirning torayishi
<i>dyspnoe</i>	— yurak faoliyatining to'xtashi
<i>neurosis</i>	— issiq suvga ho'llangan doka
<i>psychosis</i>	— bog'lash yo'li bilan davolash
<i>cholestasis</i>	— qand kasalligi
<i>systole</i>	— yurakning bir me'yorda ken- gayishi
<i>uropoësis</i>	— nafas qisishi
<i>xeroderma</i>	— chipqon
	— istisqo, qoringa suv yig'ilishi



104-mashq. Quyidagi atamalarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M—F.

<i>Aloë</i>	— ildizpoya
<i>asthma</i>	— belgi
<i>basis</i>	— chayqash
<i>chole</i>	— uxlatuvchi
<i>chysma</i>	— dori-darmon
<i>dosis</i>	— o'pka
<i>diagnosis</i>	— ruh
<i>gargarisma</i>	— aloy
<i>hypnosis</i>	— nafas bo'g'ilishi
<i>pharmakon</i>	— asos, negiz
<i>narcosis</i>	— o't (safro)
<i>phyton</i>	— to'g'ri ichakni yuvish
<i>psyche</i>	— miqdor o'lchovi
<i>rhizoma</i>	— kasallikni aniqlash
<i>symptoma</i>	— sun'iy uyqu holati
<i>pneumon</i>	— o'simlik



105-mashq. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling va *Nom. et Gen. Singularus* hamda *Plur. da* turlang.

- M: tirsak, xavfli o'sma, bog'lam, qon, yog'li o'sma, gavda, yonoq.
- S—M: nafas olishning qisqaligi, o't pufagiga tosh yig'ilishi. Ichakning pastga qarab siljishi, terining ustki qavati, me'daning pastga qarab siljishi, jigarda suyuqlik to'planishi, ko'z rangdor pardasining yorilishi.
- M—F: aloy, o't (safro), kasallik jarayonining keskin o'zgarishi (miqdor o'lchovi), kasallikni aniqlash, chayqash, dori-darmon, o'pka, ruh.


Namuna:

Guruh	Kod	Nom.Sing.	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
III	f	dosis	dosis	doses	dosium




106-mashq. Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

- rete (venosus, a, um) — rhizoma (amarus, a, um)
- os (latus, a, um) — rete (arteriosus, a, um)
- diagnosis (certus, a, um) — auris (medius, a, um)
- systema (nervosus, a, um) — oedema (malignus, a, um)

 **107-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.
M—F.

<i>basis cranii</i>	— canalis dentis
<i>crisis morbi</i>	— rhizoma cum radicis
<i>radix dentis</i>	— symptomata gastricis
<i>anamnesis morbi</i>	— rhizoma Tormentillae

 **108-mashq.** Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

- Recipe: Emulsi seminum Juglandis 180 ml
Da. Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal.
- Recipe: Decocti rhizomatis Tormentillae ex 6.0—150 ml
Sirupi Sacchari 10 ml
Misc. Da.
Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Recipe: Pulveris Glycyrrhizae compositi 20.0
Da.
Signa: 1 choy qoshiqdan kuniga 2 marta.



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Quilibet fortunae suae faber.

Har kim o'z baxtini o'zi yaratadi.

Potius mori quam foedari.

Sharmanda bo'lguncha, o'lgan yaxshidir.

Nihil est tam populare, quam bonitas.

Xalq yaxshilikni yuksak qadrlaydi.

Qui non laborat, non manducet.

Ishlamagan — tishlamaydi.

Aliis inserviando consumor.

O'zgalarga nur berib, o'zim ado bo'laman.

56-§. IKKINCHI GURUH SIFATLARI

Ikkinchi guruh sifatlari uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalarida turlanadi. Ikkinchi guruh sifatlari uchta kichik guruhga bo'linadi:

1. (Teng murakkab) uch qo'shimchali sifatlarda har bir rod o'zining qo'shimchasiga ega bo'ladi:

Masculinum	rodi	-er, aser (m)	— o'tkir
Femininum	rodi	-is, acris (f)	— o'tkir
Neutrum	rodi	-e, acre (n)	— o'tkir

Bu guruhning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

Silvester, tris, tre — o'rmonga oid

2. (Teng murakkab) ikki qo'shimchali sifatlarda Masculinum va Femininum rodi **-is**, medicinalis — tibbiy. Neutrum rodi **-e**, medicinale — tibbiy.

letalis, e — o'ldiruvchan

3. (Noteng murakkab) bir qo'shimchali sifatlarda uchala rod bir qo'shimchaga, ya'ni **-s**, **-x**, yoki **-g** qo'shimchalariga ega bo'lishi mumkin. Bunda lug'at shakli quyidagicha bo'ladi. Birinchi Nom. Sing. shakli to'liq yoziladi, keyin Gen. Sing. ning kelishik qo'shimchasi ko'rsatiladi:

Simplex, icis — oddiy

recens, ntis — yangi chiqqan, uzilgan, buzilmagan

par, paris — bir xil, baravar, teng

teres, etis — dumaloq, soqqasimon

57-§. IKKINCHI GURUH SIFATLARINING YASALISHIDA QO'LLANILADIGAN SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

1. **-ilis, -bilis** so'z yasovchi qo'shimchalari sifatning majhullik xususiyatini anglatadi:

facilis — yengil, *facere* — qilmoq, bajarmoq,

mobilis — yengil, harakatchan, *movere* — harakatlanmoq,

sanabilis — davolanishi mumkin, *sanare* — davolamoq,

flagilis — mo'rt, sinuvchan, *frangere* — sinmoq,

volatilis — uchuvchan, *volere* — uchmoq

fe'llaridan hosil qilingan.

2. **-alis, -aris** so'z yasovchi qo'shimchalari sifatning biror narsaga qarashlilikini, biror narsaga bog'liqligini yoki biror narsadan kelib chiqqanligini ko'rsatishi mumkin:

dorsalis — orqa tomonga oid, *dorsum* — orqa tomon

lateralis — yonboshga tegishli, *latus, lateris* — yonbosh

palmaris — kaftga oid, *palma* — kaft

plantaris — oyoq kaftiga oid, *planta* — oyoq kafti

so'zlaridan hosil qilingan.

Tibbiyotda qo'llaniluvchi sifatlarning asosiy qismini ikkinchi guruh sifatlari tashkil qiladi.

58-§. QUIYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!

M:	<i>Biceps, bicipitis</i>	— ikki boshli
	<i>cerebralis, e</i>	— miyaga oid
	<i>cervicalis, e</i>	— bo'yinga tegishli
	<i>costalis, e</i>	— qovurg'aga qarashli
	<i>intercostalis, e</i>	— qovurg'alar orasiga oid
	<i>cranialis, e</i>	— kalla suyagiga tegishli
	<i>dorsalis, e</i>	— orqa tomonga qarashli
	<i>ethmoidalis, e</i>	— panjarasimon
	<i>facialis, e</i>	— yuzga (betga) tegishli
	<i>lateralis, e</i>	— yonboshga oid
	<i>nasalis, e</i>	— burunga oid
	<i>occipitalis, e</i>	— ensaga tegishli
	<i>renalis, e</i>	— buyrakka qarashli
	<i>sacralis, e</i>	— dumg'azaga oid
	<i>sphenoidalis, e</i>	— ponasimon
	<i>spinalis, e</i>	— orqa o'simtaga oid
	<i>temporalis, e</i>	— chakkaga oid
	<i>vertebralis, e</i>	— umurtqaga tegishli
S—M:	<i>articularis, e</i>	— bo'yinga oid
	<i>ascendens, entis</i>	— ko'tariluvchi
	<i>descendens, entis</i>	— tushuvchi
	<i>brachialis, e</i>	— yelkasimon
	<i>brevis, e</i>	— qisqa
	<i>caudalis, e</i>	— quyruqqa oid
	<i>centralis, e</i>	— markaziy
	<i>distalis, e</i>	— markazdan (gavdadan) uzoq
	<i>femoralis, s</i>	— songa tegishli
	<i>frontalis, e</i>	— manglayga oid
	<i>intervertebralis, e</i>	— umurtqa oralig'iga tegishli
	<i>intramuscularis, e</i>	— mushak ichiga qarashli
	<i>lacrimalis, e</i>	— ko'z yoshiga oid
	<i>lingualis, e</i>	— tilsimon
	<i>sublingualis, e</i>	— til ostiga tegishli
	<i>longitudinalis, e</i>	— uzunasiga
	<i>lumbalis, e</i>	— belga oid
	<i>muscularis, e</i>	— mushakka tegishli

	<i>ovalis, e</i>	— tuxumsimon shakli
	<i>parietalis, e</i>	— bosh (suyak)ning tepa qismiga oid
	<i>proximalis, e</i>	— yuqori kamarga yaqin qism
	<i>pulmonalis, e</i>	— o'pkaga qarashli
	<i>radialis, e</i>	— bilakka oid
	<i>reconvalescens, tis</i>	— sog'aytiruvchi, sog'a-yuvchi
	<i>sternoclavicularis</i>	— to'sh-o'mrovga tegishli
	<i>superfacialis, e</i>	— yuzaki
	<i>teres, etis</i>	— dumaloq, aylanasimon
	<i>triceps, itis</i>	— uch boshli
	<i>ventricularis, e</i>	— me'da
M—F:	<i>aequalis, e</i>	— teng baravar
	<i>communis, t</i>	— umumiy
	<i>dulcis, e</i>	— shirin
	<i>letalis, e</i>	— o'ldiruvchan
	<i>majalis, e</i>	— may oyiga tegishli
	<i>medicinalis, e</i>	— tibbiy
	<i>naturalis, e</i>	— tabiiy
	<i>nitens, ntis</i>	— yaltiroq
	<i>Viride (is) nitens</i> (ntis)	— brilliant yashili
	<i>officinalis, e</i>	— dorixonaga oid
	<i>pectoralis, e</i>	— ko'krakka tegishli
	<i>simplex, icis</i>	— oddiy
	<i>solubilis, e</i>	— eruvchan
	<i>enterosolubilis, e</i>	— ichakda eruvchi
	<i>subtilis, e</i>	— mayda
	<i>talis, e</i>	— shunaqa, o'xshash
	<i>vaginalis, e</i>	— qinga oid
	<i>vernalis, e</i>	— bahorgi
F:	<i>adivans, ntis</i>	— yordamchi, ikkinchi darajali
	<i>arvensis, e</i>	— dalaga oid
	<i>chinensis, e</i>	— xitoycha
	<i>consiliuens, ntis</i>	— dori shaklini hosil qiluvchi
	<i>corrigens, ntis</i>	— tuzatuvchi
	<i>expectorans, ntis</i>	— balg'am ko'chiruvchi
	<i>glacialis, e</i>	— muzsimon

<i>laxans, ntis</i>	— surgi, ichni yumshatuvchi
<i>mollis, e</i>	— yumshoq
<i>originalis, e</i>	— asl nusxa
<i>paluster, tris, tre</i>	— botqoqqa oid
<i>pinguis, e</i>	— yog'li, moyli
<i>purgans, ntis</i>	— surgi
<i>rectalis, e</i>	— to'g'ri ichakka tegishli
<i>recens, ntis</i>	— yangi chiqqan, buzilmagan, aynimagan
<i>silvester, tris, tre</i>	— o'rmonga oid
<i>tricolor, oris</i>	— uch xil rangli
<i>utilis, e</i>	— foydali
<i>vegetabilis, e</i>	— o'simlikka oid
<i>viridis, e</i>	— yashil, ko'katsimon
<i>volatilis, e</i>	— uchuvchan
<i>vulgaris, e</i>	— oddiy

59-§. LOTINCHA-YUNONCHA MA'NODOSH ATAMALAR

Lotincha	Yunoncha	O'zbekcha
dulcis	glyc	shirin
lacrimalis	dacri	ko'z yoshiga oid
vegetabilis	phyton	o'simlikka oid
naturalis	physis	tabiiy
lingualis	glossa	tilsimon
mollis	malac	yumshoq
ocularis	ophthalmos	ko'zga oid
pulmonalis	pneumon	o'pkaga tegishli
vertebralis	spondylos	umurtqaga oid

60-§. IKKINCHI GURUH SIFATLARINING BIRINCHI, IKKINCHI HAMDA UCHINCHI GURUHLARDA TURLANUVCHI OTLAR BILAN RODDA, SONDA VA KELISHIKLARDA MOSLASHUVI

Ikkinchi guruh sifatлари birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarda turlanuvchi otlar bilan rodda, sonda va kelishiklarda moslashadi, lekin kelishiklar bo'yicha turlanganda qo'shimchalari har xil bo'ladi. Masalan:

1. *Tinctura simplex* — oddiy spirtli eritma,
tinctura, ae, f — spirtli eritma,
simplex, icis — oddiy

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	tinctura simplex	tincturae simplice
Genetivus	tincturae simplicis	tincturarum simplicium
Accusativus	tincturam simplicem	tincturas simplices
Ablativus	tinctura simplici	tincturis simplicibus

2. *Morbus gravis* — og'ir kasallik,
morbus, i, m — kasallik,
gravis, e — og'ir.

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	morbu gravis	morbi grave
Genetivus	morbi gravis	morbo im gravium
Accusativus	morbum gravem	morbos graves
Ablativus	morbo gravi	morbis gravibus

3. *Pars aequalis* — teng qism,
pars, partis, f — qism,
aequalis, e — teng.

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	pars aequalis	partes aequales
Genetivus	partis aequalis	partium aequalium
Accusativus	partem aequalem	partes aequales
Ablativus	parte aequali	partibus aequalibus

4. *Semen dulce* — shirin urug'
semen, inis, n — urug'
dulcis, e — shirin

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	semen dulce	semina dulcia
Genetivus	seminis dulcis	seminum dulcium
Accusativus	semen dulce	semina dulcia
Ablativus	semine dulci	seminibus dulcibus

109-mashq. Sifatlarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M.

- Cerebralis* — orqa o'simtaga oid
cervicalis — chakkaga tegishli
costalis — umurtqaga oid
cranialis — buyrakka oid
intercostalis — miyaga oid
dorsalis — bo'yinga oid
facialis — qovurg'aga qarashli
nasalis — qovurg'alar orasiga oid
occipitalis — kalla suyagiga tegishli

<i>renalis</i>	— orqaga qarashli
<i>sacralis</i>	— yuzga tegishli
<i>spinalis</i>	— burunga oid
<i>temporalis</i>	— ensaga tegishli
<i>vertebralis</i>	— dumg'azaga oid



110-mashq. Quyidagi sifatlarni mazmuniga qarab o'z o'rniga qo'ying. M—F.

<i>Articularis</i>	— me'dasimon
<i>ascendens</i>	— bilakka oid
<i>descendens</i>	— o'pkaga qarashli
<i>brachialis</i>	— bosh (suyak)ning tepa qismiga oid
<i>candalis</i>	— bo'g'inga oid
<i>centralis</i>	— ko'tariluvchi
<i>femoralis</i>	— tushuvchi
<i>frontalis</i>	— yelkasimon
<i>intervertebralis</i>	— quyruqqa oid
<i>intramuscularis</i>	— markaziy
<i>lacrimalis</i>	— songa tegishli
<i>lingualis</i>	— manglayga oid
<i>lumbalis</i>	— mushak ichiga qarashli
<i>muscularis</i>	— umurtqa oraliq'iga tegishli
<i>parietalis</i>	— ko'z yoshiga oid
<i>pulmonalis</i>	— tilsimon
<i>radialis</i>	— belga oid
<i>ventricularis</i>	— mushakka tegishli



111-mashq. Lotincha atamalarning o'zbekcha muqobilini toping. M—F.

<i>aequalis</i>	— qinga oid
<i>communis</i>	— shunaqa
<i>dulcis</i>	— bahori
<i>letalis</i>	— mayda
<i>medicinalis</i>	— teng
<i>naturalis</i>	— shirin
<i>officinalis</i>	— o'ldiruvchan
<i>pectoralis</i>	— tibbiy
<i>simplex</i>	— tabiiy
<i>solubilis</i>	— dorixonaga oid
<i>subtilis</i>	— oddiy
<i>talis</i>	— eruvchan
<i>vaginalis</i>	— ko'krakka tegishli
<i>vernalis</i>	— umumiy



112-mashq. Quyidagi atamalarni lotincha muqobiliga qarab joylashtiring. F.

<i>Adiuans</i>	— o'simlikka oid
<i>constituens</i>	— yashil
<i>corrigens</i>	— uchuvchan
<i>expectorans</i>	— foydali
<i>glacialis</i>	— to'g'ri ichakka tegishli
<i>laxans</i>	— yordamchi
<i>mollis</i>	— dori shakli hosil qiluvchi
<i>originalis</i>	— uzatuvchi
<i>pinguis</i>	— balg'am ko'chiruvchi
<i>rectalis</i>	— muzsimon
<i>utilis</i>	— surgi
<i>vegetabilis</i>	— yumshoq
<i>viridis</i>	— asl nusxa
<i>volatilis</i>	— yog'li




113-mashq. Quyidagi sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling va lug'at shaklida yozing.

- M: ikki boshli, qovurg'alar orasiga oid, panjarasimon, dung'azaga oid, ponasimon chakkaga tegishli, orqaga (o'simtaga) oid, umurtqaga oid.
- S—M: yelkasimon, qisqa, markazdan uzoq, til ostiga tegishli, uzunasiga, shakli tuxumsimon, yuqori kamarga yaqin qism.
- M—F: may oviga tegishli, yaltiroq, brilliant yashili, oddiy, ichakda eruvchi, qinga oid, mayda.
- F: dalaga oid, xitoycha, botqoqqa oid, surgi, buzilmagan, o'rmonga oid, uch xil rangli, o'simliksimon, oddiy.




114-mashq. Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Foramen (vertebralis, e)	vena (temporalis, e)
intestinum (tenuis, e)	foramen (ovalis, e)
musculus (brevis, e)	pars (aequalis, e)
papilla (lacrimalis, e)	aether (medicinalis, e)
glandula (lacrimalis, e)	pulvis (simplex)
pars (abdominalis, e)	palatum (mollis, e)
vena (centralis, e)	

 **115-mashq.** *Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*
M—F.

Divide in partes aequales, da tales doses numero 10, pulveres simplicis, emplastrum simplex, aetner medicinaliis, viride nitens, infusum herbae, Adonidis vernalis, Sulfacylum solubile, elixir pectorale, extractum Pini silvestris naturale, herba Violae tricoloris recens, acidum Aceticum glaciale, Ricinus communis, olea vegetabilia, succus baccarum recens, rhizoma cum radicibus Valerianae recens.

 **116-mashq.** *Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*
M—F.

Recipe: Succu gastrici naturalis 200 ml

Da in lagena originali.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal.

Recipe: Solutionis Viridis nitentis aquosae 1 % 20 ml

Da. Signa: Og'izga surtish uchun.

Recipe: Tincturae Convallariae majalis

Tincturae Valerianae simplicis ana 7,5 ml

Adonisidi 15 ml

Misce. Da

Signa: 20 tomchidan bir marta ichish uchun.

Recipe: Olei Terebinthinae

Linimenti volatilis ana 20,0

Misce. Da.

Signa: Surtish uchun.

Recipe: Coffeini-natrii benzoatis 1,0

Natrii bromidi 3,0

Tincturae Schizandrae chinensis 6 ml

Aquae destillatae 200 ml

Misce. Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Recipe: Acidi salicylici


Acidi lactici ana 6,0

Acidi acetici glacialis 3,0

Collodii ad 20,0

Misce. Da.

Signa: Qavargan joyga surtish uchun.

 **117-mashq.** *Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.* M—F.

Ol: Bahorgi adonis o'ti damlamasidan 180 ml

Natriy bromiddan 6,0

- Kodein fosfatdan 0,2
Aralashtir. Ber.
Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Ol: 20 % li sulfatsilning eruvchan surtmasidan 20 ml
Ber. Belgila: Burunga surtish uchun.
- Ol: Xitoy limonnigi kukunidan 0,5
Shunday kukundan 12 dona ber.
Belgila: 1 donadan kuniga 2 mahal.
- Ol: Gulxayri ildizi qaynatmasidan 180 ml
Ko'krak eleksiri
Novshadil spirti
Natriy gidrokarbonatdan teng miqdorda 3,5
Dionindan 0,15
Aralashtir. Ber.
Belgila: 1 osh qoshiqdan har 3 soatda ichish uchun.

❓ Mavzularga oid savollar

1. Ikkinchi guruh sifatlari necha guruhga bo'linadi?
2. Ikkinchi guruh sifatlarining lug'at shakli qanday ifodalanadi?
3. Uch qo'shimchali, ikki qo'shimchali va bir qo'shimchali sifatlarni tushuntirib bering.
4. Sifatning majhullik xususiyatini anglatuvchi qanday so'z yasovchi qo'shimchalarni bilasiz?
5. Sifatning biror narsaga bog'liqligini, qarashliligini yoki kelib chiqishini ko'rsatuvchi qanday so'z yasovchi qo'shimchalarni bilasiz?
6. Lotincha-yunoncha ma'nodosh sifatlarni bayon eting.



! Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Alit lectio ingenium.

O'qish aqlni rivojlantiradi.

Contraria contrariis curantur.

Zaharning davosi — ziddi-zahar.

Medice, cura te ipsum.

Shifokor, muolajani o'zingdan boshla.

Nil desperandum.

Hech qachon umidsiz bo'lma.

Non bis in idem.

Bir gunoh uchun ikki marta jazolama.

61-§. HOZIRGI ZAMON ANIQ SIFATDOSHI

Ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlariga ega bo'lgan ayrim fe'll shakllari sifatdosh deb ataladi. Hozirgi zamon aniq sifatdoshini hosil qilish uchun I va II tuslanishidagi fe'llarning negiziga **-ns**, III va IV tuslanishdagi fe'llarning negiziga **-ens** qo'shimchasini qo'shish kifoya. Masalan:

- I sanare — davolamoq, sanans — davolovchi,
- II miscere — aralashtirmoq, miscens — aralashtiruvchi,
- III dividere — bo'lmoq, dividens — bo'luvchi,
- IV audire — eshitmoq, audiens — eshituvchi.

62-§. QUYIDAGI SIFATDOSHLARNI XOTIRADA SAQLANG!

M:	<i>Abducens</i>	— uzoglashtiruvchi
	<i>afferens</i>	— keltiruvchi
	<i>deferens</i>	— chiqaruvchi
	<i>efferens</i>	— olib chiquvchi
	<i>ascendens</i>	— ko'tariluvchi
	<i>descendens</i>	— tushuvchi
	<i>comitans</i>	— yo'ldoshlik etuvchi, kuzatuvchi
	<i>communicans</i>	— birlashtiruvchi
	<i>fructuans</i>	— tebranib (liqillab) turuvchi
	<i>opponens</i>	— qarama-qarshi qo'yuvchi
	<i>perforans</i>	— teshuvchi (yo'qoluvchi)
	<i>recurrens</i>	— qaytuvchi
	<i>accelerans</i>	— tezlatuvchi
	<i>permanens</i>	— doimiy
	<i>prominens</i>	— chiqib turuvchi
	<i>reuniens</i>	— qo'shuvchi
	<i>limitans</i>	— chegaralovchi
S—M:	<i>migrans</i>	— adashgan
	<i>dissecans</i>	— yorib chiquvchi
	<i>alternans</i>	— o'zgaruvchi
	<i>deficiens</i>	— yetishmovchi, yo'qoluvchi
	<i>differens</i>	— har xil
	<i>deformans</i>	— shakli o'zgaruvchi
	<i>abscondens</i>	— yiringlovchi
	<i>reccurens</i>	— qaytuvchi
	<i>intermittens</i>	— takrorlanuvchi

<i>remittens</i>	— soʻnuvchi
<i>intercurrents</i>	— oraliq, oradagi
<i>latens</i>	— yashirin
<i>penetrans</i>	— tarqaluvchi, yoyiluvchi
<i>perforans</i>	— teshuvchi
<i>serpens</i>	— sudraluvchi (yoyiluvchi)
<i>tremens</i>	— titratuvchi, qaltiratuvchi
<i>imminens</i>	— xavfli, tahlikali, dahshatli
<i>agitans</i>	— harakatlanuvchi
<i>delurans</i>	— bosinqirash
<i>convalescens</i>	— sogʻayuvchi
<i>reconvalescens</i>	— sogʻayuvchi
<i>recipiens</i>	— oluvchi
<i>iuvens</i>	— yordam beruvchi, koʻmaklashuvchi
<i>patiens</i>	— azob chekuvchi, kasallik tufayli azoblanuvchi
F: <i>laxans</i>	— yumshatuvchi
<i>purgans</i>	— tozalovchi
<i>excitans</i>	— uygʻotuvchi
<i>relaxans</i>	— susaytiruvchi
<i>adiuvans</i>	— yordamchi
<i>corrigens</i>	— tuzatuvchi
<i>constituens</i>	— shakllantiruvchi



118-mashq. Lotincha sifatdoshlarni oʻzbekchasi bilan moslashtiring. M.

<i>abducens</i>	— qoʻshuvchi
<i>afferens</i>	— chiqib turuvchi
<i>prominens</i>	— qaytuvchi
<i>comitans</i>	— teshuvchi
<i>communicans</i>	— uzoqlashtiruvchi
<i>perforans</i>	— keltiruvchi
<i>recurrens</i>	— kuzatuvchi
<i>reuniens</i>	— birlashtiruvchi



119-mashq. Quyidagi sifatdoshlarni oʻzbekcha muqobiliga qarab oʻz oʻrniga qoʻying. S—M.

<i>Migrans</i>	— bosinqirash
<i>dissecans</i>	— xavfli
<i>alternans</i>	— yoyiluvchi
<i>deformans</i>	— teshuvchi
<i>abscendens</i>	— tarqaluvchi

<i>intermittens</i>	— adashgan (adashuvchi)
<i>remittens</i>	— shakli o'zgaruvchi
<i>penetrans</i>	— yorib chiquvchi
<i>perforans</i>	— o'zgaruvchi
<i>serpens</i>	— yiringlovchi
<i>delurans</i>	— takrorlanuvchi
<i>imminens</i>	— so'navchi



120-mashq. Quyidagi atamalarning o'zbekchasini lotincha muqobiliga qarab joylashtiring. F.

<i>laxans</i>	— yordamchi
<i>purgans</i>	— shakllantiruvchi
<i>excitans</i>	— susaytiruvchi
<i>relaxans</i>	— yumshatuvchi
<i>adiuvans</i>	— tozalovchi
<i>corrigens</i>	— uyg'otuvchi
<i>constituens</i>	— tuzatuvchi



121-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

S—M:

ren migrans, absessus dissecans, pulsus alternans, pulsus deficiens, pulsus defferens, arthritis deformans, pneumonia absconens, typhus recurrens, febris intermittens, febris remittens, mobus intercurrents, ulcus penetrans, ulcus perforans, ulcus serpens, delirium tremens, glaucoma imminens, paralysis M: agitans, diagnosis ex iuventibus nervus abducens, vasa afferentia, vasa efferentia, ductus deferens, aorta ascendens, aorta descendens, arteria comitans, communicantes, costa fluctuans, musculus opponens, arteriae perforantes, nervus recurrens, nervi accelerantes, dentes permanentes, vertebro seytima prominens, ductus reuniens, laminae limitantes.

F:

remedium laxans, remedium purgans, remedium excitans, remedia myorelaxantia, remedium adiuvens, remedium corrigens, remedium constituens.

63-§. TO'RTINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR

Otlarning to'rtinchi guruhiga *Masculinum* va *Neutrum* roddagi otlar kiradi. *Masculinum* roddagi otlar *Nom. Sing.* da **-us** qo'shimchasiga, *Neutrum* roddagi otlar esa *Nom. Sing.* da **-u** qo'shimchasiga

ega. Ikkala roddagi otlar Gen. Sing. da **-us** kelishik qo'shimchasi bilan turlanadi va lug'at shakli quyidagicha bo'ladi. Masalan:

Spiritus, us, m — spirt,
genu, us, n — tizza.

Masculinum va *Neutrum* rodlaridagi otlar kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Casus	Singularis		Pluralis	
	Masculinum	Neutrum	Masculinum	Neutrum
Nominativus	—us	—u	—us	—ua
Genetivus	—us	—us	—uum	—uum
Dativus	—ui	—u	—ibus	—ibus
Accusativus	—um	—u	—us	—ua
Ablativus	—u	—u	—ibus	—ibus
Nominativus	fructus	cornu	fruct—us	corn—ua
Genetivus	fruct—us	corn—us	fruct—uum	corn—uum
Accusativus	fruct—um	corn—u	fruct—us	corn—ua
Ablativus	fruct—u	corn—u	fruct—ibus	corn—ibus

Qoidadan tashqari holat

Quyidagi otlar Femininum rodiga tegishli:

manus, us, f — qo'l, kaft
Quercus, us, f — eman

64-§. TO'RTINCHI GURUH TURLANUVCHI OTLARNING YASALISHIDA QO'LLANUVCHI SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

-tus yoki **-sus** so'z yasovchi qo'shimchalari fe'lining supin shaklidagi **-tum**, **-xum** qo'shimchasi o'rniga qo'yiladi va sezishni, holatni yoki harakatni ifodalaydi. Masalan:

auditus — eshitish, *auditum* (fe'ning supin shakli),

audire — eshitmoq,

affluxus — oqish, *affluxum* fe'lining supin shakli,

affluere — oqmoq,

effectus — harakat, *effectus* fe'lining supin shakli,

efficere — qilmoq,

gustus — maza, ta'm, *gustum* (fe'ning supin shakli),

gustare — ta'mini tatimoq.

olfactus — hidlash, *olfactum* fe'lining supin shakli,

olfacere — hidlamoq.


- pulsus* — tomir urishi, pulsum fe'lining supin shakli,
pellere — itarmoq,
partus — tug'ish, partum fe'lining supin shakli,
parere — tug'moq,
plexus — chigal, plexum fe'lining supin shakli,
plectere — to'qimoq,
status — holat, ahvol, statum fe'lining supin shakli,
stare — turmoq,
tactus — paypaslab his etish, tactum fe'lining supin shakli,
tangere — tegmoq,
visus — ko'rish, visum fe'lining supin shakli,
videre — ko'rmoq.
sensus — sezish, sensum fe'lining supin shakli,
sentere — sezmoq,
habitus — tashqi ko'rinish, habitum fe'lining supin shakli,
habere — ega bo'lmoq.

65-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YOD OLING!


- | | | |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| M: | <i>Arcus, us, m</i>
<i>auditus, us, m</i>
<i>ductus, us, m</i>
<i>manus, us, f</i>
<i>plexus, us, m</i>
<i>processus, us, m</i>
<i>abcessus, us, m</i>
<i>collapsus, us, m</i>

<i>defectus, us, m</i>
<i>exitus, um, m</i>
<i>habitus, us, m</i>
<i>infarctus, us, m</i> | — yod, ravoq
— eshitish
— oqim
— qo'l, kaft
— chigal
— o'simta
— yiringlash
— yurak faoliyatining
keskin susayib ketishi
— nuqson, kamchilik
— natija
— tashqi ko'rinish
— infarkt, qon bilan
ta'minlanishning
to'xtashi natijasida
to'qimalarning o'lishi |
| S—M: | <i>status, us, m</i>
<i>afflexus, us, m</i>
<i>genu, us, n</i>
<i>effectus, us, m</i>
<i>meatus, us, m</i>
<i>sinus, us, m</i>
<i>textus, us, m</i>
<i>abortus, us, m</i> | — holat, ahvol
— oqish
— tizza
— harakat
— o'tish joyi, teshik
— bo'shliq, chuqurlik
— to'qima
— bola tashlash, mudda-
tidan ilgari tug'ish |

	<i>decubitus, us, m</i>	— yotaverishdan uvishib qolgan joy
	<i>partus, us, m</i>	— tug'ish
	<i>pulsus, us, m</i>	— tomir urishi
	<i>prolapsus, us, m</i>	— tushish
	<i>pruritus, us, m</i>	— qichish, qichima
	<i>tactus, us, m</i>	— paypaslab his etish
	<i>vomitus, us, m</i>	— qayt qilish
	<i>visus, us, m</i>	— ko'rish
M—F:	<i>cornu, us, n</i>	— muguz (shox)
	<i>fructus, us, m</i>	— meva
	<i>olfactus, us, m</i>	— hidlash
	<i>Quercus, us, f</i>	— eman
	<i>spiritus, us, m</i>	— spirt
	<i>sensus, us, m</i>	— sezish
	<i>usus, us, m</i>	— qo'llash, ishlatish


 **122-mashq.** Quyidagi atamalarni lotincha muqobiliga qarab joylashtiring. M.

<i>Arcus</i>	— tashqi ko'rinish
<i>auditus</i>	— natija
<i>ductus</i>	— infarkt, qon bilan ta'minlanishning to'xtashi natijasida to'qimalarning o'lishi
<i>manus</i>	— holat
<i>plexus</i>	— yoy, ravoq
<i>processus</i>	— eshitish
<i>abscessus</i>	— oqim
<i>collapsus</i>	— qo'l, kaft
<i>defectus</i>	— chigal
<i>exitus</i>	— o'simta
<i>habitus</i>	— yiringlash
<i>infarctus</i>	— nuqson
<i>status</i>	— yurak faoliyatining keskin susayib ketishi


 **123-mashq.** Lotincha otlarni o'zbek muqobili bilan moslashtiring. S—M.

<i>genu</i>	— paypaslab his etish, sezish
<i>effectus</i>	— qayt qilish
<i>meatus</i>	— tug'ish
<i>sinus</i>	— tomir urishi

<i>textus</i>	— qichish, qichima
<i>abortus</i>	— ko'rish
<i>decubitus</i>	— tushish
<i>partus</i>	— tizza
<i>pulsus</i>	— harakat
<i>prolapsus</i>	— o'tish joyi, teshik
<i>pruritus</i>	— bo'shliq
<i>tactus</i>	— to'qima
<i>vomicus</i>	— bola tashlash, mudda- tidan ilgari tug'ish
<i>visus</i>	— yotaverishdan uvishib qolgan joy

 **124-mashq.** Quyidagi atamalarning o'zbekchasini lotincha muqobiliga qarab o'z o'rniga qo'ying. M—F.


<i>Cornu</i>	— sezish
<i>fructus</i>	— qo'llash
<i>olfactus</i>	— spirt
<i>Quercus</i>	— muguz (shox)
<i>spiritus</i>	— meva
<i>sensus</i>	— hidlash
<i>usus</i>	— eman

 **125-mashq.** Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qilgan holda Nom. et Gen. Sing. hamda Plur.da turlang.

M:	qo'l, o'simta, yiringlash, nuqson.
S—M:	harakat, bola tashlash, tug'ish, tomir urishi, tushish.
M—F:	meva, hidlash, eman, spirt, qo'llash.

Namuna:

Guruh	Rod	Nom.Sing.	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
IV	m	fructus	fructus	fructus	fructuum

 **126-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

status naturalis, exitus letalis, arcus vertebrae, plexus cervicalis, ductus choledochus, abscessus pulmonis, infarctus myocardi, articulatio genus, arcus zygomaticus, processus spinosus, textus epithelialis, partus praematurus, spiritus aethylicus, decoctum corticis Quercus, sirupus fructuum Rosae, fructus Anisi, fructus Myrtilli, fructus Sorbi, spiritus dilutus.



127-mashq. Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

abscessus (gangraenosus, a, um)	plexus (venosus, a, um)
arcus (venosus, a, um)	processus (osseus, a, um)
exitus (letalis, e)	spiritus (aethylicus, a, um)
fructus (amarus, a, um)	usus (internus, a, um)
manus (sinister, tra, trum)	ductus (choledochus, a, um)



128-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

- Recipe: Spiritus aethylici 95 % 20 ml
Aquae pro inectionibus 100 ml
Misc. Da.
Signa: 10 ml. dan ko'k tomirga yuborish uchun.
- Recipe: Solutionis Iodi pro usu interno 15 ml
Da. Signa: 1—5 tomchidan sutga tomizib kuniga 3 marta ichilsin.
- Recipe: Sulfuris depurati 2,0
Glycerini
Spiritus camphorati ana 5,0
Aquae destillatae 60 ml
Misc. Da. Signa: Yuz terisiga surtish uchun.
- Recipe: Decocti fructuum Rhamni catharticae 200 ml
Sirupi Rhei 20 ml
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Recipe: Resorcini
Acidi carbolici ana 10,0
Thymoli 1,0
Boracis 2,0
Glycerini 15 ml
Spiritus Vini rectificati 50 ml
Aquae destillatae ad 500 ml
Misc. Da. Signa: Teri qichishishida surtish uchun.
- Recipe: Acidi salicylici 1,0
Spiritus aethylici 95 % 1,0
Collodii 8,0
Viridis nitentis 0,01
Misc. Da.
Signa. Sirtga qo'llash uchun.



129-mashq. Quyidagi reseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.
M—F.

Ol: 20 % li tozalangan uzum spirtidan 30 ml
30 % li glukoz eritmasidan 70 ml
Aralashtirilsin! Tozalansin! Berilsin!
Belgilansin: 20 ml. dan kuniga bir martadan bir
necha kun ko'k tomirga yuborish uchun.

Ol: Metil ko'kidan 0,5
70 % li etil spirtidan 50 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Teri kuygan paytda surtish uchun.

Ol: 33 % li suyultirilgan etil spirtidan 50 ml
Tozalansin! Berilsin!
Belgila: 20 ml. dan ko'k tomirga yuborish uchun.

Ol: Qatron
Yashil sovundan teng miqdorda 15,0
95 % li etil spirtidan 15 ml
Suyuq surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber. Belgila: Sovunli qatron spirti.



Mavzularga oid savollar

1. To'rtinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
2. Sifatlar to'rtinchi guruhda turlanuvchi otlar bilan qanday moslashadi?
3. To'rtinchi guruhda turlanuvchi otlarning yasashida qanday so'z yasovchi qo'shimchalar ishlatiladi?



Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Ut quisque est doctissimus, ita est modestissimus.

Kim aqli bo'lsa, u kamtarin hamdir.

Nota bene.

E'tibor ber.

Fer patienter onus, fac sapienter opus.

Qiyinchiliklarga chidagan holda, oqilona ish qil.

Festina lente.

Sekinlik bilan shoshil.

Suum cuique.

Har kimniki o'ziga.

66-§. BESHINCHI GURUHDA TURLANUVCHI OTLAR

Otlarning beshinchi guruhiga Femininum rodiga tegishli otlar kirib. Nom. Sing. da **-es**, Gen. Sing. da **esa**, **-ei** qo'shimchalariga ega bo'ladi. Lug'at shakli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Facies, ei, f — yuza, bet, yuz
res, rei, f — narsa, ish

Femininum roddagi otlar kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Casus	Singularis	Pluralis
Nominativus	—es	—es
Genetivus	—ei	—erum
Dativus	—ei	—ebus
Accusativus	—em	—es
Ablativus	—e	—ebus
Nominativus	facies	facies
Genetivus	faciei	facierum
Accusativus	faciem	facies
Ablativus	facie	faciebus

Quyidagi so'zlarni esda saqlang

1. Dosis letalis — o'ldiruvchi miqdor.
 pro dosi — bir marta qabul qilinishi kerak bo'lgan dori miqdori.
 (dosis) pro die — bir kunda qabul qilinishi kerak bo'lgan dori miqdori.
2. Species, **ei, f** — yig'ma so'zi hamma vaqt ko'plik sonida qo'llaniladi, chunki yig'ma bir necha dorivor o'simliklardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

yumshatuvchi yig'ma — species laxantes
 siydik haydovchi yig'ma — species diuretical


Recipe: Specierum diureticarum 50,0
 Misce, ut fiant species.

Ol: Siydik haydovchi yig'madan 50.0
 Yig'ma bo'lguncha aralashtir.


67-§. QUYIDAGI ATAMALARNI YODLANG!

M: *Facies, ei, f* — yuz, bet, yuz
 S—M: *caries, ei, f* — chirish
rabies, ei, f — quturish
scabies, ei, f — qichima

M—F:	<i>dies, ei, f</i>	— kun
	<i>dosis pro die</i>	— bir kunda qabul qilinishi kerak bo'lgan dori miqdori
	<i>species, ei, f</i>	— yig'ma (dori turi)
F:	<i>res, ei, f</i>	— narsa, ish
	<i>res rudes</i>	— xomashyo

 **130-mashq.** *Quyidagi atamalarni tarjimasiga qarab moslashtiring. M—F.*

<i>facies</i>	— kun
<i>caries</i>	— narsa
<i>rabies</i>	— yig'ma
<i>scabies</i>	— chirish
<i>dies</i>	— quturish
<i>species</i>	— bet
<i>res</i>	— qichima

 **131-mashq.** *Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling va Nom. et Gen; Singularis hamda Plur.da turlang.*


M—F: yuz, chirish, quturish, qichima, kun, yig'ma, narsa.

Namuna:

Guruh	Rod	Nom.Sing.	Gen.Sing	Nom.Plur.	Gen.Plur.
Y	f	species	speciei	species	specierum

132-mashq. *Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

M:	<i>ossa faciei, nervus facialis, facies costalis, facies interna, facies lateralis.</i>
S—M:	<i>facies nasalis, facies cutis, facies renalis, caries dentis, rebies morbi, scabies morbi.</i>
M—F:	<i>species polyvitaminosae, species aromaticae, species sedativae, species antiasthmaticae, species laxantes, dosis letalis.</i>
F:	<i>species stomachicae, species diaphoreticae.</i>

 **133-mashq.** *Quyidagi sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

<i>caries (acutus, a, um)</i>	<i>fabies (paralyticus, a, um)</i>
<i>facies (externus, a, um)</i>	<i>facies (costalis, e)</i>

facies (albus, a, um) facies (internus, a, um)
caries (siccus, a, um) facies (muscularis, e)



134-mashq. *Quyidagi retseptlarni o'zbek tilida yozing.*
M—F.

Recipe: Specierum antiasthmaticarum 50,0

Da in scatula.

Signa: Bronxial nafas qisishida qo'llash uchun.

Recipe: Herbae Adonidis vernalis 2,0

Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5

Misce, fiant species. Da in sacculo.

Da. Signa: Damlab ichish uchun.

Recipe: Florum Chamomillae

Herbae Millefolii

Herbae Absinthii

Foliorum Menthae piperitae

Foliorum Salviae ana 10,0

Misce, fiant species

Signa: Damlab ichish uchun.

Recipe: Foliorum Menthae piperitae

Florum Sambuci

Florum Tiliae ana 30,0

Misce, fiant species, Da.

Signa: Choydek damlansin.

Recipe: Corticis Frangulae

Foliorum Sennae ana 15,0

Florum Sambuci

Florum Chamomillae ana 7,0

Florum Malvae 2,0

Misce, fiant species. Da.

Signa: Choydek damlash lozim.

Recipe: Radicis Althaeae

Radicis Glycyrrhizae ana 10,0

Herbae Thymi vulgaris 40,0

Misce, fiant species. Da in sacculo.

Signa: Qaynoq suvda damlash uchun.



135-mashq. *Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.* *M—F.*

Ol: Siydik haydovchi yig'madan 50,0

Xaltachada ber.

Belgila: Choyga o'xshatib damlash uchun.

Ol: Bahorgi gulizardak o'tidan 8,0

Qalampirmunchoq bargidan 1,0

Yig'ma bo'lguncha aralashtir.

Shunday miqdorda 6 ta xaltachaga solib ber.

Belgila: 1 stakan qaynagan suvga solib 15 daqiqa qaynagandan keyin suzish kerak.

Bir osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta ichish lozim.

Ol: Yumshatuvchi yig'madan 5,0

Mumli xaltachada ber.

Belgila: Chöy kabi damlash kerak.

Ol: Belladonna bargi

Bangidevona bargidan teng miqdorda 15,0

Kaliy nitratdan 4,0

Yig'ma bo'lguncha aralashtir. Ber.

Belgila: Nafas qisganda ichish uchun.

❓ Mavzularga oid savollar

1. Beshinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
2. Sifatlar beshinchi guruhda turlanuvchi otlar bilan qanday moslashadi?

! Mustaqil o'rganish uchun

Lotin maqollari va hikmatli so'zlar

Bona fide.

Vijdonan, sofdillik bilan.

Est modus in rebus.

Hamma narsa me'yori bilan.

In spe.

Umid, ishonch bilan.

Omnium medicorum antiquitatis Hippocrates clarissimus est.

Buqrot qadim zamon tabiblarining eng mashhuridir.

Omnium doctrinarum medicina difficillima est.

Tibbiyot — fanlar ichida eng qiyinidir.

68-§. LOTIN TILIDAGI OTLARNING BESH GURUHDA TURLANISHI

Otlar	I	II	III	IV	V
<i>Class</i>	Fem.	Masc. Neutr.	Masc. Fem. Neutr.	Masc. Neutr.	Fem.
<i>Singularis</i>					
<i>Nominativus</i>	-a	-us, -er -um		-us -u	-es
<i>Genetivus</i>	-ae	-i	-is -is	-us -us	-ei
<i>Dativus</i>	-ae	-o	-i -i	-ui -u	-ei
<i>Accusativus</i>	-am	-um	-em -em Nom.	-um -u	-em
<i>Ablativus</i>	-a	-o	-e(i) -e(i) -e(i)	-u -u	-e
<i>Pluralis</i>					
<i>Nominativus</i>	-ae	-i -a	-es -es -a (-ia)	-us -ua	-es
<i>Genetivus</i>	-arum	-orum	-um (ium) -um(ium)	-uum -uum	-erum
<i>Dativus</i>	-is	-is	-ibus -ibus -ibus	-ibus -ibus	-ibus
<i>Accusativus</i>	-as	-os -a	-es es -a(-ia)	-us -ua	-es
<i>Ablativus</i>	-is	-is -is	-ibus -ibus -ibus	-ibus -ibus	-ibus

69-§. SIFAT DARAJALARI

Lotin tilida sifat darajalari xuddi o'zbek tilidagidek oddiy, qiyosiy va orttirma darajalarga bo'linadi:

gradus positivus — oddiy daraja
gradus comparativus — qiyosiy daraja
gradus superlativus — orttirma daraja

Qiyosiy daraja

Masculinum va Femininum ro'dga tegishli sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga **-ior**, Neutrum ro'dga esa, **-ius** qo'shimchasini qo'shish lozim. Masalan:

Gradus	Positivus	Gradus comparativus
Nominativus Singularis	Gen. Sing.	Nominativus Singularis
purus —	pur--i	purior— purius—
subtilis —	subtilis	subtilior— subtilius—
simplex —	simplic—is	simplicior— simplicius

Qiyosiy darajadagi sifatlarning uchinchi guruhda turlanuvchi otlar kabi turlanib uchala ro'ddagi sifatlarning Gen. Sing. da **ior+is** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Qiyosiy darajali sifatlarning kelishiklarda turlanish namunasi:

Latior, ius — kengroq

Gusus	Singularis		Pluralis	
	Masc.	Fem. Neutr.	Masc.	Fem. Neutr.
Nominativus	latior	latius	latiores	latiora
Genetivus	latioris		latiorum	
Accusativus	latiorem	latius	latiores	latiora
Ablativus	latiore		latioribus	

Qiyosiy darajali sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

longior, ius — uzunroq
purior, ius — tozaroq

subtilior, ius — maydaroq
simplicior, ius — oddiyroq

Orttirma daraja

1. Sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga **issim** va **-us, -a, -um** rod qo'shimchalari qo'shiladi:

pur-issimus, a, um — juda ham (eng) toza
subtil-issimus, a, um — juda ham (eng) mayda
simplic-issimus, a, um — juda ham (eng) oddiy

2. Masculinum rodga tegishli **-er** qo'shimchali sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun Nom. Sing. ga **-rimus, -rima, -rimum** qo'shimchalari qo'shiladi:

Niger-rimus, a, um — juda ham (eng) qora
acer-rimus, a, um — juda ham (eng) o'tkir

Orttirma darajali sifatlar I va II guruhda turlanuvchi otlar kabi kelishiklarda turlanadi. Orttirma darajali sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

Purissimus, a, um — juda ham (eng) toza
subtilissimus, a, um — juda ham (eng) mayda
simplicissimus, a, um — juda ham (eng) oddiy

70-§. HAR XIL NEGIZLARDAN YASALGAN SIFAT DARAJALARI

Quyidagi beshta sifatning qiyosiy va orttirma darajasi noto'g'ri hosil qilinadi, ya'ni har xil negizlarga ega bo'ladi:

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
parvus, a, um — kichik	minor, minus — kichikroq	minimus, a, um — juda kichik
magnus, a, um — katta	major, majus — kattaroq	maximus, a, um — juda katta
multus, a, um — ko'p	plures plura — ko'proq	plurimus, a, um — juda ko'p
bonus, a, um — yaxshi	melior, melius — yaxshiroq	optimus, a, um — juda yaxshi
malus, a, um — yomon	peior, peius — yomonroq	pessimus, a, um — juda yomon

71-§. QUYIDAGI SIFATLARNI YODLANG!

M:	<i>anterior, ius</i>	— oldingi
	<i>posterior, ius</i>	— orqangi
	<i>superior, ius</i>	— yuqorigi
	<i>inferior, ius</i>	— pastki
M—F:	<i>major, jus</i>	— kattaroq
	<i>minor, minus</i>	— kichikroq
	<i>maximus, a, um</i>	— juda ham (eng) katta
	<i>minus, a, um</i>	— juda ham (eng) kichik
	<i>optimus, a, um</i>	— juda ham (eng) yaxshi

136-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

M:	musculus latissimus dorsi, musculus pectoralis major, vena cordis magna, vena cava superior, foramen occipitale magnum, membrum inferius, prognosis optima.
S—M:	musculus longissimus thoracis, paries anterior, canales palatini minores, foramen palatinum majus, foramen ischiadicum majus, venae frontales superiores.
M—F:	Vaselinum purissimum, Vaselinum optimum, oleum Vaselini purissimum, pulvis subtilissimus, remedia amarissima, pilula minima, pilula maxima, fructus majoris Cucurbita maxima, aether purissimus.

137-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tilida yozing. M—F.

Recipe:	Benzylpenicillini-natrii 125000 Aethazoli 5,0 Misc. fiat pulvis subtilissimus. Da. Signa: Burunga pufdash uchun.
Recipe:	Acidi borici pulverati 4,0 Zinci oxydi pulverati 6,0 Talci purissimi 40,0 Misc. Da. Signa: Sirtga qo'llash uchun.
Recipe:	Hydrargyri oxydi flavi 0,1 Vaselini optimi pro oculis 10,0 Misc, fiat unguentum. Da. Signa: Ko'z uchun surtma.
Recipe:	Viridis nitentis 0,025 Cupri citratis Streptocidi albi ana 0,2

Vaselini optimi pro oculis 10,0

Misce, fiat unguentum. Da.

Signa: Ko'z surtmasi.

Recipe: Zinci oxydi subtilissimi

Talci ana 20,0

Acidi salicylici subtilissimi 2,0

Misce, fiat pulvis. Da in scatula.

Signa: Terining yallig'langan joyiga sepish uchun.

Recipe: Streptocidi albi 5,0

Penicillini 200000

Misce, fiat pulvis subtilissimus. Da.

Signa: Quloqqa puflash uchun.



138-mashq. Quyidagi retseptlarni lotin tilida yozing. *M—F*

Ol: Juda mayda Streptotsiddan 20,0

Ber. Belgila: Jarohatga sepish uchun.

Ol: Norsulfazol

Streptotsiddan teng miqdorda 5,0

Mentoldan 0,05

Juda mayda kukun bo'lguncha aralashtir.

Ber. Belgila: Burunga puflash uchun.

Ol: Toza vazelin moyidan 200,0

Yalpiz moyidan 2 tomchi

Aralashtir. Ber.

Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 2 mahal.

Ol: Salitsilat kislotadan 0,5

Rux oksid

Bug'doy ohoridan teng miqdorda 5,0

Ko'z uchun toza vazelindan 10,0

Xamirsimon modda bo'lguncha aralashtir.

Ber. Belgila: (Ko'z) Qovoq terisiga surtish uchun.



Mavzularga oid savollar


1. Sifatlarning qiyosiy darajasi qanday hosil qilinadi?
2. Qiyosiy darajali sifatlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
3. Sifatlarning orttirma darajasi qanday yasaladi?
4. Orttirma darajali sifatlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
5. Har xil negizli sifatlarni bayon eting.

72-§. OLMOSH


Ot, sifat va son o'rnida qo'llaniladigan so'z turkumlariga olmosh deyiladi.

Tibbiyotda quyidagi olmoshlar qo'llaniladi:


1. Pro me — o'zim uchun
2. Per se — toza holda
3. Da tales doses — shunday miqdorda ber

 **139-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Da pro me, da pro auctore, pro usu proprio, recipe lodum per se ad usum internum, medicum me curat.

 **140-mashq.** Quyidagi so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling. M—F.

Men uchun dori ber, muallif uchun dori ber, shunday miqdorda 10 dona ber, toza holdagi yod, toza holdagi oltingugurt, archagul bargi qaynatmasini men uchun tayyorla, oltingugurtni toza holda ber.

 **141-mashq.** Quyidagi retseptlarni o'zbek tilida yozing. M—F.

Recipe: Euphyllini 0,1
Ephedrini hydrochloridi 0,025
Sacchari 0,2
Misc. fiat pulvis. Da tales doses numero 12 in capsulis gelatinosis.
Signa: Muallif uchun.

Recipe: Iodi 0,1
Vaseline 1,0
Benzini 100 ml
M. D. S: Pro me.

73-§. RAVISH

Lotin tilida ravishlar sifat va boshqa so'z turkumlaridan hosil bo'lishi mumkin.

1. Birinchi guruh sifatlarining negizi -e yoki -o qo'shimchalarini qo'shish bilan ravish yasaladi. Masalan:

Latus, e, um — keng, lat-e,
rectus, a, um — to'g'ri, rect-e,

<i>citius, a, um</i>	— tez, cit-o.
<i>rarus, a, um</i>	— siyrak, rar-o.

2. Ikkinchi guruh sifatlarining negiziga **-iter** qo'shimchasini qo'shish natijasida ravish hosil qilinadi:

<i>gravis, e</i>	— og'ir, <i>grav-iter</i> ,
<i>simplex, icis</i>	— oddiy, <i>simpliciter</i> .

Noto'g'ri yasaluvchi ravishlar:

<i>bonus</i>	— yaxshi, bene,
<i>alius</i>	— boshqa, aliter.

74-§. TIBBIY ATAMALARDA QO'LLANILUVCHI QUYIDAGI RAVISHLARNI YODLANG!

M—F:	<i>ana</i>	— teng, baravar
	<i>cito</i>	— tez, tezlik bilan
	<i>citissime</i>	— juda ham tezlik bilan, shoshi- linch ravishda
	<i>statim</i>	— darhol
	<i>quantum satis</i>	— keragicha
	<i>bis</i>	— ikki marta
	<i>bene</i>	— yaxshi
	<i>optime</i>	— juda yaxshi
	<i>maxime</i>	— juda katta
	<i>minime</i>	— juda kichik
	<i>caute</i>	— ehtiyotlik bilan
	<i>aseptice</i>	— zararsizlantirilgan holda
	<i>exacte</i>	— aniq
	<i>exactissime</i>	— juda aniq
F:	<i>grosse</i>	— yo'g'on, katta
	<i>modice</i>	— o'rta, me'yorida
	<i>longe</i>	— favqulodda holat, yuqori darajada
	<i>calide</i>	— issiq, issiqlik holatida
	<i>frigide</i>	— sovuq, sovuq usul bilan
	<i>lente</i>	— sekin (harakat asosida)
	<i>tenuiter</i>	— yupqa, mayda
	<i>tenuissime</i>	— juda yupqa, mayda
	<i>semilente</i>	— yanada sekinroq
	<i>simpliciter</i>	— oddiy
	<i>ultralente</i>	— juda ham sekin

142-mashq. Quyidagi ravishlarni o'z o'rniga qo'ying.

<i>ana</i>	— zararsizlantirilgan holda
<i>cito</i>	— juda katta
<i>citissime</i>	— juda kichik
<i>statim</i>	— ehtiyotlik bilan
<i>quantum satis</i>	— teng
<i>bis</i>	— tez
<i>bene</i>	— juda ham tez
<i>optime</i>	— darhol
<i>maxime</i>	— keragicha
<i>minime</i>	— ikki marta
<i>caute</i>	— yaxshi
<i>aseptice</i>	— juda yaxshi

143-mashq. Quyidagi ravishlarni lotincha muqobiliga qarab moslashtiring. F.

<i>Grosse</i>	— juda ham sekin
<i>modice</i>	— sovuq
<i>longe</i>	— yanada sekinroq
<i>calide</i>	— yo'g'on
<i>frigide</i>	— me'yorida
<i>lente</i>	— favqulodda holat
<i>semilente</i>	— issiq
<i>ultralente</i>	— sekin

144-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Da citissime, para infusum calide, extende tenuissime. spiritus Vini optime rectificatus, sirupus simpliciter, misce liquorem exactissime, statim da medicamentum, pulvis modice grossus, pulvis longe subtilissimus.

145-mashq. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.

Statim!

Recipe: Solutionis Glucosi 25 % 50 ml
Methyleni coerulei 0,5

Da tales doses numero 3 in ampullis.

Signa: Sinil kislotasidan zaharlanganda qo'llash uchun.

Cito!

Recipe: Linimenti Synthomycini 1 % cum Novocaino
0,5 % 25,0

Da. Signa: Kuygan joyga surtish uchun.

Citissime!

Recipe: Aquae bidestillatae recenter paratae 20 ml
Sterilisetur Detur.

Signetur: Poliklinikada muolaja qilish uchun.

? Mavzularga oid savollar

1. Ravishlar qanday hosil qilinadi? (Birinchi guruh sifatleri misolida ko'rsating).
2. Ravishlar qanday yasaladi? (Ikkinchi guruh sifatleri misolida ko'rsating).

75-§. SON

Lotin tilida sonlar o'zbek tilidagidek quyidagilarga bo'linadi:

Sanoq son — *numeralia cardinalia*

Tartib son — *numeralia ordinalia*

76-§. QUYIDAGI SONLARNI XOTIRADA SAQLANG!

I. *Sanoq son*

I,	1. unus, a, um	— bir
II,	2. duo, duae, duo	— ikki
III,	3. tres, tria	— uch
IV,	4. quattuor	— to'rt
V,	5. quinque	— besh
VI,	6. sex	— olti
VII,	7. septem	— yetti
VIII,	8. octo	— sakkiz
IX,	9. novem	— to'qqiz
X,	10. decem	— o'n
XI,	11. undecim	— o'n bir
XII,	12. duodecim	— o'n ikki
XIII,	13. tredecim	— o'n uch
XIV,	14. quattuordecim	— o'n to'rt
XV,	15. quindecim	— o'n besh
C,	100. centum	— yuz
D,	500. quingenti	— besh yuz
M,	1000. mille	— ming

2. Tartib son

primus, a, um	— birinchi	sextus, a, um	— oltinchi
secundus, a, um	— ikkinchi	septimus, a, um	— yettinchi
tertius, a, um	— uchinchi	octavus, a, um	— sakkizinchi
quartus, a, um	— to'rtinchi	nonus, a, um	— to'qqizinchi
quintus, a, um	— beshinchi	decimus, a, um	— o'ninchi


Old qo'shimchali sonlar

bi — ikki	biceps, bicipitis	— ikki boshli
	bicolor, bicoloris	— ikki rangli
tri — uch	triceps tricipitis	— uch boshli
	triplex, triplicis	— uch hissa ko'p
	trigeminus, a, um	— uch shoxli
	tricolor, oris	— uch rangli
quadri — to'rt	quadriceps, itis	— to'rt boshli
	quadripetalus, a, um	— to'rt bargli
semi — yarim	semilunaris, e	— yarim oy shaklli
	semicircularis, e	— yarim aylana, doira

Yunoncha old qo'shimchali sonlar

Yunoncha old qo'shimchali sonlar kimyoviy nomlarda qo'llaniladi.

1. mon (o)	— bir	8. oct (a)	— sakkiz
2. di	— ikki	9. ennea	— to'qqiz
3. tri	— uch	10. dec (a)	— o'n
4. tetra	— to'rt	11. undec	— o'n bir
5. penta	— besh	12. dodec	— o'n ikki
6. hexa	— olti	13. tridec	— o'n uch
7. hept (a)	— yetti	14. tetradec	— o'n to'rt
		15. pentadec	— o'n besh

 146-mashq. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

M: musculus biceps femoris, musculus quadratus femoris, musculus biceps brachii, musculus triceps brachii, nervus trigeminus.

S—M: duodenum musculus quadratus plantae, musculus triceps surae, ligamentum quadratum, lamina quadrigemina, lobus quadratus hepatis.

M—F: tabulettae «Pentalginum», unguentum «Undecinum», Trichloroethylenum pro narcosi, tabulettae «Decamevium» obductae, dragee «Undevitum» et «Hexavitum».

F: tabulettae «Panhexavitum» obductae, Viola tricolor,

Polygonum bistorta, Trifolium fibrinum, Oxycoccus quadripetalus, Leonurus quadripetalus, extractum Millefolii fluidum.



147-mashq. *Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. M—F.*

Recipe: Unguenti Tetracyclini hydrochloridi 1 % 10,0

Da. Signa: Ko'z uchun surtma.

Recipe: Hydrargyri monochloridi

Lanolini

Vaselini ana 20,0

Misce, fiat unguentum. Da.

Signa: Surtma.

Recipe: Natrii tetraboratis 2,5

Glycerini 5 ml

Spiritus aethylici 95 % ad 10 ml

Misce. Da.

Signa: Sirtga qo'llash uchun.

Recipe: Hydrargyri dichloridi 0,5

Solutionis Acidi acetici 3 % 150 ml

Misce. Da.

Signa: Sirtga qo'llash uchun.

Recipe: Hexamethylenetetramini

Phenylii salicylatis ana 0,25

Dentur tales doses numero 10 in tabulettis.

Signetur: 1 tabletkadan kuniga 3 mahal.

Recipe: Foliorum Menyanthidis trifoliatae

Foliorum Menthae

Radici Taraxaci

Gemmarum Betulae ana 25,0

Misce, fiat species. Da.

Signa: Choyga o'xshatib damlash uchun.



Mavzularga oid savollar

1. Lotin tilida sonlar nechtaga bo'linadi?
2. Sanoq sonlarda o'ngacha sanay olasizmi?
3. Tartib sonlarda o'ngacha sanay olasizmi?
4. Lotinchada qanday old qo'shimcha sonlar bor?
5. Yunonchada qanday old qo'shimcha sonlar bor?

77-§. RETSEPTDAGI QISQARTMA OTLAR

Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli shifokorlar hamda hamshiralar retsept yozganda turli xil qisqartma otlardan foydalanadilar.

1. Ko'pincha dori nomlarini shakli, dorivor o'simlik qismlari, dorixona xodimiga har xil ko'rsatmalar va retsepturaga tegishli aniq ifodalar qisqartiriladi.
2. Tarkibi jihatdan bir-biriga yaqin dori moddalarning nomi qisqartirilmasdan to'liq shaklda yoziladi.
3. Agar so'zning bosh qismida bir necha undosh harflar kelsa va shu so'z qisqarsa, ular saqlanib qoladi.

Extractum	qisqartirilganda	extr.
compositum	— // —	comp.
emplastrum	— // —	empl.
infusum	— // —	inf.

4. Retseptlarda takrorlanib turuvchi so'zlar va ifodalarni bitta harfgacha qisqartirish mumkin:
Miscce — M, Da — D, Signa — S.

78-§. RETSEPTURADA QISQARTIRILISHI MUMKIN BO'LGAN QISQARTMA OTLAR

BU QISQARTMA OTLARNI YODLANG! Retsepturada qo'llaniluvchi qisqartma shakllar

Qisqartma shakli	To'liq shakli	Tarjimasi
Rp.	Recipe	O'l
D.	Da. Detur	Ber. Berilsin
D.S.	Da. Signa	Ber. Belgila
	Detur. Signetur	Berilsin. Belgilansin
M.D.S.	Misce. Da. Signa	Aralashtir. Ber. Belgila
	Misceatur. Detur.	Aralashtirilsin. Berilsin.
	Signetur	Belgilansin
rep.	repete	Takrorla
D.t.d.n.	Da (dentur) tales doses numero	Shunday miqdorda ber (berilsin)
M.f.	Misce fiat	Hosil bo'lguncha aralashtir
M.f. pil.	Misce, fiat pilulae	Hab dori hosil bo'lguncha aralashtir
M.f. pulv.	Misce, fiat pulvis	Kukun hosil bo'lguncha aralashtir
O.D.	oculo dextro	O'ng ko'zga
O.S.	oculo sinistro	Chap ko'zga
Steril	Sterilisa sive Sterilisetur	Qaynatib tozala
Pro inject.	Pro injectionibus	Dorini igna orqali quyish uchun
ED.		Ta'sir birligi
gtt.	guttam	Tomchi
in. amp.	in ampullis	Ampulalarda
in caps. amyl.	in capsulis amyloaceis	Ohorli kapsulalarda
in caps. gel.	in capsulis gelatinosis	Yelimli kapsulalarda
in ch. cer.	in charta cerata	Mumli qog'ozda

Qisqartma shakl	To'liq shakl	Tarjiması
<i>in ch. paraff.</i>	<i>in charta paraffinata</i>	Parafinli qog'ozda
<i>in lag. origin.</i>	<i>in lagena originali</i>	Asl shisha idishda
<i>in vitr. nigr.</i>	<i>in vitro nigro</i>	Qora shishachada
<i>in vitr. fusc.</i>	<i>in vitro fusco</i>	Qoramtir shishachada
<i>in obl.</i>	<i>in oblata</i>	G'ilof, qobiq
V.	Verte	Orqasiga qaralsin
<i>in tabl.</i>	<i>in tabulettis</i>	tabletkada
<i>vit.</i>	<i>vitrum</i>	shishacha
<i>m. pil.</i>	<i>massa pilularum</i>	xamirsimon modda
aa	ana	teng. baravar
ac. acid	acidum	kislota
aq. dest.	aqua destillata	tozalangan suv
but. Cac.	butyrum Cacao	kakao moyi
comp.	compositus	murakkab
cort.	cortex	po'stloq
dec.	decoctum	qaynatma
dep.	depuratus	tozalangan
emuls.	emulsum	emulsiya
extr.	extractum	ekstrakt
fl.	flos	gul
fluid.	fluidum	suyuq
fol.	folium	bag
fr.	fructus	meva
hb.	herba	o't
inf.	infusum	damlama
linim.	linimentum	suyuq surtma
liq.	liquor	suyuqlik
mucil.	mucilago	shilliq modda
obd.	obductus	qoplama, g'ilof
ol.	oleum	moy (suyultirilgan)
past.	pasta	pasta
pulv.	pulvis	kukun
q. s.	quantum satis	keragicha
rad.	radix	ildiz
rhiz.	rhizoma	ildizpoya
sem.	semen	urug'
sicc.	siccus	quruq
simpl.	simplex	oddiy
sir.	sirupus	sharbat
sol.	solutio	eritma
sp.	species	yig'ma
spir.	spiritus	spirit
stigm.	stigma	tumshuqcha, og'izcha (bot.)
supp.	suppositorium	shamcha
susp.	suspensio	suspenziya
tabl.	tabletta	tugmachasimon dori shakli
tinc.	tinctura	nastoyka
tr.	tritrus	qirg'ichdan o'tkazilgan (maydalangan)
ung.	unguentum	surtma dori



148-mashq. *Quyidagi retseptlarni to'ldirilgan holda yozib, tarjima qiling. M—F.*

- Recipe: Natrii tetraboratis
Natrii hybrcarbonatis — 20,0
Natrii chloridi 10,0
- Ol. Menthae gtt. III.
M. f. pulv
D.S: Chayish uchun
- Recipe: Cocarboxylasi 0,05
D.t.d. N. 10 in amp.
S: Dorini qo'llash qoidasi asosida.
- Recipe: Oleandomycini phosphatis 0,25
D. t. d. N. 30 in tab.
S: 1 tablekadan kuniga 4 — 6 mahal.
- Rp: Pulv. for. Digitalis 0,03
Chinini hydrochloridi 0,05
Bromcamphorae 0,25
M.f. pulv.
D.t.d.N. 12 in caps. gel.
S: 1 kapsuladan kuniga 3 marta.
- Rp: Ol jecor. Aselli 20,0
Celatosae 10,0
Aq. dest. ad 200 ml
M.f. emuls.
D.S: Ikki marta ichish uchun.
- Rp: Sol. Viridis nitentis spirituosae 1% 50 ml.
D.S: Kasallangan joyga surtish uchun.
- Rp: Phenobarbitali 0,05
Bromisovalali 0,2
Coffeini-natrii benzoatis 0,015
Papaverini hydrochloridi 0,03
Calcii gluconatis 0,5
M.f. pulv. D.t. d. N. 24
S: Bir miqdordan kuniga 3 mahal.
- Rp: Sol. Desoxycorticosteroni acetatis oleosae
0,5 % 1 ml
D. t. d. N. 10 in amp.
S: 1 ml. dan 1—2 kun oralatib muskul orasiga.
- Rp: Chinosoli
Ac. borici aa 0,2
But. Cac. q. s.
M. ut f. glob. vag.
D.t.d. N. 6
S: Qinga qo'yish uchun.

- Rp: Spir. eathyl. 95 % 20 ml
Aq. pro inject. 100 ml
M. D. S: 10 ml.dan venaga yuborish uchun.
- Rp: Inf. fr. Anisi 15.0 — 200 ml
D. S: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan oldin.
- Rp: Bicillini-fortis 600000
D. t. d. N. 6 in lag.
S: 600000 TBdan haftasiga bir marta.
- Rp: Extr. Aloës
Pulv. r. Rhei aa 0,1
Extr. Belladonnae 0,015
M. f. pulv.
D. t. d. N 20
S: Bir miqdorda kuniga 2 marta.
- Rp: Amidopyrini 1,0
Coffeini-natrii benzoatis 0,8
Novocaini 0,5
Aq. pro inject. 20 ml
M. Steril.
S: Igna orqali quyish uchun.
- Rp: Theobromini-natrii cum Natrii Salicylate 0,5
Phenobarbitali 0,02
M. f. pulv.
D. t. d. N. 6 in ch. paraff.
S: Bir miqdorda kuniga 3 mahal ichish uchun.

MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi soʻzlarni tarjima qiling:

A). Uchki qism, qalampir, dumgʻazaga oid, oʻsimta, umurtqaga oid, xantal, meʻda, koʻtariluvchi, vaqt, tomir, mushakka tegishli, tarmoq, oʻldiruvchan, miyaga oid, uchuvchan, tibbiy,boʻgʻim, zubtutum, tabiiy, gavda, asal, eruvchan, chambar ichak, belgi, qinga oid, qovurgʻaga oid, foydali, yoy (ravoq), yigʻma, yurak, suvqalampir tuzatuvchi, poʻstloq, koʻknori, togʻay, yeryongʻoq, pufak, oʻsimlik, ensaga oid, asl nusxa, oqim, quturish, oddiy.

B). Gaster, sapor, amputatio, narcosis, asthma, gargarisma, sacralis, laxans, manus, caries, os (oris), sapo, anamnesis, injectio, carcinoma, elixir, derma, pharmacon, temporalis, plexus, os (ossis), odor, auscultatio, filix, glaucoma, alumen, encephalon, narcosis, vaginalis, facies, pes, carbo, contusio, dosis, symptoma, albumen, enteron, mensis, vertebralis, processus.

Quyida berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling:

A). Dumg'azaga oid teshik, yuz suyagiga doir mushak, bo'g'imga oid o'simta, bronxial nafas qisishi, qoringa oid, ichterlama, tibbiy vosita, tozalangan suyuqlik, eruvchan kukun, mushak ichiga igna orqali dori yuborish, markaziy, ko'k tomir, tibbiy efir, oddiy kukun.

B). Vertebra (cervicalis), facies (muscularis), nervus (sacralis), os (fibularis), processus (maxillaris), os (nasalis), suppositorium (vaginalis), dosis liquor (volatilis), os (sphenoidalis), arteria (pulmonalis), cartilago (nasalis).

Quyidagilardan retsept tuzing va tarjima qiling:

- Rp: Extract... Burs... pastor... fluid...
Extract... Viburn... fluid... ana 10 ml
M. D.
S: 20 tomchidan kuniga uch mahal.
- Rp: Infus... herb... Thermops... 0,1—100 ml
Liqu... Ammon... anisat... 1 ml
Natri... benzo... 0,6
Sirup... Althae... 20 ml
M.D.
S: Bir choy qoshiqdan kuniga 3—4 mahal.
- Rp: Pic... liquid... Betul...
Sulf... praeci pitat... ana 3,0
Vaselin... ad 30,0
M. f. ung.
D. S: Surtma.
- Rp: Natri... tetrabor...
Natri... hydrocarbon... ana 20,0
Natri... chlorid... 10,0
Ole... Menth... gtts. III
M.f. pulv.
D.S: Chayish uchun.
Pr: Tinctur... Convallari... maja...
Tinctur... Valerian... officin... ana 7,5 ml
Adonisid... 15 ml
M.D.
S: 20 tomchidan bir marta ichish uchun.
- Rp: Pic...
Sapon.. virid... ana 15,0

- Spir... aethylic... 95 % 15 ml
M. f. linim.
- D.S. Sovunli —qatron spirt.
- Ol: Suvqalampirning suyuq so'rimidan
Bodrezakning suyuq so'rimidan teng 20 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20—30 tomchidan kuniga 2—3 marta.
- Ol: Kalsiy karbonat cho'kindisidan
Natriy gidrokarbonatdan
Bismut subnitratdan teng 0,3
Belladonna so'rimidan 0,015
Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber. Belgila: Bir donadan kuniga 3 marta.
- Ol: Shoxkuyaning suyuq emulsiyasidan
Suvqalampirning suyuq so'rimidan teng 10 ml
Jag'-jag'ning suyuq so'rimidan 10 ml
Aralashtir. Ber.
Belgilansin: 30 tomchidan kuniga 3 marta.
- Ol: Aloy so'rimidan
Rovoch ildizpoyasining kukunidan teng 0,1
Belladonna so'rimidan 0,015
Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.
Shunday miqdorda 20 dona ber.
Belgila: Bir miqdorda kuniga 2 marta.
- Ol: Kodein fosfatdan 0,18
Fenobarbitaldan 0,3
Amidopirindan 1,8
Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.
6 ta teng qismlarga bo'l.
Ber. Belgila: Kuniga uch mahal.
- Ol: Gulxayri po'stlog'i qaynatmasidan 150,0
Natriy benzoatdan 3,0
Ko'krak eleksiridan 2,0
Oddiy sharbatdan 20,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga bir mahal.

DORI SHAKLLARI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT VA RETSEPTLARDAN NAMUNALAR

Infusa (damlamalar) — dorivor o'simlikning yumshoq qismidan tayyorlanadi.

- Rp: Infusi herbae Thermopsidis 0,5 — 200 ml
D. S: Bir osh qoshiqdan kuniga 4 marta.
- Rp: Decocti foliorum Uvae ursi 10,0 — 180 ml
D.S: Bir osh qoshiqdan kuniga 5 — 6 marta.

Decocta (qaynatma) — dorivor o'simlikning dag'al qismidan tayyorlanadi.

- Rp: Decocti foliorum Uvae ursi 10,0 — 180 ml
D.S: Bir osh qoshiqdan kuniga 5 — 6 marta.

Solutiones (eritmalar) — bir yoki bir nechta dori moddasini eritib hosil qilingan bir xil tiniq suyuqlik.

Eritmalar suvli (*solutiones aquosae*) yoki oddiy eritma (*solutiones*), spirtli (*solutiones spirinuosae*) yoki moyli (*solutiones oleosae*) bo'lishi mumkin.

- Rp: Solutionis Furacilini 1:5000 — 500 ml
D. S: Tomoqni chayish uchun.
- Rp: Solutionis Viridis nitiens spirituosae
1 % — 500 ml
D.S: Terining jarohatlangan qismiga surtish uchun.
- Rp: Solutionis Camphorae oleosae 10 % — 100 ml
D. S: Bo'g'imga surtish uchun.
- Rp: Solutionis Hydrogenii peroxydi dilutae 100 ml
D.S: Yiringli yarani yuvib tozalash uchun.
- Rp: Solutionis Euphyllini 24 % 1 ml
D. t. d. N. 6 in amp.
S: Kuniga 1 ml. dan mushakka 1 — 2 marta

Emulsa (bir-biriga mos kelmaydigan ikki xil suyuqlik aralashmasi). Suvda erimaydigan moddalar aralashmasi: moylar bilan, dorivor o'simlik moylari bilan, efirli moylar bilan.

- Rp: Olei jecoris Aselli 30 ml
Gelatosae 15,0
Aq. destill. ad 200 ml
M. f. emuls.
D. S: Sirtga qo'llash uchun.
- Rp: Emulsi olei Amygdalarum 200 ml
Codeini phosphatis 0,2
S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.
- Rp: Olei Amygdalarum 20 ml
Gummi Armeniacae 10,0
Aq. destill. ad 200 ml
Codeini phosphatis 0,2
M. f. emuls.
D.S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Rp: Emulsi Synthomycini 1 % 25,0
D. S: Sirtga qo'llash uchun.

Extracta dorivor o'simliklardan tayyorlanadigan, ichishga yoki sirtga ishlatishga mo'ljallangan quyuuq dori turi.

Rp: Extr. Frangulae fluid. 20 ml.

D.S: 20 tomchidan kuniga 3 marta.

Rp: Extr. Filicis maris spissi 0,5

D. t. d. N. 10 in caps. gel. elastic.

S: Har 1 soatda bir kapsuladan ichish kerak

Rp: T-rae Convallariae

T-rae Valerianae aa 10 ml

Mentholi 0,05

Extr. Crataegi fluid. 5 ml

M. D. S: 15 — 20 tomchidan kuniga 2 — 3 marta.

Tincturae — dorivor o'simlikning spirtida, suvli spirtida, efirli spirtida tayyorlangan eritmasi.

Rp: T-rae Valeriana 25 ml

D. S: 25 tomchidan kuniga 3 — 4 marta

Rp: T-rae Strophanthi 5 ml

T-rae Valerianae 15 ml

M. D. S: 20 tomchidan kuniga 3 marta.

Mucilagines (quyuq yelimshak suyuqlik).

Rp: Chlorali hydratis 1,5

Mucilaginis — Amyli

Aq. destill. aa 25 ml

M. D. S: (katta yoshdagi kishiga) 1 marta huqna qilish uchun.

Mixturae — Aralashtirilgan suyuq dori. Bir necha dorini aralashtirish natijasida hosil qilingan suyuqlik.

Rp: Codeini phosphatis 0,18

Sol. Kalii bromidi 6,0 — 180 ml

M. D. S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Rp: Codeini phosphatis 0,18

Kalii bromidi 6,0

Aq. destill. ad 180 ml

M. D. S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Rp: Inf. hb. Adonidis vernalis 6, 0 : 180 ml

Natrii bromidi 6,0

Codeini phosphatis 0,2

M. D. S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 marta.

Rp: Pepsini 2,0
Acid. hydrochlorici diluti 5 ml
Ad. destill. 200 ml
M. D. S: Ovqatlanayotgan paytda 1 — 2 osh qoshiq-
dan kuniga 2 — 3 marta.

Unguenta (quyuq surtma) — yumshoq, xamirsimon dori shakli.

Rp: Ung. Neomycini sulfatis 0,5 — 50,0
D. S: Terining jarohatlangan qismiga surtish uchun.

Rp: Neomycini sulfatis 0,5
Vaselini ad 50,0
M. f. ung.

Rp: D. S: Terining jarohatlangan joyiga surtish uchun.
Sulfacyli-natrii 1,0
Lanolini 0,4
Vaselini ad 5,0
M. f. ung.
D. S: Ko'z uchun quyuq surtma.

Linimenta (suyuq surtma) — tana haroratida eruvchi quyuq suyuqlik.

Rp: Linim. Streptocidi 5 % 30,0
D. S: Jarohatga surtish uchun.

Rp: Kalli iodidi
Adipis suilli $\bar{a}a$ 2,0
Lanolini 15,0
Aq. destill. 1 ml
M. f. linim.
D. S: Surtish uchun.

Pasta (xamirsimon modda) — xamirsimon suyuq surtma.

Rp: Zinci oxydi
Amyli Triticici $\bar{a}a$ 10,0
Vaselini 20,0
M. f. past.
D. S: Terining jarohatlangan qismiga surtish uchun.

Rp: Past. Zinci 50,0
D. S: Terining jarohatlangan qismiga surtish uchun.

Emplastra (malham) — tana haroratida yumshab teriga yopishuvchi massa.

Rp: Empl. adhaesivum bactericidum 10×6 cm
D. S: Jarohatlangan joyga surtish uchun.

Rp: Empl. Plumbi simpl. 50,0
D. S: Isitib eritgandan so'ng matoga surtib terining jarohatlangan qismiga qo'yish kerak.

Suppositoria (shamcha) — xona haroratida erimaydigan, tana haroratida eriydigan dori shakli. To'g'ri ichakka yuborishga mo'ljallangan shamchalar (suppositoria rectalia) va qin shamchalari (suppositoria vaginalia).

Rp: Ichthyoli 0,1
Extr. Belladonnae 0,01
But. Cacao 5,0
M. f. globulus vaginalis.
D. t. d. №. 10

S: Bir suppositoriydan og'riq paytida.

Rp: Promedoli 0,02
But. Cacao q. s.
M. f. supp. rectale.
D. t. d. №. 6

S: Bir shamchadan og'riq vaqtida.

Rp: Ichthyoli 1,0
Extr. Belladonnae 0,1
But. Cacao 50,0
M. f. globuli vaginalis. №. 10

D. S: Bir suppositoriydan og'riq paytida.

Rp: Atropini sulfatis 0,0005
But. Cacao q. s.
ut fiat bacillus longitudine 5 cm
et crassitudine 0,5 cm
D. t. d. №. 6

S: Siydik chiqarish yo'liga bir donadan kuniga bir marta.

Pulveres (kukun) — sochiluvchi dori moddasi. Kukunlar yirik (pulveres grossi), mayda (pulveres subtiles) va juda mayda (pulveres subtilissimi) bo'linadi. Kukunlar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Bir dori moddasidan tashkil topgan kukun oddiy (pulvis simplex), ikki va undan ortiq dori moddasidan tashkil topgan kukun murakkab (pulvis compositus) dori deyiladi. Ular ichish, inyeksiya qilish va sirdan ishlatishga mo'ljallanadi.

Rp: Xeroformii subtilissimi 20,0
D. S: Jarohat uchun sepma
Rp: Benzylpenicilini-natrii 125000
Aethazoli 5,0

- M. f. pulv. subtilissimus.
 D.S: Burunga puflash uchun.
- Rp: Pancreatini 0,6
 D. t. d. №. 24
 S: Ovqatlanishdan oldin bir donadan kuniga 3 marta.
- Rp: Pulv. rad. Rhei 1,0
 D. t. d. №. 12
 S: Yotishdan oldin bir dona ichish kerak.
- Rp: Magnesii oxydi 30,0
 D. S: $\frac{1}{4}$ choy qoshiqdan kuniga 2 marta.
- Rp: Euphyllini 0,1
 Ephedrini hydrochloridi 0,025
 Sacchari 0,2
 M. f. pulv. D. t. d. №. 12 in caps. gel.
- Rp: S: 1 kapsuladan kuniga 2— 3 marta.
 Phenacetini 0,3
 Coffeini-natrii benzoatis 0,1
 M. f. pulv. D. t. d. №. 6
 S: Bosh og'riganda bir donadan ichish kerak.

Tablettae (tugmachasimon dori shakli) — kukunni taxtakachlash natijasida hosil qilingan qattiq dori shakli. Tabletkaning shakli tugmachasimon yoki tuxumsimon bo'lishi mumkin.

- Rp: Reserpini 0,00025
 D. t. d. №. 50 in tabl.
 S: Bir tabletkadan kuniga 2 marta.
- Rp: Tabl. «Nicovertinum» № 20
 D.S: Bir tabletkadan kuniga 2 marta
- Rp: Amidopyrini 0,25
 Coffeini 0,03
 Phenobarbitali 0,02
 D. t. d. №. 6 in tabl.
 S: Bosh og'riganda bir tabletkadan ichish kerak.

Pilulae (hab dori) — 0,1, 0,5 grammlı, kichik dumaloq shakli, qattiq miqdorli dori shakli.

- Rp: Acid. arsenicosi anhydrici 0,06
 Ferri lactatis 6,0
 Extr. et pulv. Liquiritiae q. s. ut fiat pil. №. 60
 D.S: Bir hab doridan kuniga 2 marta ovqatlangandan keyin.

Rp: Strychnini nitratis 0,05
M. pil. q. s. ut fiat pil. №. 50
D. S: Bir hab doridan kuniga 2 marta.

Boli (katta hab dori) — miqdori 0,5 grammdan og'ir bo'lgan qattiq dori shakli.

Dragee (mayda dumaloq shaklli dori) — usti qavat-qavat qoplamali dumaloq shaklli qattiq dori shakli.

Rp: Dragee Diazolini 0,05
D. t. d. №. 20
S: Bir donadan kuniga 2 marta.

Capsula (qoplamali dori) — ichiga dori moddasi solingan qoplamali dori: ohorli (capsulae amylaceae) yelimshak (capsulae gelatinosae).

Species (yig'ma) — dorivor o'simliklarning har xil qismini quritib maydalangan yig'masi — bargi (folium), guli (flos, floris), mevasi (fructus), ildizi (radix), ildizpoyasi (rhizoma), urug'i (semen).

Rp: Specierum diureticarum 100,0
D.S: Bir osh qoshiqdan kuniga 3 — 4 marta.

Rp: Specierum pectoralium 100,0
D.S: Yarim piyoladan kuniga 2 — 3 marta ovqatdan so'ng.

Rp: Specierum antiasthmaticarum 100,0
D. S: $\frac{1}{2}$ choy qoshiqda olib tutatib so'ng nafas olish kerak.

Rp: Fl. Chamomillae
Hb. Millifolii
Hb. Absinthii
Fol. Menthae piperitae
Fol. Salviae aa 10,0
M. f. Sp.
D.S: Bir osh qoshig'i bir piyola qaynoq suvda damlab ichilsin.

O'QISH UCHUN QO'SHIMCHA MAVZULAR

«Gaudeamus igitur» — «Shod-u xurram bo'laylik» she'ri talabalar madhiyasi bo'lib, taxminan o'rta asrda G'arbiy Yevropada yaratilgan.

Gaudeamus igitur,

— Yoshlik zavqin suraylik,

Juvenes dum sumus!

— Quv naylik, yor-u do'stlar!

Post jucundam juventutem,

— Bu kunlar ham g'animat,

<i>Post molestam senectutem,</i>	— Yer o'z qa'riga chorlar.
<i>Nos nabebit humus.</i>	
<i>Ubi sunt, qui ante nos,</i>	— Qani bizdan oldingi
<i>In munbo fuere?</i>	— Yer yuzida yurganlar?
<i>Vadite ad superos,</i>	— Samoga chiqib ko'ring,
<i>Transeas ad inferos,</i>	— Do'zaxga tushib ko'ring.
<i>Ubi jam fuere (bis)</i>	— Yashaganlar—qanilar?
<i>Vita nostra brevis est,</i>	— Umr degani qisqa,
<i>Brevi finietur;</i>	— Bir zumda o'tar, ketar.
<i>Venit mors velociter,</i>	— Ajal degani tezda,
<i>Rapit nos atrociter,</i>	— Shafqatsiz kirib kelar.
<i>Nemini parceretur,</i>	
<i>Vivat academia,</i>	— Yashasin dorilfunun!
<i>Vivat professores!</i>	— Yashasin domlalar!
<i>Vivat membrum</i>	
<i>quodlibet!</i>	— Yashang, aziz do'stlarim!
<i>Vivant membra quaelibet</i>	— Doim yashnab yuringlar.
<i>Semper sint in flore!</i>	— Yashasin barcha qizlar,
<i>Vivant omnes virgines,</i>	— Nazokatli go'zallar!
<i>Faciles, formosae!</i>	— Yashasin latofatli,
<i>Vivant et mulieres,</i>	— Mehribon-u mehnatkash,
<i>Tenerae, amabiles,</i>	— Sevgiga loyiq mangu
<i>Bonae, laboriosae</i>	— Qadri abad ayollar.
<i>Vivat et Respublica,</i>	— Yashasin Davlatimiz.
<i>Et qui illam regit!</i>	— Va uni boshqarganlar,
<i>Vivat nostra civitas,</i>	— Yasha barchaga homiy,
<i>Maecenatum caritas,</i>	— Yoshlarga zo'r murabbiy
<i>Quae nos hic protegit!</i>	— Bizning odil jamiyat.
<i>Pereat tristitia,</i>	— Yo'qolsin g'am-u g'urbat!
<i>Pereant osores</i>	— Daf bo'lsin qora niyat.
<i>Pereat diabolus,</i>	— Daf bo'lsin mal'un shayton,
<i>Quivis antiburschius,</i>	— Va talabalarga dushman,
<i>Atque irrisores</i>	— Ham undan kuluvchilar.

Yallig'lanish kasalliklarining nomi

Lotincha

O'zbekcha

<i>Adenitis</i>	— limfa bezining yallig'lanishi
<i>Adnexitis</i>	— bachadon (tuxumdon va naylarning yallig'lanishi)

<i>Aortitis</i>	— aorta devorining yallig'lanishi
<i>Appendicitis</i>	— chugalchangsimon o'simtaning o'tkir yallig'lanishi
<i>Arthritis</i>	— o'q tomirning yallig'lanishi
<i>Arteritis</i>	— bo'g'imlarning yallig'lanishi
<i>Blepharitis</i>	— qovoq chetining yallig'lanishi
<i>Bronchitis</i>	— bronx shilliq qavatining yallig'lanishi
<i>Bronchoadenitis</i>	— bronx limfa bezining yallig'lanishi
<i>Conjunctivitis</i>	— ko'z biriktiruvchi to'qimasining yallig'lanishi
<i>Cavernitis</i>	— olat g'ovak tanasining yallig'lanishi
<i>Coxitis</i>	— chanoq-son bo'g'imining yallig'lanishi
<i>Colitis</i>	— yo'g'on ichak shilliq pardasining yallig'lanishi
<i>Coronaritis</i>	— yurak arteriyasining yallig'lanishi
<i>Cholecystidis</i>	— o't pufagining yallig'lanishi
